



UDK:811.1

*Shohista ABDUJABBOROVA,*  
*Andijon davlat chet tillar instituti katta o'qituvchisi*  
*E-mail: abdujabborovashohista645@gmail.com*

*F.f.n., dots.J.Kurbanbayev taqrizi asosida*

### THE GENESIS OF RIDDLES IN WORLD LINGUISTICS AND THEIR LINGUISTIC DESCRIPTION

Annotation

The article discusses the history of riddles in Western linguistics, their comparative analysis and theoretical-philosophical foundations in different systematic languages. The creation of riddles in folk art, the role of folklore as a genre is analyzed based on historical sources. In addition, the linguistic features of the riddle, its semantic field in the dictionary, and its synonym relations are briefly described by comparison.

**Key words:** Riddle, genre, puzzle, component, figurative, hierarchical, cryptomorphic, mythopoetic, artifact, parody, fragment, association, construction.

### ПРОИСХОЖДЕНИЕ ЗАГАДОК В МИРОВОЙ ЛИНГВИСТИКЕ И ИХ ЛИНГВИСТИЧЕСКОЕ ОПИСАНИЕ

Аннотация

В статье рассматривается история загадок в западном языкознании, их сравнительный анализ в разных систематических языках, их теоретические и философские основы. На основе исторических источников анализируется создание загадок в народном творчестве, роль фольклора как жанра. Кроме того, путем сравнения кратко описываются языковые особенности загадки, ее смысловое поле в словаре, синонимические отношения.

**Ключевые слова:** Загадка, жанр, головоломка, компонент, образный, иерархический, криптоморфный, мифопоэтический, артефакт, пародия, фрагмент, ассоциация, конструкция.

### JAHON TILSHUNOSLIGIDA TOPISHMOQLAR GENEZISI VA ULARNING LINGVISTIK TAVSIFI

Annotatsiya

Maqolada G'arb tilshunosligida topishmoqlar tarixi, ularning turli tizimli tillardagi qiyosiy tahlili hamda ularga doir nazariy-falsafiy asoslar haqida fikr yuritiladi. Topishmoqlarning xalq og'zaki ijodiyotida yaralishi, folklor janr sifatidagi roli tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Bundan tashqari, topishmoqning lingvistik xususiyatlari, lug'atdagi semantik maydoni, uning sinonim munosabatlari solishtirish orqali qisqacha bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Topishmoq, janr, jumboq, komponent, majoziy, ierarxik, kriptomorfik, mifopoetik, artefakt, parodiya, fragment, assotsiatsiya, konstruktsiya.

**Kirish.** Topishmoq xalqaro janr bo'lib, barcha xalqning topishmog'i millatning yashash tarzi, sharoitini aks ettiruvchi original asar, beqiyos tarix, bilimlar manbaidir. Har bir millatning topishmog'i tematik jihatdan keng qamrovli va benazir tabiati bilan ajralib turadi. Axir, insoniyatning kechinmalari, ijtimoiy-maishiy turmushi, kundalik hayotda zarur bo'lgan uy ro'zg'or buyumlari, nabotot va hayvonot olami, oziq-ovqatdan tortib mehnat qurollarigacha, atrof-muhitning nozik qiyofasi hamda tangri yaratgan ne'matlari nihoyatda teran satrlarda, fikrlashga undagan holda, keng mazmunli biroq ixcham ko'rinishda silliq ifoda etilishini asosan topishmoqlarda payqash mumkin. Topishmoqlar mana necha asrlar-ki hajmi jihatdan siqqligi bilan xalq xizmatini bajarib kelmoqda, avloddan avlodga me'ros bo'lib, zamon ildamlashi, rivojlanishi, o'zgarishi ta'sirida uning bir necha turi, yangi qiyofasi shakllanib bormoqda.

Topishmoq har doim ikki komponentdan – majoziy qism va taxmindan tashkil topgan struktur birlikdir [1]. Ikki qism (topishmoq-topishmoqning javobi, yechim, zagadka-otgadka, решение, riddle-answer, clue, solution) ham o'zining nomiga muvofiq atalgan. Topishmoq janrining paydo bo'lishi qadimgi davrlarga borib taqaladi, uning faoliyati ritual xarakterga ega. Dunyo tilshunosligida topishmoqlarning kelib chiqishi, tarixi, yaratilish sabablari, qo'llanilish jihatlari jahon tadqiqotchiligidagi qizg'in, baxstlab hamda keng o'rganilgan masaladir.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** G'arb tilshunosligida folklor janr, xususan topishmoq tadqiqiga bag'ishlangan yirik asarlar A. Taylor, A. Orchard, R. A. Georges, D. Bitterli, E.Kenges-Maranda, J. Black, J. Neville, J. Paz, L.K. Shook, Ph. Cousineau, P.J. Murphy, H. Price, F.J. Child, K. Thomas, T.A. Green, V. Hull ga tegishlidir. Rus tilshunosligi barcha tadqiqotlar borasida keng miqyosda chuqur va puxta tahlilga ega bo'lishlikda yetakchilik qiladi. Shu jihatdan, topishmoqlarning paydo bo'lishi, tarixi, xalq orasida ishlatilishi, qo'llanishiga ko'ra turlari, ularning lingvokulturologik, sotsiopragsmatik, leksik-semantik jihatlari borasida ko'zga ko'ringan folklorshunoslar A.A. Rijkenkova, A.B. Krivenko, M.V.Volkova, N.I. Fayzulina, O.N. Govorkova, O.V.Magirovskaya, S.S. Kondrasheva, S.Ya. Senderovich, T.S. Kuznetsova, V.P.Anikin, V.V.Chernishev, E.Kengas-Maranda, E.D.Yusupova larning tadqiqotlarini kuzatish mumkin.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Rus tilshunosi O.N. Govorkova o'zining "Rus xalq topishmoqlarini to'plash va o'rganish tarixiga bag'ishlangan ilmiy ish ma'lumotiga ko'ra, "zagadka", ya'ni "topishmoq" atamasi ilk bor qadimgi yozma rus matnlarida XVII asrning o'rtalarida, taxminan, 1649-yil Verxotursk gubernatori Raf Vsevoljskiyning xotirasi qayd etilgan matnda qo'llanilgan [2]. Bu asarlar topishmoqni mustaqil janr sifatida ushbu asr o'rtalarida mavjud bo'lganligi va uni turli marosimlarda o'yin sifatida qo'llanilganligi, qo'shiq va raqslar bilan bir qatorda qoralanganligi, xalq

hayotida keng tarqalganligi va ma'lum bir marosim ahamiyatiga ega bo'lganligi haqida xabar qiladi.

Bolalar folklorshunosi V.P. Anikinining qayd etishicha, qadimda har bir shaxsning maxsus "sirli" nutqni bilishi o'zi va oilasi uchun farovonlikni ta'minlashga qaratilgan majburiyat bo'lgan: bu bilim ovda, kundalik hayotda, boshqa insonlar bilan munosabatlarda ham zarur bo'lgan [3]. Masalan, sodir bo'layotgan voqealarning ma'nosini yovuz dushman kuchlaridan yashirish istagidan kelib chiqib kelin-kuyovni "o'z ismlari bilan chaqirilmagan" to'ydagi majoziy nutq, ya'ni topishmoqlarga murojaat etganliklari aniqlangan. Zero, rus folklorshunosi topishmoqlarning genezisini baliq ovlovchilar, shudgorchining e'tiqodi, chorvadorlarning sirli nutqi, ovchilar, tabu va boshqacha so'zlashish uslubida ko'radi [3]. Yana bir ma'lumotga ko'ra, topishmoq yozma shaklda miloddan avvalgi to'rt ming yillikda Iroqdagi loydan yasalgan lavhalarda paydo bo'lgan [4].

A.B. Krivenkoning bayonotiga asosan esa, topishmoqning paydo bo'lishi O'rta yer dengizi mamlakatlari uchun miloddan avvalgi I ming yillikka tegishli bo'lsa, qadimgi Misr madaniyatida miloddan avvalgi III ming yillikka, shuningdek, mualliflik topishmoqlarining paydo bo'lishi esa taxminan miloddan avvalgi VII asrga to'g'ri keladi [5]. Ingliz topishmoqlarining yaralishiga e'tibor qaratsak, Anglo-sakson topishmoqlari anglo-sakson adabiyotining muhim janri hisoblangan. Topishmoq o'rta asrning boshlarida Angliyada asosiy, diqqatga sazovor adabiy janrlardan edi hamda u lotin va qadimgi ingliz she'rlarida aks etgan. Ilk o'rta asrlarda Angliyada lotin topishmoqlarining taniqli ijodkori Aldhelm bo'lsa, X asrda «The Exeter Book» nomli kitobida topilgan qadimgi ingliz she'riy topishmoqlari esa yuksak mashhurlikni o'z ichiga oladi [6]. Anglo-sakson she'riyati antologiyasi bo'lgan Ekseter kitobida 90 dan ortiq she'riy topishmoqlar mavjud, biroq hali hanuz ularning barchasi olimlar tomonidan tahlil qilinmagan.

**Tahlil va natiжалar.** Qadimgi ingliz topishmoqlari axloqiy qadriyatlar g'oyalari (ota-onalik burchi, bilim, e'tiqod va qalbning muqaddasligi to'g'risida) majoziy ifodalash vazifasini bajaradi, ular katexizmga yaqin bo'lgan xristian hayot tamoyillarini majoziy shaklda tushuntiradi. Bu, masalan, topishmoqda qandaydir bir jonzot (kakku qushining bolasi) tug'ilishidan oldin yetim qolgan, ota-onasi tomonidan jonsiz (ya'ni tuxumda) tashlab ketilgan va boshqa onadan tug'ilganligi, unga o'zga onaning qardoni bo'lgani haqida hikoya qiladi [7]:

I was an orphan before I was born / Cast without  
breath by both parents / Into a world of brittle death, I found /  
The comfort of kin in a mother not mine. -

Tug'ilgunimcha yetim qoldim / Ota-onamning  
ikkisidan nafas olmasdan tashlandim / Mo'rt o'lim olamida  
topildim / Onamdagi qondoshlik menga tegishli emas.

Aldhelmning lotincha topishmoqlari VIII asrdayoq qadimgi ingliz topishmoqlar kompozitsiyasini ilhomlantirgan: buni Aldhelm topishmoqlarining tarjimasi bo'lgan Leyden topishmog'i tasdiqlaydi [8]. Biroq, qadimgi ingliz topishmoqlarining aksariyati X asr oxiridagi Ekseter kitobida tasdiqlangan, uning hozirgi, parchalangan holatida 94 ta topishmoq mavjud (olimlar ularning qanchaligi haqida bahslashadilar, chunki she'rlar orasidagi bo'linishlar har doim ham aniq emas). Kitobda bir paytlar 100 ta jumboq bo'lgan yoki bo'lishi mumkin degan taxminlar mavjud. Topishmoqlarning hammasi alliterativ misrada yozilgan; ularning yechimlari berilmaydi va ba'zilar "say what I am called" - "meni nima deb atashini ayting" buyrug'i bilan tugaydi, bu ular haqiqatan ham og'zaki o'yin-kulgi sifatida qo'llanilganligini ko'rsatadi [9]. Angliyada adabiy janr sifatida topishmoqlar tarixi Shimoliy Afrikadan bo'lgan antik lotin jumboqlarining ta'sirli to'plamiga asoslanganligi taxmin qilinadi hamda ko'plab ingliz olimlari taqlid qilgan Simfiosius


ismli shoirga tegishli bo'lganligi ehtimollanadi [10]. Bundan tashqari, XI asr o'rtalarida Britaniya kutubxonasida 16 jildlik "Psalter" saqlanib qolgan, unda ikkita qadimgi ingliz nasriy topishmoqlari, Vinchesterda tayyorlangan maxfiy kodlar haqidagi qisqa matn ichida eslatmalar, ibodatlar va hisoblash jadvallari to'plami topilgan [11]. Ki, shunday ma'lumotlar ma'lumki, Franks Kasket nomli kit suvayidan yasalgan qutichada eski ingliz tilida runik yozuv bilan yozilgan matn ham mavjud bo'lib, uni ba'zi olimlar topishmoq sifatida ko'rishgan (topishmoqning javobiga "kit" so'zi taklif qilingan) [12]. Aniqlanishicha, yana bir ma'lumotga ko'ra, ingliz tili topishmoqlari lotin tillariga qaraganda ancha ko'proq o'rganilgan, ammo so'nggi tadqiqotlar natijasi o'laroq, bu ikki til guruhini birgalikda "Qadimgi ingliz tili va Ingliz-lotin enigmatografiyasining yuksak, umumiy an'anasi" jamlanmasi sifatida qabul qilish kerakligini uqtiradi. Qadimgi ingliz topishmoqlari o'tmishdagi ko'p ishlarining yechimlarini topish va muhokama qilishga qaratilgan edi, biroq zamon o'zgarгани sari ekokritsizmning tanqidiy yondashuvlari orqali Anglo-Sakson dunyoqarashini o'rganish usuli sifatida topishmoqlardan foydalanishni boshladi [13]. Masalan, ma'lum bo'lishicha, qadimgi "Exeter Book" nomli kitobda topishmoqlar Anglo-Sakson madaniyatini keng tarzda namoyish etadi, undagi topishmoqlar asosan barchaga ma'lum bo'lgan obyektlarga qaratilgan bo'lgan. Bundan tashqari, qayd etilishicha, "The Dream of the Rood" va "The Husband's Message" kabi she'rlar, shuningdek, "the Alfred Jewel" yoki "the Brussels Cross" kabi artefaktlar bilan juda ko'p o'xshashliklarga ega topishmoq ko'rinishlari saqlanib qolingani [14]. Ingliz tili madaniyatida topishmoq janrining rivojlanish tarixi olamning paydo bo'lishi, uning tuzilishi, qadriyatlar ierarxiyasi haqidagi bilimlarga ishora qiluvchi mifopoetik matnlarning o'zga tabiatidan qiziqarli o'yin, o'yin-kulgi va hazilga o'tishini ochib beradi. Ingliz topishmoqlarining rivojlanish tendensiyalari Ekseter kitobida belgilangan bo'lib, unda ham kosmogonik mifopoetik matnlar, ham provokatsion topishmoqlar va jumboqli topishmoqlar (kriptomorfik topishmoqlar - boshqotirmalar) mavjud. O'rta asr boshlarida Angliyada topishmoqlarning aksariyati olamning boshqa tomondan qarashlarini o'ziga qamrab oluvchi tasvirlaridan iborat bo'lgan jangovar erkaklar qiyofasi, ayollarga patriarxal munosabat, lordlarning o'z xizmatkorlari ustidan hamda insoniyatni hayvonlar ustidan hukmronligi kabi ijtimoiy me'yorlarni chetlagan holatdagi mavzularga yo'naltirilgan [13].

"Exeter Book" kitobidagi topishmoqlardan g'ayriinsoniy ajoyibotlar yuzaga chiqib, ular qayerdan kelib chiqqanligi, qanday yaratilganligi, qanday harakat qilishlari yoki harakat qilmasliklari haqida gapirib beradi. Misol uchun, Andreas qo'lyozmasida, biz tosh farishtalarni o'yilgan devordan chiqib, gapirganliklari, uchib yurib o'liklarni tiriltirgani haqida o'qishimiz mumkin. Topishmoqlarda ko'rish, eshitish yoki tasvirlash mumkin bo'lgan turli narsalar: qurollar, hayvonlar, oziq-ovqat, ichimlik, asboblari, samoviy jismlar ga nisbatan I saw a creature, I am a wondrous creature jumlarini boshlab aytish urf bo'lgan [14]. Umuman olganda, topishmoqlarga alohida to'plam sifatida e'tibor qarash, uni mustaqil ravishda shakllantirish barcha tillarda namoyon bo'lgan. Masalan, dastlab 50-60-yillarda Vernam Hal va Archer Taylor XX asr «A collection of Welsh riddles» - Uels topishmoqlari to'plami va «A collection of Irish riddles» - Irland topishmoqlari to'plami nomli ikkita topishmoqlar to'plamini yaratganlar [15]. Ko'rinadiki, to'plamlarning nomi orqali uni qaysi millatga ega ekanligini bilish mumkin, bu ajratilib ko'zga yaqqol tashlanib turadi. To'plamlarning o'zida topishmoqning javobini topishga yo'naltirilgan qiyosiy prinsipi haqida axborot beruvchi mundarija jadvali mavjud: Comparison to a man, Comparison to a plant, Comparison to an animal va boshqalar [16].

Ingliz tilida topishmoqlar «riddle» deb yuritilsa, uning yana bir faol ekvivalenti «puzzle» hisoblanadi. Shuningdek, ingliz tilining «Collins Dictionary» onlayn lug'atiga asosan biz «riddle» leksemasining bir necha ta'riflari va sinonimlariga ega bo'lishimiz mumkin: riddle [17] 1. (noun) in the sense of puzzle. Definition: a question, puzzle, or verse phrased so that ingenuity is required to find the answer or meaning. Ex: Tell me a riddle. Synonyms: puzzle, problem, conundrum, teaser, poser, rebus, brain-teaser (informal) 2. (noun) in the sense of enigma. Definition: a puzzling person or thing. Ex: a riddle of modern architecture. Synonyms: enigma, question, secret, mystery, puzzle, conundrum, teaser, problem

Umuman olganda, «riddle» uchun faol valent so'zlar puzzle, conundrum, question, paradox bo'lib, bular asosan chalkashlikka yetaklovchi fe'l leksemalar to puzzle, to confuse, to bewilder ga ishora qiladi. Shu bilan birga, puzzle (boshqotirma, jumboq) (1) hal qilinishi kerak bo'lgan

muammoni (masalani) o'z ichiga oladi; (2) muammoni va yakuniy yechimni ifodalaydi, bu yechim qanday yechilganligini aniqlashni talab qiladi yoki (3) bu mozaika tarzida verbal tavsif fragmentlaridan yoki turli shakllardagi rasmdan iborat bo'ladi va yechim uchun barcha javob kalitlarni o'z ichiga oladi [7]. Mustaqil janrning xususiyatlariga ega bo'lgan puzzle topishmoqdagi obyektini taxmin qilish usullaridan biri bo'lishi mumkin (kriptomorf-maxfiy topishmoqlar, arifmetik muammolar). Paradox (paradox) topishmoqlar yasash texnikasi sifatida ham xizmat qiladi: 1) antitetik tarzda, 2) deprivatsion ko'rinishda (What has a big mouth, yet never speaks? (Jar) - Nimaning katta og'zi boru, lekin hech gapirmaydi? (Ko'za), 3) harakat va natija o'rtasidagi ziddiyatga asoslanib (What goes to the mill every morning and makes no tracks?(Road, wind, smoke) - Har kuni ertalab tegirmonga borib, iz qoldirmaydigan nima? (Yo'l, shamol, tutun) [18].



1 - rasm. Riddle leksemasining semantik maydoni

Conundrum (hazil) ko'ngilochar so'z o'yini (a question asked for amusement, typically one with a pun in its answer; a riddle), ham kulgiga sabab bo'ladigan ikki tomonlama assotsiatsiya asosida qurilgan: What can be swallowed, or can swallow a person? (Pride), Nimani yutib yuborish mumkin, yoki insonni yutib yubora oladigan narsa? (Mag'rurlik), ham tayyor javobni taklif qilish bilan birga, topishmoq janrning hazilomuz parodiyasidir [7, 11]. Riddlening bu turlari borasida keyingi boblarda batafsil to'xtalib o'tamiz.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilinadiki, jahon tilshunosligida topishmoq genezisi nihoyatda chuqur tarixga ega. Topishmoq nafaqat bir xalqning balki umumjahon janr sifatida barcha tillarda qadimiy og'zaki adabiy janri sifatida tan olinadi. Har bir millatda uning yaratilish tarixi ko'plab

tilshunoslar e'tiborini tortgan. Shuning uchun, topishmoq o'zining milliy-madaniy o'tmishiga ega. Topishmoqlar qadim zamonlardan beri mavjud bo'lib, antik davrda keng tarqalgan xalq og'zaki ijodining kichik misralarda aks etuvchi obrazli tasvirga ega san'at asaridir. Topishmoqlar avloddan avlodga me'ros sifatida xalqning tarixi va madaniyatini o'zida ifodalab, millatning tili va dunyoqarashini aks ettiruvchi ham og'zaki ham yozma janr. U avvalo xalqning og'zaki ijodida mustahkamlanib, so'ngra yozma an'analarida paydo bo'ladi. Topishmoqning asosiy maqsadi adresatning zukkoligi va mantiqiy-fikrlashini sinashdan iborat ekanligi qadimdan hozirgi davrgacha rivojlanib bormoqda. Shu sababli, uning zamonaviy turlari shakllanib o'zining murakkab va sirli strukturasi saqlab kelmoqda.

#### ADABIYOTLAR

1. Kenges-Maranda E. Logika zagadok // Paremeologicheskii sbornik. Poslovisa. Zagadka (Struktura, smisl, tekst). - Moskva: Nauka, 1978. - S. 249—282.
2. Govorkova O.N. Russkaya narodnaya zagadka: istoriya sobiraniya i izucheniya: avtoref. dis. k. filol. n. - Moskva, 2004. - C. 21.
3. Anikin V.P. Russkie narodnie poslovisi, pogovorki, zagadki i detskiy fol'klor. - M.: Uchpedgiz, 1957. - S.56.
4. Kuznesova T.S. Zagadki Ekseterskogo kodeksa v fol'klorno-literaturnom kontekste Srednevekov'ya avtoref. dis. k. filol. n. - Chelyabinsk, 2008. - C.14.
5. Krivenko A.B. K voprosu ob enigmaticheskom variante aforisticheskogo teksta // Issledovaniya v oblasti balto-slavyanskoy duxovnoy kul'turi. Zagadka kak tekst 2. - M.: Indrik, 1999. - S.
6. Orchard Andy. Enigma Variations: The Anglo-Saxon Riddle-Tradition // in Latin Learning and English Lore: Studies in Anglo-Saxon Literature for Michael Lapidge, ed. by Andy Orchard and Katherine O'Brien O'Keefe, 2 vols. - Toronto: University of Toronto Press, 2005. - Pp. 284-304.
7. Kondrasheva S.S. Yazikovaya kartina mira v angliyskoy zagadke: avtoref. dis. k. filol. n. - Volgograd, 2017. - S.7.
8. Klein Thomas. The Old English Translation of Aldhelm's Riddle Lorica: The Review of English Studies, 1997. - P. 345-349.
9. Joseph Black. The Broadview Anthology of British Literature: Volume 1: The Medieval Period. 2nd ed. - Ontario, Canada: Broadview Press, 2009. - P. 141.
10. Sebo, Erin, 'Was Symphosius an African? A Contextualizing Note on Two Textual Clues in the Aenigmata Symphosii', Notes & Queries, 56.3, 2009, 324-326.

11. Bitterli D. Two Old English Prose Riddles of the Eleventh Century, in *Words, Words, Words: Philology and Beyond*, edited by Sarah Chevalier and Thomas Honegger. -Tübingen: Franke, 2012, pp. 1-11.
12. Katherine C. *The Mediterranean Scenes on the Franks Casket: Narrative and Exegesis* // *Journal of the Warburg and Courtauld Institutes*, 2015. – Pp. 35.
13. Price H. *Human and NonHuman in Anglo-Saxon and British Postwar Poetry: Reshaping Literary Ecology*. – PhD thesis, University of Leeds, 2013. - 250 p.
14. Paz J. *Nonhuman Voices in Anglo-Saxon Literature and Material Culture*. - Manchester: Manchester University Press, 2017. - Pp. 17-26.
16. *Encyclopedia Britannica*. - Encyclopedia Britannica, Inc Corporate Site. Archived from original. Riddle.1768-2010. 15th edition. – P 26379.
17. Hull V., Taylor A. *A Collection of Irish Riddles*. – USA: University of California Press, 1955. – 129 p.
18. [https://www.collinsdictionary.com/dictionary/english-thesaurus/riddle#riddle\\_\\_4](https://www.collinsdictionary.com/dictionary/english-thesaurus/riddle#riddle__4)
19. Georges R. A. *Folkloristics: an introduction* / Robert A. Georges, Michael Owen Jones. - Bloomington: Indiana University Press, 1995. - 336 p.



Muhayyo AZIMOVA,  
O'zbekiston Milliy Universiteti o'qituvchisi  
E-mail: muhayyoazimova22@gmail.com

O'zDJTU kata o'qituvchisi, PhD Sh. Abdullayeva taqrizi asosida

### DISTINCTIVE CHARACTERISTICS OF MEIOSIS AND LITOTAS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Annotation

The main lexical and semantic features of meiosis and litotas are explained in the article. The opinions of various scholars have been reviewed in order to gain an overview of the nature of these stylistic devices. How meiosis and litotes interact with hyperbole, their similarities and differences are also discussed.

**Key words:** Meiosis, litotes, reduction, lexical aspect, semantic aspect, hyperbole, grotesque, gradation.

### ОТЛИЧИТЕЛЬНЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ МЕЙОЗИС И ЛИТОТА В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

В статье разъясняются основные лексико-семантические признаки мейозис и литоты. Были проанализированы мнения различных ученых, чтобы получить общее представление о природе этих стилистических приемов. Обсуждаются также взаимодействие мейозис и литоты с гиперболой, их сходства и различия.

**Ключевые слова:** Мейозис, литота, редукция, лексический аспект, семантический аспект, гипербола, гротеск, градация.

### INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MEYOZIS VA LITOTALARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada meyozis va litotalarning asosiy leksik va semantik xususiyatlari yoritib beriladi. Ushbu stilistik vositalarning tabiati haqida umumiy ma'lumotga ega bo'lish uchun turli olimlarning fikrlari ko'rib chiqilgan. Meyozis va litotaning giperbola bilan qanday aloqaga kirishishi, o'xshash va farqli jihatlari bo'yicha fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Meyozis, litota, kamaytma, leksik aspekt, semantik aspekt, giperbola, grotesk, gradatsiya.

**Kirish.** Turli stilistik vositalar muallifning individual uslubini yaratishda muhim rol o'ynaydi. Bunday stilistik vositalardan meyozis va litotalarni keltirishimiz mumkin. Bugungi kun tilshunosligida ular katta qiziqish uyg'otmoqda, chunki meyozis va litotalar unchalik chuqur o'rganilmagan stilistik vositalar hisoblanadi. Bundan tashqari, o'zbek tilshunosligida ingliz tili atamashunosligi bilan bog'liq farqlar mavjud. Shunday qilib, maqolaning asosiy yo'nalishi meyozis va litotalarning tabiatini o'rganish, ularning leksik va semantik xususiyatlarini ingliz va o'zbek tillaridagi misollar yordamida ko'rib chiqishdir. Bundan tashqari, giperbola bilan meyozis va litotalarning o'xshash va farqli jihatlari yuzasidan olimlarning fikr-mulohazalarini taqqoslab tahlil qilishdan iborat.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Giperbola, meyozis va litotalarni asosan semantik va stilistik adabiyotlarda uchratish mumkin. Meyozis va litota uchun eng muhim ta'riflar quyidagi kitoblarda berilgan: Otto Jespersen tomonidan yozilgan "Negation in English", L.P.Krisinning asarlarida [1]. Shuningdek, biz turli lug'atlardan ushbu stilistik vositalarga berilgan ta'riflarni ko'rib chiqdik, masalan, Bernard Mari Dupriezning "Dictionary of Literary devices" va R.T. Xromiak, Yu.I. Kovalivning "Literary Guide Dictionary" va boshqa lug'atlar. Tadqiqotlarimizda o'zbek olimlarning fikrlari ham salmoqli o'rin tutadi. Ular orasida G.M. Xoshimov, F. Abduraximovalarni ta'kidlash joizdir.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Olimlar hali ham meyozis va ayniqsa, litotalarning aniq ta'riflari haqida bahslashmoqda. Ingliz tilida "meiosis" meyozis atamasiga bir necha ta'riflar berishgan, lekin "litotes" litotalar atamasi bo'yicha ta'riflar yetarli emas. Ba'zan litotalar mustaqil adabiy vosita sifatida umuman hisoblanmaydi. Bizning ko'rib chiqadigan yana bir narsa bu lingvistik vositalarni ikki til nuqtai nazaridan solishtirishdir. Litotalar va meyozisning mos keltirish ham

ko'plab savollarni tug'diradi. Jeyms Yasinski o'zining ritorikaning turli jihatlari uchun oid qo'llanmasida meyozisga quyidagi ta'rifni beradi: "Meyozis - bu muhim narsani kamaytirib yoki ozaytirib tasvirlaydigan vosita" [2]. Yasinskidan farqli o'laroq, Bernard Mari Dupriez meyozisni faqat istehzoli izohga qisqartiradi va bizga ushbu stilistik quzilmaning ta'rifini beradi: "biror narsani o'zidan kamroq qilib ko'rsatish uchun istehzoli kamsitishdan foydalanadigan raqam: istehzoli urg'u shakli" [3]. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasida esa quyidagi ta'rifni uchratish mumkin: Kichraytirish, litota — istiora turlaridan biri. O'zbek mumtoz adabiyotida: tafrit, tasg'ir (mo'tadillikdan pastki holat). Kichraytirish 2 narsa, hodisa yoki tushuncha o'rtasidagi umumiy va juz'iy xususiyatlarga asoslanadi, ularning hajm, vaqt, o'lchov jihatlari qiyosan kichraytiriladi. Mubolag'aning aksi. Tasvir obyektini o'ta kichik, zaif qilib ifodalash orqali uning mohiyati ta'kidlanadi. Shuningdek, tasvirga haddan tashqari ko'tarinkilik, satirik va yumoristik ruh berish uchun ham qo'llaniladi. Kichraytirish leksik jihatdan o'xshatish, sifatlash, istioraga asoslanadi [4].

**Tahlil va natijalar.** Giperbola va unga yaqin hamda uyqash bo'lgan hodisalar nazariyasining eng kam ishlangan masalasi bu giperbolaga tamoman teskari bo'lgan kontseptual semantika, ya'ni "o'ta kichraytirish/kamaytirish semantikasi"ni ifodalash uchun maxsuslashgan til hodisalarining maqomi va ularni qanday talqin qilish masalasi bo'lib qolmoqda. Ba'zi bir olimlar obyektiv borliqdagi voqe'likning sifat, miqdor, daraja kabi tavsifini "o'ta kichraytirish" yoki "o'ta kamaytirish", masalan, jimjiloqdek, kichkiina, mitti, zarradek, zig'irdek, eng kam, o'ta sodda, eng kaltafahm, o'ta befarosat, dengizdan bir tomchi, hamir uchidan patir, as thin as a rail, extremely poor, inferior, surprisingly low, bir tomchi suvga zor, bir so'z ortiqcha, bir

qoshiq qondan kechmoq va h.k. larni giperbolaning bir ko'rinishi deb hisoblaydilar.

Bu masalaga yondashishda L.P.Krisin tomonidan tavsiya etilgan kontseptsiya o'ziga xos bo'lib, u bu haqda quyidagicha yozadi: "Predmetning o'ta kichraytirilishi/kamaytirilishi – bu predmetning kichik hajmini, sig'imini o'ta kattaytirish (kuchaytirish)dan o'zga narsa emas" [5]. Lekin bizning "o'ta kichraytirish ("o'ta kamaytirish") hodisasiga munosabatimiz L.P. Krisinning munosabatidan butunlay boshqacha. Gap shundaki, biz giperbola bilan predmet jihati tavsifini "o'ta kichraytirish ("o'ta kamaytirish") hodisalari bir-biriga ma'lum jihatdan yaqin va umumiy bo'lsada, ular o'rtasida tubdan farq qiladigan lingvokognitiv, struktural-semantik, mazmuniy-semantik, kommunikativno-pragmatik, psixolingvistik va sotsiolingvistik jihatlar, qirralar mavjud ekanligiga urg'u beramiz, chunki giperbola ifodalaydigan, vaholanki ifodalashi lozim bo'lgan "o'ta kuchaytirish (o'ta kattaytirish), ya'ni "mubolag'alashtirish"ni, uning aksi bo'lgan "o'ta kichraytirish (o'ta kamaytirish), ya'ni "antigiperbolizatsiya" emasligidan kelib chiqib, "o'ta kichraytirish ("o'ta kamaytirish")ni giperbolaning antipodi deb talqin qilishga to'liq asos bor, ya'ni u meyoziydir. Shunday qilib, giperbolani unga yaqin va uyqash bo'lgan meyoziy, litota, metabola, antigiperbola, shuningdek kuchaytirish, grotesk kabi stilistik hodisalardan aniq farqlab olish lozimdir.

Qiyosiy tipologik tahlillarimiz shuni ko'rsatdiki, tilda va nutqda giperbola tushunchasi va atamasi mavjud bo'lishi bilan bir qatorda, bizningcha, uning antipodi "antigiperbola" ham mavjuddir. Antigiperbola, giperboladan farqli o'laroq, o'z o'rnida ayrim tavsiflarni, tushunchalarni o'ta kichraytirishni kamaytirishni taqozo etadi, masalan:

Wait just half a second; A storm in a tea cup. (Proverb); She wore a pink hat, the size of a button; An unfortunate man would be drawn in a tea cup. (Proverb); I have not had a wink of sleep these last two nights; He did not even open his lips, though he was well aware of the mess. "Wait just half a second" misolida so'zlovchi uzoq kutmasligi, uning iltimosi qisqa vaqt orasida bajarilishi inobatga olingan. Shu o'rinda "just a moment", "in a little while"larni misol qilib keltirish mumkin. Aytish joizki, real hayotda voqealar bunday tez sodir bo'lishi mumkin emas. Bunda so'zlovchi tinglovchini tinchlantrimoqchi bo'ladi, ya'ni uning ko'p kutmasligiga ishora qiladi.

Giperbolalarni bir tizimga solishda ularga yaqin bo'lgan boshqa troplarining stilistik maqomi, struktural-semantik tabiati, xullas ularning lisoniy tavsifi inobatga olinadi. Shu nuqtai nazardan olinganda avvalo bir tomondan giperbolema va antigiperbolemani, shuningdek ularga uyqash bo'lgan meyoziy va litota bilan, ikkinchi tomondan, giperbolema va groteskni, qolaversa giperbolema va gradatsiyaning o'zaro munosabatlarini ko'rib chiqish joizdir. Bu ma'noda sodda qilib aytganda, giperbola predmetning ma'lum bir tavsifini o'ta oshirib, bo'rttirib, gupirtirib ifodalash vositasidir, masalan: "I told you not to do it a hundred times. Men senga uni qilma deb yuz marta aytdim". Meyoziy esa predmetning ma'lum tavsifini o'ta kamaytirib, kichraytirib ifodalash vositasidir, masalan: Donot utter even half a word! Yarimta so'z ham sig'maydi!

Meyoziy bu predmetlarning ma'lum tavsifini odoblilarcha, xushmuomalilik bilan kichraytirib, kamaytirib, istihola yoki mulozimat orqali ifodalash vositadir, masalan: "I cannot say he is clever. Men uni aqlli deb ayta olmayman.. Siz undan zarracha ham qo'rqmaysiz deyishdan yiroqman".

Litota bu biron bir predmetning ma'lum bir tavsifini kichraytirib, kamaytirib ifodalashning bir usuli bo'lib, unda aksariyat hollarda biron bir tavsif inkor orqali teskari izohlanadi, masalan: "He is a very rich person.-U juda boy

odam; (giperbola).- And we are not poor either. -Biz ham kambag'al emasmiz" (litota).

Agar til vositalari orqali mulqotdoshga biron bir narsaning tavsifini yumshatib, odoblilik, kamtarlik, kerak bo'lsa ma'lum darajadagi mulozimat bilan o'ta kichraytirish yoki kamaytirish orqali ifodalansa va yetkazilsa, unda antigiperbola bilan meyoziy qorishuvi kuzatiladi. Shu bois uni qorishiq stilistik vosita sifatida "antigipermeyoziy" deb atash maqsadga muvofiqdir [6], masalan: "I will abstain from saying even just half a word about it. Men bu haqda bir og'iz bir narsa deyishga ham istihola qilaman".

Tilda giperbola bilan litotaning qorishuvi ham kuzatiladi, natijada yangi qorishiq - sinkretik stilistik vosita, ya'ni «antigiperlitota» ham uchrashi mumkin [6], masalan: "Sizga bu narsalar juda ham yoqib tushmas kerak. Not at all a drop in the ocean. She is not at all a tiny creature. She is not at all stupid in her manners".

Grotesk bu badiiy stilistik vosita bo'lib, u bevosita real va fantastik, tragik va komik, chiroyli va xunuk voqe'liklarning qarshilantirib qo'shilishiga, biriktirilishiga va qorishishiga, shu yo'sinda hatto ularning odam aqli bovar qilmaydigan darajada o'ta mubolag'alashtirilishiga asoslanadi, masalan:

Ne asrlar asirasi, zulmat qurboni,  
Tarixlarning gardanida yoqut, marjoni,  
Insonlarning sut emizgan onasi, joni,  
Odamlarning teng yarimi, yuragi, qoni,

Yuragimning sadporasi bo'lgan san'atim (Sh.Jo'raev. San'atim, 57 b.).

U devdek zabardast, tog'ni ursa talqon qiladigan baquvvat, pahlavon yigit (O'zbek xalq ertaklari, 197).

Agar groteskka sinchkovlik bilan qaralsa, u quyidagi muhim jihatlarga ega:

doimo tekstema orqali voqe'lantiriladi;

u giperbolemaning eng kuchli funktsional-semantik turi;

u o'ta mubolag'alashtirishning eng kuchli shakli.

Gradatsiya ham stilistik vosita bo'lib, biron bir voqelik yoki jihatning izchillik va asta-sekinlik bilan bir holatdan ikkinchi holatga yoki kuchayish, yoki susayish yo'li bilan o'tishini ifodalash uchun qo'llaniladi, masalan: I like you, I love you, I adore you, I am mad about you, I am crazy about you! Men seni yaxshi ko'raman, men seni sevaman, men seni jonimdan xam yaxshi ko'raman, men sensiz jinni bo'lib qolaman, men sensiz yashay olmayman!

Antigradatsiya (ya'ni antiklimaks) ham bu o'rinda antigiperbola bilan bir qadar aloqaga kirishadi, chunki u ham ma'lum tavsifning tobora kamayib, susayib, kuchsizlanib borishini ko'rsatadi, masalan: Look, it is ridiculous that such a demon like, big strong and husky fellow is afraid of such a little mouse! Shunday devsiyat, zabardast, pahlavon yigitning kichkina bir sichqondan qo'rqishini qarang, kulasiz!;

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, giperbola, antigiperbola, litota, meyoziy, gradatsiya, antigradatsiya, klimaks, antiklimaks va grotesklar hayotda predmetlar tavsifini yoki kuchaytirish (kattaytirish), yoki kichraytirish (kamaytirish) bilan bog'liq ekan, ularning asosiy farqi shundaki, giperbola, antigiperbola va groteskda ma'lum tavsifni doimo o'ta kuchaytirish (kattaytirish) yoki o'ta kichraytirish (kamaytirish, kuchsizlantirish) kuzatilsa, litota va meyoziylarda oddiy, odatiy kichraytirish (kamaytirish) semantikasi bor, lekin "o'ta kichraytirish (kamaytirish)" semantikasi yo'q. Pirovardida ularning qorishuvi bizga "antigipermeyoziy" va "antigiperlitota"larni beradi, ular esa yangi "qorishiq (sinkretik)" stilistik vositalar deb qaralishi lozim.

Turli stilistik vositalar tilshunoslikning muhim qismidir. Ular tilni boyitadi, matnga o'ziga xos uslub qo'shadi. Meyoziy va litotalar ayniqsa muhimdir, chunki ular holatni

yoki fikrni o'quvchiga tushunarli va ravon qilib yetkazishga xizmat qiladi, hamda vaziyat haqida o'ylashga undaydi. Ushbu stilistik vositalarni qo'llash muallifga hikoya doirasidagi o'zgaruvchan darajali ohanglar oralig'ini yaratishga imkon

beradi. Meyozis va litotalar yordamida yashirin ma'noni muvaffaqiyatli ifodalash mumkin. Bundan tashqari, litotalar alohida qiziqish uyg'otadi, chunki uning g'ayrioddiy tuzilishi o'quvchi e'tiborini tortadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Jespersen O. Negation in English and Other Languages. London: Forgotten Books, 2012. 160 p.
2. Jasinski J. Sourcebook on Rhetoric. Thousand Oaks, California: Sage Publications, Inc, 2001. 641 p.
3. Dupriez B.M. A Dictionary of Literary Devices: Gradus, A-Z. University of Toronto Press, 1991. 545p
4. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
5. Крысин Х.П. Гипербола в русской разговорной речи. / Проблемы структурной лингвистики. Сб. науч.тр. М.; Наука, 1988, 9-11. - с.
6. Хошимов Ф.М. Турли тизимли тилларда антигиперболанинг лингвостилистик мақоми // Kognitiv tilshunoslik va filologiyaning dolzarb masalalari. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, Farg'ona. 2017, 92-95-б. Ф.Абдурахимова билан ҳаммуаллифликда)



UDK: 81'373.2:821.111:821.512.133

**Maftuna BAXTIYOROVA,**  
*O'zbekiston Milliy universiteti tadqiqotchisi*  
*E-mail:maftunabakhtiyorovna.phd@gmail.com*

*O'zMU dotsenti I.O'sarov taqrizi asosida*

## THE IMPOTANCE OF PROPPER NOUNS IN THE COMBINATION OF THE LANGUAGE AND THE CULTURE

Annotation

The purpose of the article is to study the characteristics of onomasticon in English and Uzbek languages that reflect nationality, the role of anthroponyms in linguistic and cultural studies, the fact that artistic names in both languages express the ethnic origin, nationality, gender, age, and social status of a literary character. If onomastics is understood as the study from the point of view of linguistic and sociolinguistic research of any proper noun that makes up onomastic units, then onomasticon is a dictionary that expresses a general set of proper nouns in a language and it is a noun that belongs to the language of an ethnic group in a certain period. In particular, the study of pragmatic aspects of onomasticons is gaining theoretical and practical importance, research in this direction allows to determine the ontological essence and linguocognitive mechanism of relations between people in the framework of linguistic communication.

**Key words:** Onomasticon, proper noun, ethnic group, linguistic and cultural, cultural category, text, mentality.

## ЗНАЧЕНИЕ ИМЕНИ СОБСТВЕННЫХ В СОЧЕТАНИИ ЯЗЫКА И КУЛЬТУРЫ

Аннотация

Цель статьи – изучить особенности ономастиконов в английском и узбекском языках, отражающие национальную принадлежность, роль антропонимов в лингвокультурологии, тот факт, что художественные названия в обоих языках выражают этническое происхождение, национальность, пол, возраст и социальный статус изображения. Если под ономастикой понимать изучение с точки зрения лингвистического и социолингвистического исследования любого имени нарицательного, составляющего ономастические единицы, то ономастикон – это словарь, выражающий общий набор имен нарицательных в языке. Язык этноса в определенный период представляет собой набор имен нарицательных. В частности, изучение прагматических аспектов ономастиконов приобретает теоретическое и практическое значение, исследования в этом направлении позволяют определить онтологическую сущность и лингвокогнитивный механизм отношений между людьми в рамках языкового общения.

**Ключевые слова:** Ономастикон, имя нарицательное, этнос, лингвокультурная группа, культурная категория, текст, менталитет.

## TIL VA MADANIYAT UYG'UNLASHUVIDA ATOQLI OTLARNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada ingliz va o'zbek tillarida onomastikonlarning milliylikni aks ettirish xususiyatlari, lingvomadaniyatshunoslikda antroponimlarning o'rni, chog'ishtirilayotgan har ikkala tilda badiiy onimlar obrazning etnik kelib chiqishi, millati, jinsi, yoshi, ijtimoiy mavqeyini ifodalashi kabi lingvomadaniy xususiyatlarini o'rganish maqsadi ko'zlangan. Onomastika deganda onomastik birliklarni tashkil qiluvchi har qanday atoqli otni lingvistik va sotsiolingvistik aspektda tadqiq qilishi nuqtayi nazaridan o'rganish tushuniladigan bo'lsa, onomastikon biror tildagi atoqli otlarning umumiy majmuini ifoda etadigan lug'atdir va u muayyan davrdagi etnik guruhning tiliga tegishli bo'lgan atoqli otlar majmuidir. Xususan, onomastikonlarning pragmatik jihatlarini o'rganish nazariy hamda amaliy ahamiyat kasb etmoqda, bu yo'nalishdagi izlanishlar lisoniy mulohot doirasida insonlar o'rtasida kechadigan munosabatlarning ontologik mohiyati va lingvokognitiv mexanizmini aniqlashga imkon beradi.

**Kalit so'zlar:** Onomastikon, atoqli ot, etnik guruh, lingvomadaniy, madaniyat kategoriyasi, matn, mentalitet.

**Kirish.** So'nggi paytlarda tilshunoslikda til faqat mulohot vositasi sifatida emas, millatning madaniy ko'rsatgichi sifatida qaraluvchi tadqiqotlar juda ko'plab olib borilmoqda. Bu kabi tadqiqotlar xalq madaniyatining eng nozik qirralari uning o'ziga xos bo'lgan tilida namoyon bo'lishi to'g'risidagi tasavvurlarga asoslanadi. Bunday yondashuvlardan kelib chiqib, til nafaqat millatning zamonaviy mentaliteti, shuningdek, oldingi davr odamlarining dunyo, jamiyat, va o'zlari haqidagi fikrlarini ham tahlil etishni talab etadi.

Onomastik material juda katta madaniy salohiyatga ega bo'lishiga qaramay, onomastika lingvomadaniy aspektida yetarli darajada o'rganilmagan. E.L.Berezovich ta'kidlaganidek, atoqli otning madaniy va tarixiy qiymati haqidagi axborotni e'lon qilishning o'zi yetarli emas, balki onomastikondan madaniy va tarixiy ma'lumotlarni olish

metodologiyasi, shuningdek, bu ma'lumotlarni tavsiflash va talqin qilish metodologiyasini ishlab ham chiqish kerak [3].

**Mavzuga oid dabiyyotlar tahlili.** Onimlarning denotatsiyaga nisbatan terminologik tizimi va tasnifi, til diaxroniyasida kechgan tarixiy jarayonlar tasviri, atoqli otlarning shakllanish jarayonlari, ularning matn tuzilishidagi roli xorijiy tilshunos olimlar J.O.Butler, A.H.Gardiner, R.Langacker, M.A.Halliday, G.N.Leech, A.Wierzbicka, S.Brendler, B.Abbott, K.Bach, W.F.Nicolaisen, L.R.N.Ashley, rus tilshunos olimlari A.A.Reformatskiy, A.V.Superanskaya, V.D.Bondaletov, M.V.Gorbanevskiy, V.N.Mixaylov, V.A.Nikonov, L.M.Shetin, V.I.Bolotov, N.D.Arutyunova, V.A.Maslova, Y.S.Kubryakova, I.R.Galperin, V.I.Karasik, V.I.Txorik, S.G.Ter-Minasova, V.V.Vorobyov, Y.A.Karpenko, N.V.Podolskaya, N.V.Baskakov, V.I.Suprun, M.V.Gorbanevskiyning ilmiy ishlarida amalga oshirilgan, bu ishlarining e'tibor markazida Inson va uning ismi, ismning

shaxs ichki dunyosiga ta'siri va insonning olam bilan o'zaro aloqasini aniqlash nuqtayi nazarida o'rganish yotgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ma'lumki, madaniyatlararo va tillararo muloqot uchun til qoidalarini o'rganish yetarli emas, boshqa xalq madaniyati haqidagi bilimlarni o'zlashtirish, o'sha tilda so'zlashadigan odamlarning milliy va madaniy xususiyatlari haqida tasavvurga ega bo'lish kerak. Atoqli otlar ma'lum ijtimoiy, madaniy va mafkuraviy doirada paydo bo'ladi. Lingvomadaniy nuqtai nazardan, haqiqiy hayotdagi va badiiy adabiyotdagi ismlar bir-biriga ma'lum darajada o'zaro ta'sir qiladi. Adabiy personajni aniqlash uchun maxsus yaratilgan antroponimlar, xuddi J.Barri qalamiga mansub "Piter Pen" ertagi qahramoni Vendining nomi bilan sodir bo'lganidek, real hayotda foydalanishga o'tishi mumkin, va aksincha, haqiqiy onomastikon onimlari asarning xayoliy badiiy makonida ishlatilishi mumkin.

Bunday holda, antroponimlar matnning ma'lum bir madaniyat bilan bog'laydigan tarkibiy qismlari sifatida namoyon bo'ladi. Asardagi atoqli otlar milliylikni yaratishda ishtirok etadi, o'quvchiga hissiy va estetik ta'sir qiladi, uni boshqa, unga begona bo'lgan madaniy dunyoga jalb qiladi.

**Tahlillar va natijalar.** Antroponimlarni lingvomadaniy jihatdan o'rganganda, "madaniyat kategoriyalarida ma'noning denotativ yoki majoziy motivatsion jihatlarini talqin qilish" bo'lgan madaniy ma'noga alohida e'tibor qaratish lozim[5]. Lingvomadaniyatsunoslik doirasida onimlar lingvokulturonimlar, ya'ni bevosita yoki bilvosita stilistik shaklda milliy madaniyat xususiyatlarini to'liq, yorqin va adekvat aks ettira oladigan lingvistik birliklar sifatida o'rganiladi. Onomastikon insoniyat jamiyatining lingvistik tizimining bir qismi bo'lganligi sababli, uni shakllantirishi va belgilashi, shu bilan turli madaniyatlarni bir-biridan ajratib ko'rsatishi mumkin. Avvalo shuni ta'kidlash kerakki, ismning shakli, ism shakllanadigan onomastik me'yorlar bizni u yoki bu antroponim qaysi madaniyatga tegishli ekanligini tushunishga undaydi [6].

Bu nuqtai nazarni D.I.Yermolovich o'zining tillar va madaniyatlar chorrahasida antroponimlarning kesishishi haqidagi asarida aniq tasvirlab bergan. Uning so'zlariga ko'ra, rus antroponimikasi juda o'ziga xos va shuning uchun boshqa tilda so'zlashuvchilar uchun har doim ham tushunarli emas [4]. Uning bu fikri boshqa tillarga ham taalluqli, masalan, o'zbek tilidagi nomlarning kichraytiruvchi shakllari (Nozi, Dili, Shox, Bek, Guli), ko'pincha chet elliklar tomonidan butunlay boshqa nomlar sifatida qabul qilinadi: o'zbeklar tomonidan ifodalangan hissiy baho ularga yetib bormaydi, boshqa madaniyat sohiblari tomonidan ifodali kontekst mavjud bo'lgandagina tushunilishi mumkin.

Ingliz antroponimikasida ham chet elliklar tomonidan boshqa nomlar sifatida qabul qilinishi mumkin bo'lgan ismlarning kichraytiruvchi shakllarini uchratish mumkin (Bill-William; Al-Albert, Bert-Bertie).

Shuningdek, ismlarning lingvomadaniy xususiyatlariga ayol yoki erkak ismlarida jinsini ko'rsatuvchi qo'shimchaning mavjudligi yoki yo'qligi ham misol bo'lishi mumkin. Olimlar bu hodisani madaniy an'analarga asoslangan lingvistik shartlilik deb atashadi. Masalan, ingliz lingvistik madaniy an'analarda biz erkak va ayol ismlari deyarli hech qanday farqlovchi xususiyatlarga ega emasligini va ba'zi ismlar ham erkak, ham ayol kishiga berilishi (Chris – Chris) mumkinligini kuzatishimiz mumkin, o'zbek an'analarda esa erkak va ayol ismlari o'rtasida farq bor, ular ko'pincha qo'shimchalar bilan ifodalanadi (Salim – Salima, Karim – Karima, Anvar - Anvara).

Xalq madaniyati va o'ziga xos mentalitetining ma'lumotlar manbasi sifatida qaralgan atoqli otlar til va madaniyat uyg'unlashuvda alohida ahamiyat kasb etadi. Atoqli otlarda juda boy va qiziq ma'lumot to'plangan bo'lishi

mumkin, ularni ajratib olish atoqli otni o'rganish aspektiga bog'liq. Biroq, atoqli otlarni matnlarda o'rganish xususiyatlarini ifodalab, aynan atoqli otlar muayyan davr va muayyan madaniyat mahsuli ekanligi bilan belgilanadi. Madaniyat – jamiyat, ijodiy kuchlar, insonlar qobiliyatlarining tarixiy belgilangan darajasi bo'lib, odamlar turmush tarzi va faoliyat shakllari va turlarida ularning o'zaro munosabatlarida, shuningdek, yaratilayotgan moddiy va ma'naviy qadriyatlarda o'z ifodasini topadi. Madaniyatga ilk ilmiy ta'rif mash'ur etnograf E.Teylor tomonidan 1871 - yilda berilgan bo'lib, unga ko'ra: madaniyat – bilimlar, san'at, axloq-odob, huquq, urf-odatlar va insoniyatni hamda jamiyatga xos bo'lgan boshqa xususiyatlar majmuasidir.

Mazkur tushunchaning barcha mavjud ta'riflarida qandaydir umumiy jihat bor: madaniyat shaxs, guruh va jamiyatning hayotiy faoliyatini tavsiflaydi; u insoniyat turmush kechirishiining o'ziga xos usuli; madaniyat o'z ichiga xulq-atvor, ong, insoniyat faoliyati, buyumlar, predmetlar, mehnat quroli, til formalari, ramzlar va belgilarni qamrab oladi.

Madaniyatning bir qismi sifatida til to'g'risida gapirganda, eng avvalo, ijtimoiy, ta'limiy va kasbiy mavqe ko'z o'ngimizda gavdalanadi va shu bois u har bir insonning tashrif qog'oziga qiyoslanadi. So'z ko'plar tomonidan qayd etilganidek, faqat ma'lumot berish vositasigina bo'lib qolmay, balki madaniy ma'lumotni yetkazish qurilmasi ham hisoblanadi. Til va madaniyat aloqasi so'z konnotatsiyasini yuzuga keltiradi. Konnotatsiya — bu so'z bilan ifodalovchi tushunchaning zaruriy bo'lmagan, biroq o'zida muayyan predmet yoki hodisaga jamiyatda berilgan so'z bilan bog'liq madaniy tasavvurlar va an'analarni ifodalovchi qat'iy belgilar hisoblanadi.

Atoqli ot inson turli buyumlarni farqlaydigan va ularni nomlay boshlagan qadim davrlarda paydo bo'lgan. Bunda u yo farqlovchi xususiyatlari, yoxud atalayotgan buyumning vazifasi, yoxud ko'zga tashlanuvchi belgilari va boshqalarni ifodalashga harakat qilgan, boshqacha qilib bilan aytganda, nomlanayotgan so'zni qaysidir usul bilan ajratib ko'rsatishga harakat qilgan. So'zning ayni xususiyati umuman nominativ vazifani bajaruvchi ism sifatida atoqli otga nisbatan alohida dolzarblikka ega bo'ladi, chunki ular ixchamlashtirilgan ramziy shaklda ifodalangan predmet nomlanishi haqida ma'lumotni o'z ichiga oladi. Bundan kelib chiqadiki, onimlarni lingvomadaniy ma'lumotni tashuvchi sifatida o'rganish muhim ahamiyatga ega bo'lib, u o'z navbatida madaniyatdagi umumiy jarayonlarni va an'analarni aks ettiradi. Til birliklari sifatida onimlar quyidagi muhim funksiyalarni bajaradilar: nominativ, identifikatsiyalovchi va differentsiyalovchi. Aytib o'tilgan asosiy funksionlardan tashqari olimlar quyidagi ikkinchi darajali funksiyalarni ham ajratib ko'rsatadilar; ijtimoiy, hissiy, kumulyativ, "qatorga kiritish" funksiyasi, ekspressiv, estetik, stilistik.

Onim har doim ham izohlab bo'lmaydigan va aniq mazmuniy o'qilishi mumkin bo'lmagan o'zining ichki mazmuniga ega. Atoqli otning ramziyligi va jumboqliligini, xalqda atoqli otning afsonaviy kuchiga, uning o'z sohibi taqdirini oldindan belgilab berish qobiliyatiga ishonch mavjudligi tadqiqotchilar tomonidan qayd etib o'tilgan. Bu bilan atoqli otga bo'lgan onomastika va onomasiologiyaning zamonaviy antroposentrik yo'nalishdagi tilshunoslikdagi qiziqish bilan izohlanadi, zero tilshunoslik rivojlanishining zamonaviy bosqichi uchun xos bo'lgan antroposentrik yondashuv onimlarni o'rganish uchun yangi istiqbollarni ochib bermoqda. Tildagi shaxs boshlanmasining lingvistik tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishi sifatida belgilanishi XX asrning 80-90-yillariga kelib inson nazariyasining umumiy makonda yaratilgan va yaratilayotgan matnlarda o'zini namoyon etuvchi, shu bilan birgalikda olam manzarasi,

olamning lisoniy manzarasi, olamning til-muallif manzarasi tushunchalarga oid til shaxsi sifatida shakllanishiga olib keldi.

U yoki bu til ismlar kontinumining gorizontal kesimi u yoki bu davrning madaniy, etnik til bog'lanishi obyektiv ko'rsatkichi bilan tan olinishi mumkin. Vertikal kesimda olinganda u yoki bu til onomastikasi uning rivojlanish tarixini, shuningdek, bu til yaratuvchisi bo'lgan xalq tarixi va madaniyatini aks ettiradi. Vaqt o'tgan sari eskirgan ismlar qayta yuzaga kelishi holatlari ham kuzatiladi.

Lingvomadaniy jamoaning tili uning moddiy va ma'naviy madaniyati bilan birlashadi. Eng qadimgi mifologik tafakkur sinkretizm, ya'ni, obyekt va uning nomining birligi, bir-biridan ajralmasligi bilan xarakterlanadi. Birinchi (qadimiy) atqilgan otlardan "tabiatan" nomlar (nomlash) sifatida foydalanilgan, ular faqat ma'lum bir mavzu bilan bog'liq edi: A.Gardiner terminologiyasida bu "mujassamlangan" xarakterga ega bo'lgan ismlardir. Toponimning geografik ma'nosi uning bevosita, majburiy ma'nosi hisoblanib, ushbu ma'nosiz toponimning o'zi ham bo'lishi mumkin emas.

**Xulosa va takliflar.** Mumtoz ingliz adabiyotida personajning maqomi har doim ijtimoiy-tarixiy sharoit, ijtimoiy-madaniy vaziyat bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy va mulkiy holatining ko'rsatkichi sifatida o'rganilgan. Misol tariqasida, J.Apdaykning "Of the farm" (Ferma haqida) hikoyasini oladigan bo'lsak, "the stiffish Park Avenue couple"ning lakonik tavsifida oddiy va takabbur turmush qurgan juftlikning yuqori ijtimoiy mavqeiga ishora mavjud.

Toponimiya bilan bog'liq obro'-e'tibor belgisi o'zgaruvchidir: nufuzli manzil g'oyasi vaqt o'tishi bilan

o'zgaradi. Agar XIX asr oxiri - XX asr boshlarida odamlarning "amerika orzusi" uchun sanoat shaharlariga bo'lgan istagi katta xarakterga ega bo'lgan bo'lsa (urbanizatsiya davrining bunday ijtimoiy holati, masalan, T.Drayzer tomonidan "Baxtiqaro Kerri" romanida tasvirlangan), XX asr o'rtalariga kelib vaziyat o'zgardi.

Badiiy (yoki estetik) onomastika, qoida tariqasida, atqilgan otlarning shakllanishi va faoliyatining milliy an'analariga asoslanadi, bu o'quvchiga makon va zamon haqidagi ma'lumotlar (harakat joyi, vaqti, voqealar ishtirokchilarining ijtimoiy mavqei va boshqa ma'lumotlar)ni beradi, ma'lumki, makon va zamon tushunchalari lingvomadaniyatshunoslikning asosiy kategoriyalari hisoblanadi.

Onimik leksika har qanday tabiiy til lug'atining ajralmas qismi, tizimning kichik tizimchasi. Atqilgan otlarning asosiy qismi tabiiy tilga tegishli bo'lib, ulardan faqat ba'zilar sun'iy yaratilish mahsulidir. Tabiiy nominatsiya obyektning xususiyatlarini o'z-o'zidan ko'rib chiqish, xalq tajribasiga asoslangan amaliy sinov, noma'lum mualliflik, bugungi kun nuqtai nazaridan nominatsiyaning jamoaviyligi bilan bog'liq. Sun'iy ravishda yaratilgan nomlar esa to'g'ridan-to'g'ri hukmron mafkuraga bog'liq, uni aks ettiradi va ifodalaydi. Sun'iy ravishda yaratilgan nomlar onimlarning har qanday toifasida mavjud, ularning soni ko'p, masalan, astronomiya, germatonimiya, zoonimiya kabi sohalarda ular o'z tizimlarini yaratadilar. Sun'iy onimik lug'at guruhlarida lingvokulturologik shartlilik, ergonimlar hamda belgilar aniq va ravshan namoyon bo'ladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Abbott B. Discussion Note: Definiteness and Proper Names: Some Bad News for the Description Theory / B. Abbott // *Journal of Semantics*. – 2002. – № 2. – P. 191-201.
2. Bach K. 'What's in a Name?' / K. Bach // *Australasian Journal of Philosophy*. – 1981. – № 59. – P. 371-386.
3. Березович Е. Л. Язык и традиционная культура: этнолингвистические исследования. – Москва: Индрик, 2007. – 599 с.
4. Жураева И.А. Номинативные функции антропонимов. (на материале английского, узбекского и русского языков). Автореф. дисс... канд. филол. наук. Ташкент, 2012. 27 с.
5. Маслова В.А. Введение в когнитивную лингвистику. – Москва: Флинта-Наука, 2007. – 296 с.
6. Суперанская А. В. Теория и методика ономастических исследований / А. В. Суперанская, В. Э. Сталтмане, Н. В. Подольская, А. Х. Султанов. – Изд. 3-е. – Москва: ЛИБРОКОМ, 2009. – 365 с.



*Madina DALIEVA,*

*PhD, Head of the English Methodology Department Uzbekistan State World Languages University*

*E-mail: dalievam@list.ru*

*Reviewer: Bokiyeva Gulandom Hisamovna, professor, doctor of philological sciences, Uzbekistan State World Languages University*

### SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF STUDYING TERMINOLOGICAL CONCEPTUALIZATION OF THE SCIENTIFIC AND LINGUISTIC PICTURE OF THE WORLD

Annotation

The article describes the issues based on the linguistic picture of the world which is an image of consciousness – reality, reflected by means of language, a model of integral knowledge about the conceptual system of ideas represented by language. The perception of the surrounding world partly depends on the cultural and national characteristics of the speakers of a particular language. The solution to such a question is to go beyond linguistics and delve into the secrets of the knowledge of the world by other peoples.

**Keywords:** Linguistic picture of the world, consciousness, conceptual system, language, cognitive, linguistics, conceptual picture of the world.

### НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИЗУЧЕНИЯ ТЕРМИНОКОНЦЕПТУАЛИЗАЦИИ НАУЧНО- ЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ КАРТИНЫ МИРА

Аннотация

В статье рассматриваются вопросы, основанные на языковой картине мира, которая представляет собой образ сознания-действительности, отраженный средствами языка, модель целостного знания о понятийной системе представлений, представленных языком. Восприятие окружающего мира отчасти зависит от культурных и национальных особенностей носителей того или иного языка. Решение такого вопроса состоит в том, чтобы выйти за рамки лингвистики и углубиться в тайны познания мира другими народами.

**Ключевые слова:** Языковая картина мира, сознание, концептуальная система, язык, когнитивная, лингвистика, концептуальная картина мира.

### DUNYONING ILMIY VA LISONIY MANZARASINING TERMINOLOGIK KONSEPTUALIZMINI O‘RGANISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya

Maqolada dunyoning lisoniy manzarasi, ya'ni ongli tasvirining – til orqali aks ettirilgan voqelik, til bilan ifodalangan g'oyalarning kontseptual tizimi haqidagi yaxlit bilim modeliga asoslangan masalalar, shuningdek, dunyoning ilmiy va lisoniy manzarasining terminologik konseptualizmini o'rganishning ilmiy-nazariy asoslari ko'rib chiqiladi. Atrofdagi dunyoni idrok etish qisman ma'lum bir tilda so'zlashuvchilarning madaniy va milliy xususiyatlariga bog'liq. Bunday savolning yechimi tilshunoslik doirasidan chiqib, boshqa xalqlarning dunyoni anglash jarayoniga chuqur kirib borishdir.

**Kalit so'zlar:** Dunyoning lisoniy manzarasi, ong, kontseptual tizim, til, kognitivlik, tilshunoslik, dunyoning konseptual manzarasi.

**Introduction.** Each natural language reflects a certain way of perceiving and organizing, or conceptualizing, the world. The meanings expressed in it form a single system of views, a collective philosophy, which is imposed as mandatory on all speakers of the language. This collective philosophy is sometimes called naive realism. Once upon a time, grammatical meanings were contrasted with lexical ones as subject to mandatory expression, regardless of whether they were important for a particular message or not.

In recent decades, it has been discovered that many elements of lexical meanings are also expressed in a mandatory manner. The scientific picture of the world is usually contrasted with the linguistic one. Reality in the consciousness of modern man is reflected in two ways: conceptually and verbally. One of the distinctive features of this process is that the comprehension of the environment and the creation of a conceptual system, as well as a linguistic one, is by no means a purely independent and subjective matter: to a large extent, the formation of both is “imposed” from the outside, or is already presented in finished form under the influence of the linguistic picture of the world. Entering the world, the child creates a conceptual picture of the world,

including with the significant help of language, in which this world is already interpreted in a system of conventional signs, in a system of categories built on a prototypical principle. Subsequently, he compares his subjective experience with the experience of other people and corrects it. It is important to emphasize that the role and importance of the subjective factor in the above processes is in no way denied.

**Methods and analysis.** The linguistic picture of the world is considered as performing the function of a person's orientation in the world, including the systematization of the information he receives. It is usually distinguished from the conceptual or cognitive model of the world, which is the basis of linguistic embodiment, verbal conceptualization of the totality of human knowledge about the world.

The difference between the linguistic and scientific pictures of the world is especially pronounced when analyzing those words of natural language that are used as scientific terms. The meaning of a scientific term has developed from the meaning of an ordinary word, but the term is defined in a system of scientific concepts, and it can be very far from the system of lexical meanings enshrined in natural language. For example, in geometry, the concept of a “straight line” is

defined as the shortest distance between two points. But at the everyday level and in literary language, we call a straight line that does not deviate either to the right or to the left. Although the scientific picture of the world is described by means of natural language, the object of linguistics is only a linguistic, naive picture of the world.

**Discussions.** Language limits the subjectivity of describing the world. If the linguistic picture of the world contradicted the real picture of the world, then this would be a serious obstacle to scientific progress. With the help of language we strive to get closer to objectivity. Language is subjective in reflecting, for example, dialectically contradictory entities of an evaluative nature (cold - hot, high - low, close - distant, good - evil, good - bad, soft - hard), but otherwise it is guided by the realities of the reality around us. One cannot help but assume that language keeps us within a sufficient degree of approximation to the ontology of the world. In linguistics, there are a large number of definitions of the linguistic picture of the world. Each researcher offers his own definition, which puts emphasis on individual aspects of the designated concept, so today there is no single definition of this term.

G.A. Brutyan interprets the linguistic picture of the world as follows: "The linguistic picture of the world is all the information about the external and internal world, fixed by means of living languages." That is, the main thing in the linguistic picture of the world is the knowledge that is enshrined in the words and phrases of specific languages (Brutyan, 1973: 102).

In contrast to the definition of G.A. Brutyan, definition by V.B. Kasevich says that the linguistic picture of the world is "knowledge encoded by the oppositions of dictionary and grammar, this is linguistic knowledge, and their totality is the linguistic picture of the world" (Kasevich, 1996: 179).

From the point of view of V.D. Starichenok, the linguistic picture of the world is "a system of images and ideas of a person about the reality around him that has historically developed in the consciousness of a linguistic community and reflected in language, a way of conceptualizing reality, a designation of reality represented in language" (Starichenok, 2008: 722).

V.N. Teliya believes that the linguistic picture of the world is "information scattered throughout the conceptual framework and associated with the formation of the concepts themselves through the manipulation of linguistic meanings and their associative fields in this process, which enriches the conceptual system with linguistic forms and content, which is used as knowledge about speakers of a given language in the world" (Teliya 1988: 155).

O.A. Kornilov is based on the subjective nature of the linguistic picture of the world. He believes that the linguistic picture of the world is "the result of the reflection of the objective world by the ordinary (linguistic) consciousness of a particular linguistic community" (Kornilov, 2003: 200). The following definition is close to this: "The linguistic picture of the world is, first of all, a reflection of the way of modeling and structuring reality, characteristic of a specific linguistic and cultural community" (Moiseeva 1998: 3).

The most appropriate definition for our study seems to be E.S. Yakovleva, who proposes to understand the YCM as "a scheme for the perception of reality fixed in language and specific to a given linguistic community. Thus, the linguistic picture of the world is a kind of worldview through the prism of language" (Yakovleva 1996: 47).

Consequently, the linguistic picture of the world is information about the surrounding reality captured in language. In other words, language is the most important way of forming human knowledge about the world. In the process of activity, a person learns about the objective world and

records the results of knowledge in language. The totality of this knowledge, presented in linguistic form, is the linguistic picture of the world.

Modern authors define the picture of the world as "a global image of the world that underlies a person's worldview, that is, expressing the essential properties of the world as understood by a person as a result of his spiritual and cognitive activity" (Postovalova; 21). But the "world" should be understood not only as a visual reality, or the reality surrounding a person, but as consciousness-reality in a harmonious symbiosis of their unity for a person. This understanding does not agree with the entrenched materialistic idea of the secondary nature of consciousness. V. N. Manakin is inclined to the concept of a picture of the world, close to M. Heidegger, who wrote: "What is this - a picture of the world? Apparently a picture of the world. But what is called the world here? What does the picture mean? The world is space, nature. History also belongs to the world. And yet, even nature, history, and both of them together in their latent and aggressive interpenetration do not exhaust the world. This word also means the basis of the world, regardless of how its relationship to the world is conceived" (Heidegger; 25).

The picture of the world is the central concept of a person's concept and expresses the specifics of his existence. The concept of a picture of the world is one of the fundamental concepts that express the specifics of human existence, its relationship with the world, the most important conditions of its existence in the world. The picture of the world is a holistic image of the world, which is the result of all human activity. It arises in a person during all his contacts and interactions with the outside world. This can be everyday contacts with the world, and objective - practical human activity.

Since all aspects of a person's mental activity take part in the formation of a picture of the world, starting with sensations, perceptions, ideas and ending with a person's thinking, it is very difficult to talk about any one process associated with the formation of a person's picture of the world. A person contemplates the world, comprehends it, feels, cognizes and reflects. As a result of these processes, a person develops an image of the world, or worldview.

"Imprints" of the picture of the world can be found in language, in gestures, in the visual arts, music, rituals, etiquette, things, facial expressions, and in people's behavior. The picture of the world forms the type of person's relationship to the world - nature, other people, sets the norms of human behavior in the world, determines his attitude to life (Apreyan; 45).

As for the reflection of the picture of the world in language, the introduction of the concept of "picture of the world" into anthropological linguistics makes it possible to distinguish between two types of human influence on language - the influence of psychophysiological and other types of human characteristics on the constitutive properties of language and the influence on the language of various pictures of the world - religious-mythological, philosophical, scientific, artistic.

Language is directly involved in two processes related to the picture of the world. Firstly, in its depths a linguistic picture of the world is formed, one of the deepest layers of a person's picture of the world. Secondly, the language itself expresses and explicates other pictures of the human world, which, through special vocabulary, enter the language, introducing into it the features of a person and his culture. With the help of language, the experiential knowledge acquired by individuals is transformed into a collective property, collective experience.

Each of the pictures of the world, which, as a displayed fragment of the world, represents language as a

special phenomenon, sets its own vision of language and in its own way determines the principle of operation of language. Studying and comparing different visions of language through the prisms of different pictures of the world can offer linguistics new ways to penetrate into the nature of language and its knowledge.

Based on the scientific picture of the world developed by theoretical natural science, special technical devices are created with the help of which a person enters into real-practical interaction with objective reality. Based on the scientific picture of the world, technical means of overcoming physical space and time are developed. The scientific picture of the world serves as a universal guideline for human activity, determining the course of all processes in society. The scientific picture of the world can only be considered as a component of the general picture of the world, formed on the basis of fundamental images of activity with the participation of ordinary, mythological and artistic consciousness through the assimilation of the results of knowledge obtained in all areas of human activity.

M. Planck distinguished between the practical picture of the world and the scientific picture of the world. With the practical picture of the world, he associated a person's holistic understanding of the world around him, which he gradually develops on the basis of his experiences. He interpreted the scientific picture of the world as a model of the real world in an absolute sense, independent of individuals and all human thinking. Any scientific picture of the world, according to M. Planck, has only a relative nature, and he considers the creation of such a picture of the world, which would represent something ultimately real and would no longer need any improvements, to be an unattainable task (Planck; 104). The scientific picture of the world, obtained from experience, is always a more or less successful model of the real world. Although the sensory sensations caused by different objects may not be the same for different people, "the picture of the world, the world of things, is the same for all people" (Planck; 104-106). The scientific picture of the world, obtained from experience, is a "phenomenological world", which is always only an approximation, a more or less successful model of the real world.

In accordance with the neo-naturalistic concept, the scientific picture of the world is formed by philosophical means and is part of philosophy. It has a philosophical status, which takes it beyond the boundaries of specific sciences. Representing the level of philosophical reflection, the scientific picture of the world is built here on top of the systematic nature of scientific knowledge and forms a connecting link between it and the worldview.

The issue of conceptualizing the world in language using words is very important. At one time, R. Lado, one of the founders of contrastive linguistics, noted: "There is an illusion, sometimes characteristic even of educated people, that the meanings are the same in all languages and languages differ only in the form of expression of these meanings. In fact, the meanings in which our experience is classified are culturally determined, so that they vary significantly from culture to culture" (Lado; 34-35). Not only have the meanings varied, but also the composition of the vocabulary. The specificity of this variation constitutes an essential part of the specificity of linguistic pictures of the world.

As noted above, there are a huge number of reasons for such discrepancies, but only a few of them seem visible and therefore main. There are three main factors or causes of

linguistic differences: nature, culture, cognition. Let's consider these factors.

The first factor is nature. Nature is, first of all, the external living conditions of people, which are reflected differently in languages. A person gives names to those animals, places, plants that are known to him, to the state of nature that he feels. Natural conditions dictate to the linguistic consciousness of a person the peculiarities of perception, even of such phenomena as the perception of color. The designation of color varieties is often motivated by semantic features of visual perception of objects of the surrounding nature. A specific natural object is associated with a particular color. Different linguistic cultures have their own associations associated with color designations, which coincide in some ways, but also differ from each other in some ways (Apresyan; 351).

It is the nature in which a person exists that initially forms in the language his world of associative representations, which are reflected in the language by metaphorical transfers of meaning, comparisons, and connotations.

The second factor is culture. "Culture is something that a person did not receive from the natural world, but brought, made, created himself" (Manakin; 51). The results of material and spiritual activity, socio-historical, aesthetic, moral and other norms and values that distinguish different generations and social communities are embodied in different conceptual and linguistic ideas about the world. Any feature of the cultural sphere is fixed in language. Also, linguistic differences can be determined by national rites, customs, rituals, folklore and mythological ideas, and symbols. Cultural models, conceptualized in certain names, spread throughout the world and become known even to those who are not familiar with the culture of a particular people. A lot of special work and research has recently been devoted to this problem.

As for the third factor - knowledge, it should be said that rational, sensory and spiritual ways of perceiving the world distinguish each person. The ways of understanding the world are not identical for different people and different nations.

When assessing the picture of the world, one should understand that it is not a reflection of the world and not a window into the world, but it is a person's interpretation of the world around him, a way of understanding the world. "Language is by no means a simple mirror of the world, and therefore it records not only what is perceived, but also what is meaningful, conscious, and interpreted by a person" (Kubryakova; 95). This means that the world for a person is not only what he perceived through his senses. On the contrary, a more or less significant part of this world consists of the subjective results of human interpretation of what is perceived. Therefore, it is legitimate to say that language is a "mirror of the world," but this mirror is not ideal: it represents the world not directly, but in the subjective cognitive refraction of a community of people.

**Conclusion.** As we see, there are many interpretations of the concept "linguistic picture of the world". This is due to the existing discrepancies in the worldviews of different languages, since the perception of the surrounding world depends on the cultural and national characteristics of the speakers of a particular language. Each of the pictures of the world sets its own vision of language, so it is very important to distinguish between the concepts of "scientific (conceptual) picture of the world" and "linguistic picture of the world."

#### LITERATURE

1. Apresyan Yu.D. Lexical semantics. Synonymous means of language. - M., 1974.
2. Vilyuman V.G. English synonymy (introduction to the theory of synonymy and methods of studying synonyms). - M, 1980.
3. Vorobiev V.V. Linguoculturology. Theory and methods. - M, 1997.

4. Ivanova E.V. Proverbial pictures of the world. - St. Petersburg, 2002.
5. Karaulov Yu.N. General and Russian ideography. - M., 1976.
6. Kubryakova E.S. The role of word formation in the formation of a linguistic picture of the world // The role of the human factor in language: Language and pictures of the world. - M.E. 1988
7. General linguistics. Internal structure of language. - M, 1972.
8. Ufimtseva A.A. Lexical meaning. The principle of semiological description of vocabulary. - M, 1986.



UDK:81.367.4

Yoqutoy DJAMOLOVA,  
Abdulla Oripov ijod maktabi direktori  
E-mail: yoquthon70@gmail.com

F.f.d. (DSc) J.Ibragimov taqrizi asosida

## THE ROLE OF TEACHER'S SPEECH IN THE SYSTEM OF PEDAGOGICAL ACTIVITY

Annotation

Language is not only a means of communication, but also a unique way of thinking. Because of this, his loss would entail the destruction of an entire nation. That is, we can say that modern society does not have its own language, which is the reason for its non-existence. Each person acquires the skills of forming cultural speech using linguistic units in the process of learning and communicating with other people. Therefore, the teacher's speech and its form, which meets the necessary standards, are of great importance in this process.

**Key words:** Pedagogical activity, speech, culture, communication, education, upbringing.

## PEDAGOGIK FAOLIYAT TIZIMIDA O'QITUVCHI NUTQINING O'RNI

Annotatsiya

Til faqat muloqot vositasigina emas, fikrlashning o'ziga xos shakli hamdir. Shu tufayli uning yo'qotilishi butun bir millatning yo'q bo'lishiga sabab bo'ladi. Ya'ni zamonaviy jamiyat o'z tiliga ega bo'lmasligi uning mavjud bo'lmasligiga sabab bo'ladi, deyish mumkin. Til birliklaridan samarali foydalanib madaniy nutq shakllantirish ko'nikmalarini har bir shaxs ta'lim-tarbiya jarayonida, boshqa shaxslar bilan muloqotga kirishish natijasida egallaydi. Shu sababli bu jarayonda o'qituvchi nutqi, uning zaruriy me'yorlarga amal qilingan shakli muhim ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so'zlar:** Pedagogik faoliyat, nutq, madaniyat, muloqot, ta'lim, tarbiya.

## РОЛЬ РЕЧИ УЧИТЕЛЯ В СИСТЕМЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация

Язык – это не только средство общения, но и уникальный способ мышления. Из-за этого его потеря повлечет за собой уничтожение целой нации. То есть можно сказать, что современное общество не имеет своего языка, что и является причиной его несуществования. Навыки формирования культурной речи с использованием языковых единиц каждый человек приобретает в процессе обучения и общения с другими людьми. Поэтому большое значение в этом процессе имеет речь учителя, ее форма, соответствующая необходимым стандартам.

**Ключевые слова:** Педагогическая деятельность, речь, культура, общение, образование, воспитание.

**Kirish.** Til muloqot vositasigi bo'lish bilan birga fikrlashning o'ziga xos shakli hamdir. Shuning uchun tilning yo'qotilishi butun bir millatning yo'q bo'lishiga sabab bo'ladi. Ya'ni zamonaviy jamiyat o'z tiliga ega bo'lmasligi uning mavjud bo'lmasligiga sabab bo'ladi, deyish mumkin. Til birliklaridan samarali foydalanib madaniy nutq shakllantirish ko'nikmalarini har bir shaxs ta'lim-tarbiya jarayonida, boshqa shaxslar bilan muloqotga kirishish natijasida egallaydi. Hozirgi kunda muayyan sohada nutq madaniyati, unga amal qilish masalasi dolzarblashmoqda. Chunki nutq madaniyati, ya'ni shaxsning muayyan nutq vaziyati uchun eng maqbul til birliklarini tanlay bilishi va qo'llay olishi uning bilimi, zukkoligi, tarbiyasi va madaniyatidan darak beradi. Nutq madaniyatiga egalik, uni o'z sohasida qo'llay olish har doim ham jamiyatda muvaffaqiyat garovi sifatida baholab kelingan.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Pedagoglik kasbini uning nutqiy xususiyatlarini chuqur o'zlashtirmasdan muvaffaqiyatli egallab bo'lmaydi. Chunki pedagog nutqining kommunikativ sifatlariga egaligi uning kasbiy faoliyatida muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Pedagogik faoliyat doimiy shaxslar bilan muloqotni talab qiladi. O'sib kelayotgan avlodga ta'lim va tarbiya berishning ko'p qirrali, murakkab jarayonligi pedagogik mahoratning bir qismi bo'lgan sohaga oid nutqni o'rganish, uni lingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilish muhimligini ko'rsatadi. Zero, pedagogika ijtimoiy tajribaning bir avloddan boshqa avlodga uzatilishi qonuniyatlarini o'rganuvchi fan sohasidir. Shu bilan birga pedagog faqat bilim berish bilan kifoyalanmasdan,

o'quvchilarning shaxs sifatida shakllanishiga hissa ham qo'shmog'i lozim. Shu sababli pedagogdan nafaqat psixologik va o'z sohasiga oid bilimlarga, balki kasbiy muloqot ko'nikmalariga ega bo'lish ham talab etiladi. "O'qituvchi nutqi uning pedagogik faoliyatida asosiy qurol bo'lish bilan birga, o'quvchiga o'rnak bo'lish vositasi hamdir" [1]. Zamonaviy o'qituvchining mehnat faoliyatida og'zaki nutq asosiy o'rinni egallaydi. Pedagog nutqi maktabgacha va maktab ta'limi o'quvchilari uchun ta'lim olish jarayonida namuna, etalon vazifasini bajaradi. Shu bilan birga u uyda o'zidan yoshi katta bo'lgan oila a'zolari nutqi ta'sirida muloqotga kirishadi. Anglashiladiki, o'quvchining nutqiy madaniyati uning qanday nutqiy qurshovda ekanligiga bog'liq holda shakllanadi. Zero, o'z ona tilini mukammal egallash taqlid qilish asosida kechishi sir emas. Shu sababli har bir shaxs: u pedagog bo'ladimi, yoki boshqa sohada faoliyat yuritadimi, o'z nutqiga mas'uliyatli bo'lishi lozim. Bu borada M.M.Alekseevaning quyidagi fikrlari o'rinli: "bola kattalar nutqiga taqlid qilar ekan, nafaqat muloqotning nozik jihatlari, so'z qo'llash san'ati, birikmalarning xususiyatlarini, balki nutqdagi kamchiliklarni ham o'zlashtiradi" [2].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Pedagogning har bir so'zi o'z umumiy fikrni shakllantirishda xizmat qilishi, gap qurilishida o'z vazifasiga ega bo'lishi, o'quvchiga olam, odam va hayot haqida ma'lumot berishga qaratilishi lozim. Bu uchun o'qituvchi yaxshi xotiraga ega bo'lishi, til birliklarini muayyan nutq vaziyatiga moslab tanlay olishi, fikrlarini mantiqiy shakllantirish, suhbatdosh nutqiga moslashish kabi

ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak. Bu borada Y.A.Komenskiy shunday degan edi: "O'qituvchi nutqi o'quvchilar uchun aniq, tushunarli, ifodali va jozibador bo'lishi lozim" [3]. Shundagina u o'quvchilarning diqqatini o'ziga jalb qila oladi va ularga fikrlarini yetkaza oladi. Bunda pedagog nutq texnikasiga amal qilishi ham muhim ahamiyatga ega, albatta. Chunki, "talab darajasida shakllangan nutq texnikasi kishi umumiy nutqiy madaniyatining eng muhim belgisi hisoblanadi. Nutq texnikasi deganda jonli, tovushli nutq va uning barcha unsurlarini to'g'ri voqelantirish ko'nikma va malakalarining jami tushuniladi" [4]. Ya'ni nutq jarayonida nafas olishning sezilmasligi, ovozning sifatligi, so'z va birikmalarni to'g'ri talaffuz qilish, ovoz balandligi va tezligining ifodalanganayotgan fikrga mosligi kabilarga amal qilish pedagog nutqi texnikasining mukammalligi asosi sifatida baholanadi. Nutq havu chiqarish jarayonida hosil bo'lishi uning yengilligi, ohangdorligini ta'minlaydi. Ovozning sifati ham nutq texnikasining tarkibiy qismi sifatida madaniy nutqni ta'minlovchi vositalardan hisoblanadi. Chunki nutq texnikasiga amal qilmay hosil qilingan nutq tinglovchining diqqatini jalb qilmaydi. Muallifning undan ko'zlagan maqsadiga erishishiga to'sqinlik qiladi. Umuman olganda ovoz sifati o'qituvchi nutqining muvaffaqiyatini ta'minlovchi vositalardan biri sanaladi. Ovoz o'qituvchining o'quvchilarga asosiy ma'lumotlarni yetkazishini ta'minlaydi. Albatta, maxsus eshitish qobiliyati past o'quvchilarga mo'ljallangan maxsus maktablardagi ta'lim jarayoni bundan mustasno. Shu sababli pedagog nutqida ovoz quyidagi talablarga javob berishi lozim:

tovushlar aniq talaffuz qilinishi;  
nutq vaziyatiga ko'ra ovoz balandligining o'zgarishi;  
yoqimli va xayrixoh bo'lishi.

Bu xususiyatlarga ega bo'lgan ovoz mos diksiya bilan hamkorlik qilishi o'qituvchi nutqining ta'lim oluvchilar uchun aniq va tushunarli darajaga olib chiqishi shubhasiz. Shuningdek, og'zaki nutqning madaniylikini ta'minlash, uning ta'sirchanligini oshirishda ohang muhim ahamiyatga ega. Bu o'qituvchilar nutqiga ham taalluqli, albatta.

**Tahlil va natijalar.** Pedagog nutqi madaniylik keng, ko'p qirrali tushuncha bo'lsa-da, uning asosida jummalarni to'g'ri tuzish va qo'llash yotadi. Grammatik qoidalarni mukammal bilish o'qituvchiga o'z fikrini to'g'ri shakllantirish va ifodalashga, jummalarni aniq va ta'sirchan tuzishga ko'maklashadi. Nutqni grammatik jihatdan to'g'ri shakllantirish uning mazmundor va mantiqiy jihatdan tizimli va tushunarli bo'lishini ta'minlaydi. Grammatik qoidalar nafaqat birikma va gaplarni to'g'ri shakllantirishda, balki matnning qismlari orasidagi mantiqiy bog'liqlikda ham muhimdir. Ikkinchidan, pedagog nutqining madaniylikini ta'minlashda uning oddiyligi va aniqligiga e'tibor qaratish kerak bo'ladi. Chunki bir fikrni auditoriyadagi barcha o'quvchilar uchun tushunarli yoki hamma ham tushuna olmaydigan ilmiy atamalardan foydalangan holda ifodalash mumkin. Ammo pedagog faoliyatidan maqsad o'quvchilarning muayyan sohaga oid bilimlarini o'zlashtirishlari ekan, fikrlarni ifodalashda birinchi yo'dan foydalanish maqsadga muvofiq. "Notiqlik san'ati, avvalo, notiqdagi mavjud qobiliyat va iste'dodni shakllantirishga qaratilgan soha bo'lib, uning qobiliyati hamda iste'dodini o'rganuvchi va shakllantiruvchi ilm" [5] hisoblanar ekan, har bir o'qituvchi bu ilmni mukammal o'zlashtirishi uning faoliyatidagi muvaffaqiyatni ta'minlaydi. Zero, murakkab tushuncha va fikrlarni soddalashtirib tushuntirish, hayotiy misollarga bog'lay olish o'qituvchining mahoratli ekanligidan dalolat beradi.

Fikrlarning ifodaviyligi pedagog nutqi uchun muhim bo'lgan kommunikativ sifatlardan yana biri hisoblanadi. Bu sintaktik qurilmada so'zlarni to'g'ri tanlash va joylashtirishdan tortib, uni og'zaki nutqda zarur ohang va

tezlikda ifodalashgacha bo'lgan jihatlarni qamrab oladi. Ifodaviyligi pedagog nutqining hissiyot va nazariy bilimlarni qamrab oluvchi kommunikativ sifatidir. Nutqning ifodaviyligi, ya'ni "ta'sirchanligi deganda, asosan og'zaki nutq jarayoni nazarda tutiladi va shuning uchun uning tinglovchi tomonidan qabul qilinishidagi ruhiy vaziyatni e'tiborga olish ham muhim sanaladi" [6]. O'qituvchi nutqining og'zakilikka asoslanganligi tufayli uning ifodaviyligida ohang ham muhim o'rin tutadi. Mantiqiy va so'z urg'ulariga amal qilinishi, to'xtamning to'g'ri qo'llanishi, nutq ohangining nutq vaziyatiga mos tanlanishi kabilarga e'tibor qaratish zarur bo'ladi. Og'zaki nutqda ohangning to'g'ri tanlanishi nutqning jonliligi, uning to'liq va tushunarli ifodalinishiga xizmat qiladi. "Og'zaki nutq jarayonida til birliklarini adabiy til me'yorlariga muvofiq aytilishi talaffuz me'yorlariga asoslanadi. Talaffuzda tovushlarning to'g'ri aytilishi muhim bo'lib, o'ziga xos qonuniyatga asoslanar ekan[7], o'qituvchi nutqi uchun bu yanada dolzarbdir. Shu sababli o'qituvchi o'z nutqining ohangdorligiga jiddiy e'tibor qaratishi lozim. Masalan, bir maromdagi nutq o'quvchini zeriktiradi, ular bunday nutq natijasida mavzuga e'tibor qaratmaydilar. Aksincha, nutq vaziyatiga ko'ra ko'tarilib, tushuvchi, shoshmasdan qilingan nutq diqqatni jalb qiladi. Uning mazmuniga qiziqish uyg'otadi. Pedagog nutqida tezlik uning tushunarsiz bo'lishiga sabab bo'ladi.

Ma'lumki, nutqning to'g'riligi nutq madaniyatining eng asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. To'g'ri nutq shakllantirilgandagina uning boshqa sifatlari haqida gapirish mumkin bo'ladi. Til ta'limining katta qismi shu sababli nutq to'g'riligi ko'nikmalarini shakllantirishga qaratiladi. To'g'rilik kommunikativ sifati nutqda til birliklarining amaldagi qoidalarga mos qo'llanishini anglatadi. Zero, adabiy til qoidalariga amal qilinmay tuzilgan nutq madaniy nutq sanalmaydi. Garchi bunday nutq kundalik muloqotda uchrab tursa-da, pedagog nutqida bunday holatga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Nutqning to'g'ri tuzilishi pedagog va ta'lim oluvchining o'zaro oson til topishlariga ko'maklashadi. Chunki to'g'rilik sifati so'z qo'llash, orfografik, orfoepik, morfologik, uslubiy, sintaktik va derivatsion me'yorlarni o'zida jamlaydi. Buni V.G.Kostomarovning quyidagi fikrlari ham dalillaydi: "To'g'rilik madaniy nutqning muhim va asosiy sharti sifatida adabiy tilning qabul qilingan me'yorlarining qat'iy va aniq mosligini, uning talaffuz, imloviy, lug'at va grammatik me'yorlarini egallashni tushunishdir" [8]. Angliladiki, nutqning to'g'rilik kommunikativ sifatiga egaligi, avvalo, uning adabiy til me'yorlariga mosligini bildiradi. Morfologik va sintaktik chalkashliklar ham nutq to'g'riligiga putur yetkazadi. Masalan, pedagog tomonidan nutqda qaratqich va tushum kelishiklarini farqlamay qo'llash keyinchalik o'quvchilarga ham "ko'chib o'tadi". Natijada bunday xatoni har qadamda: peshlavhalar, kitoblar, televideniye va radioda kuzatish mumkin bo'lib qoladi. Buni yaqin o'tmishdagi shiorlaridan birining "Fidoymiz bo'lgaymiz seni, O'zbekiston!" tarzida shakllantirilganligida ham kuzatishimiz mumkin. Vaholanki, bu shior to'g'rilik sifatiga amal qilib shakllantirilganda tushum kelishigi o'rniga qaratqich kelishigi qo'llangan va nutq to'g'ri shakllantirilgan bo'lardi. Bu to'g'rilik sifatining morfologik vositalarda buzilish o'rinlaridan biri xolos. Ammo bu kabi xatolar pedagoglar nutqida kuzatilmasligi maqsadga muvofiq. O'qituvchi o'z nutqining to'g'ri shakllantirilayotganligiga e'tibor qaratishi zarur. Nutq tuzish jarayonida zaruriy grammatik shakllarni tanlay olish, ularni o'z o'rnida qo'llash nutqni to'g'ri tuzishga xizmat qiladi. Pedagog nutqida bunday sifatlarning mavjudligi boshqa kommunikativ sifatlarga ham yo'l ochishi shubhasiz.

**Xulosa va takliflar.** Pedagog o'z faoliyatida adabiy til qoidalariga amal qilar ekan, bir vaqtning o'zida uning kommunikativ sifatlarga ega bo'lishini ham ta'minlaydi. O'z

nutqini to'g'ri, mantiqiy, jo'yali, ifodaviy va sof shakllantirgan o'qituvchi hamkasblari va ta'lim oluvchilar bilan muloqotga oson kirishadi. Ularga o'z maqsadini tezda yetkaza oladi. Pedagog uchun o'z fikrini og'zaki va yozma

nutq shakllarida aniq, ravon yetkaza olish ko'nikmalariga ega bo'lgan o'quvchilarni tayyorlashda bu juda muhim jihat hisoblanadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Мурашов А.А., Культура речи учителя, – Воронеж: МОДЭК, 2002. – 432 с.
2. Алексеева М.М., Яшина В.И., Методика развития речи и обучения родному языку дошкольников. – Москва: Академия. 2000. – 400 с.
3. Коменский Я.А., Великая дидактика, – Москва: Педагогика. 1989. – С.71. (– 416 с.)
4. Mahmudov N., Odilov Y., Ziyodullayeva G., Ona tili. O'rta ta'lim muassasalarining 11-sinfi va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun darslik. – Toshkent: O'zME. 2018. – 112 b.
5. Bekmirzayev N., Muallim nutqi madaniyati, – Toshkent: Istiqlol. 2020. – 136 b.
6. Karimov S.A., Maxmatmurodov Sh.M., Karimova O.N., Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish, – Toshkent: O'zbekiston. 2003. – 192 b.
7. Mahmudov N., Rafiyev A., Yo'ldoshev I., Davlat tilida ish yuritish. – Toshkent: Cho'lpon. – 128 b.
8. Костомаров В.Г., Культура речи и стиль. – Москва: Высшая школа. 1960. – 71 с.



UDK:811.1

*Shukur JABBOROV,*

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'limi uslubchisi*

*E-mail : shukur\_jabbor@mail.ru*

*F.f.n. S. Rafiddinov taqrizi asosida*

#### ALISHER NAVOI'S CONCEPT AND INTERPRETATION OF "BOB" IN "NASAYIMUL MUHABBAT"

Annotation

This article analyzes and interprets the concepts of Sufism in the work of Alisher Navoi "Nasaimul Muhabbat".

**Key words:** Bob, pir, door, sheikh, chiltan, abdol, dervish, perfection, pole, code.

#### КОНЦЕПЦИЯ АЛИШЕРА НАВОИ И ИНТЕРПРЕТАЦИЯ "БОБ" В "НАСАЙМУЛ МУХАББАТ"

Аннотация

В данной статье анализируются и интерпретируются концепции суфизма в произведении Алишера Навои «Насаймул Мухаббат».

**Ключевые слова:** Боб, пир, дверь, шейх, чилтан, абдол, дервиш, совершенство, полюс, код.

#### ALISHER NAVOIY "NASOYIM-UL MUHABBAT" ASARIDA "BOB" TUSHUNCHASI VA TALQINI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Alisher Navoiyning "Nasoyim-ul muhabbat" asaridagi tasavvufga oid tushunchalar tahlil va talqin etiladi.

**Kalit so'zlar:** Bob, pir, eshik, shayx, chiltan, abdol, darvesh, komillik, qutb, kod.

Bizning diyorlarda "Bob" tushunchasi tasavvuf adabiyotida keng ifodalanadi. "Bob"ning lug'aviy ma'nosi "eshik" yoki "darvoza" demakdir. Bunda bob o'z ma'nosida emas, balki qiyoslash va ko'chma ma'noda pir yoki shayx tushuniladi. Yana ham aniqroq aytganda, "pirlar", "shayxlar", "dunyo va oxirat yaxshiligiga yetaklaydigan eshik", "saodat eshigi" degan ma'noni anglatadi.

Jumladan, Alisher Navoiyning "Nasoyimul muhabbat" tazkirasida 359-son bilan "Bob Farg'oniy quddisa siruhu" bobi ("bobi" deganda bu o'rinda asarning bo'limi ma'nosida qo'lladik – Sh.J.) keladi. "Oti Umardur. Farg'onada bo'lur erdi. Ul yerda ulug' mashoyixni "Bob" derlar. "Kashful mahjub" sohibi der emishki: "Ul avtold ul arzdindur". Shayxulislom debdurki: "Shayx Amu ani ko'rib erdi. Ul dediki: Bir kun aning qoshida o'lturub erdim. Birav kirdi va dedikim: Duoyi qilki, Sarkab keldi va Sarkab birav erdiki, kelib ul mulkka zarar yetkurur erdi va bob o'chog' qirog'ida o'lturub erdi va oftoba dag'i o'chog' qirog'ida erdi. Oyog'in oftobag'a urub yiqitti va dedikim: Ani yiqittim. Sarkab hamul dam shahar eshigida otdin sarnigun yiqildi va bo'yni sindi". "Kashful mahjub" sohibi debdurki: "Bobning ziyoratiga qasd qildim. Chun anga yettim. Dediki: "Ne ishka kelibsan?" Dedim: "To shayxni ko'rgaymen surat bila va andin nazari topqaymen shafqat bila. Dedi: "Ey o'g'ul, men xud falon kundin beri seni ko'radurmen va to seni mendin g'oyib qilmag'aylar, ko'rgumdur va ul kunni hisob qildim, mening tavnabning ibtidosi kuni erdi. Andin so'ngra dedi: "Ey o'g'ul, yiroq yo'l qat' qilmaq o'g'lonlar ishidur. Mundin so'ngra ziyoratni himmat bila qilki, shaxs anga kari (ta'sir, yararli) qilmaski, ani ziyorat qilg'aylar va ashboh zuhurig'a hech nima bog'liq emas. So'ngra xodimasig'a dediki, ulcha bor, olib kelki, darvesh yesun. Bir taboq uzum kelturdi va toza chog'i emas erdi va anda necha rutab (yangi pishgan) va Farg'onada mumkin ermasksi, rub bo'lg'ay" [1].

Yuqoridagi matn mazmunidan ma'lumki, bobga, ya'ni pirga munkirlik qilgan va jamaotga xavf solgan, kishilar mulkiga zarar yetkazgan inson bob tomonidan jazolangan. Yana ushbu bo'limda anglashiladiki, ulug'lar nazariga tushib nasibador bo'lay deb bobning eshigiga kelgan ziyoratchining

suskashligi isloh qilinib, o'zini tarbiyalash va mavsum vaqti bo'lmasa-da yangi pishgan uzum bilan unga karomatni ko'rsatib ihlos-e'tiqodini parvarishlash jarayoni yoritilgan.

Bir zamonlar so'fiy va darveshlar haqiqatan ham katta nufuz va obro'ga ega edilar. Buni "Nasoyimul –muhabbat" asarini mutolaa qilib bilsak ham bo'ladi. Muqtadir shayxlargina emas, qalandarlar, eshonlar, majzub "devonalar", oddiy darveshlarni ham odamlar hurmat qilganlar. Shuning natijasi o'laroq, tasavvuf, tariqatlar va uning tarkibida darveshchilik harakati keng quloq yoygan, xonaqo udumlari shakllanib, darveshlar alohida bir toifa – tabaqa sifatida jamiyatda muhim o'rin egallagan. Biroq bu birdaniga yuzaga kelgan harakat emas, tasavvuf va darveshlik harakati uzoq tadrijiy tarixga ega. Olimlar tasavvuf tarixini dastlab ikki davrga ajratadilar: birinchi – zohidlik davri, ikkinchisi – oriflik va oshiqlik davri. So'fiylarning o'zini ham orif so'fiylar, zohid so'fiylar, rind so'fiylar, oshiqlar, faqir so'fiylar, faylasuf so'fiylarga ajratish mumkin.

Avliyo zot bo'lmish Miralisher Navoiy "Nasoyimul – muhabbat" asarida 99-raqam bilan kelgan Ruvaym (r. t.) haqidagi yodnomada: "Ikkinchi tabaqadindur va kuniyati Abu Muhammaddur. Va Abu Bakr va Abulhasayn va Abu Shaybon ham debdurlar. Bag'dodning mashoyixining kiboridindur. Faqih erdi, Dovud Isfahoniy mazhabida. Shayx ul-islom debdurki, ul o'zin Junaydning shogirdi ko'rguzur erdi, ammo aning yoronlaridindur va andin uluq. Va Abu Abdulloh Xafif (q s.) debdurki, hargiz ko'zum kishi ko'rmaydurki, tavhidda so'z aytqoy, andoqki, (Ruvaymdan tasavvuf haqida so'radilar. Aytdi: Mutasavvif biror narsani o'ziniki deb bilmaydi va hech kim unga egalik qilolmaydi..." deyiladi. Qarang, bu o'rinda "Mutasavvif biror narsani o'ziniki deb bilmaydi va hech kim unga egalik qilolmaydi..." deyilmoqda. Bu inson ruhining sof erkinligi va asosan inson huquqi haqidagi ta'rifdir. Yoki shu asarning 49 betida 167-raqam bilan yodi kelgan G'aylon Muvasvis (r. t. r.)ni misol qilaylik:

"...Ani G'ayloni Majnun ham derlar erdi. Iroq mashoyixiing mutaqaddimlaridindur. Harobalarda bo'lur erdi va elga omizishi yo'q erdi. Va eldin nima qabul qilmas erdi..." Buni qarangi, bu zotning elga minnati yo'q, o'zi ham minnat

yuklamaydi, garchi bir ehtiyoji bo'lsa ham buni elga bildirmaydi, yana birovdan narsa so'ramaydi. Bu sufiylarning horiqi odatlaridan biri edi. So'fiylarning aksariyati yoshligidan qalbida haqiqatga tashnalik hissi borligi uchun ham riyozat atalmish dengizga, ya'ni "qo'rqmasdan o'zini chuqur daryoga" tashlagan toifadir. Ular har bir ilmi dadillik bilan o'rgana boshlaydi, ular taqlidchi emas, har bir toifaning aqidasini yaxshilab tafakkurdan o'tkazgan va qoniqmay yana o'rgana boshlagan zotlardir.

Imom G'azzoliyning uqtirishicha, ilm ikki xil bo'ladi. Biri – taqlidiy ilm, ya'ni o'tmishdan meros qolgan, ota-ona va ustozlardan olinadigan bilimlar. Ikkinchisi – kashf etilgan ilm. Taqlidiy ilm ko'r-ko'rona ergashish bilan bo'ladi, kashf etilgan ilm esa har bir shaxsning qobiliyati, shuuriy izlanishi orqali qo'lga kiritiladi. Darvoqe, hayotda juda ko'p odamlar taqlidiy bilmilar bilan qanoatlanadilar. Chunki yangilik yaratmay, tayyor hunarlar, ilmlarni o'rganib, ko'p qatori yashash oson. Ammo taraqqiyot uchun, eng avvalo o'z ruhini ozod qilish, insoniyat tafakkurini olg'a siljitish uchun ilohiy va dunyoviy haqiqatlarni, mohiyatlarni izlash, kashf etish zarur. Bu esa "Nasoyimul muhabbat" asari kabi tazkiralarda nomlari zikr etilgan ko'plab buyuk shaxslarning nasibasidir.

Hazrat Alisher Navoiy "avom" deganda savodsiz, ilmsiz oddiy xalqning nazarda tutmagan, balki ilohiyot tajalliyotini qalban his etolmaydigan, borliqqa zohiran (yuzaki) munosabatda bo'lib, jamiyatning rasmi odatlarini bajarishdan nari o'tolmaydigan kishilarni ham nazarda tutgan. Bunday kishilar (avom) qatoriga ilmiga amal qilmaydigan mullalaru ilmi botindan bexabar shayx va zohidlarni ham kiritgan. Bunga misol hazratning: "Zohid senga huru, menga jonona kerak,

Mayli jannat senga, menga mayxona kerak..." deyishidan ham payqash mumkin. Shuningdek, Alisher Navoiyning fikricha, "ahli xos"lar aslzodalar tabaqasi, shoh-amiralar emas, balki Alloh yo'lida zaxmat chekuvchi dili va tili Xaq yodidan bo'shamaydigan chin so'fiylardir. So'fiylar oddiy hayot kechirish uchun zarur bo'ladigan tirikchilik vositalari, moddiy boylikka ega bo'lganlari holda unga mehr qo'ymaganlar, boylikni ko'paytirish haqida emas, balki uni muxtojlariga tarqatish haqida ko'proq qayg'urganlar. Bu esa hukmdor va mulkdorlar uchun ibrat edi. Binobarin, so'fiylar ta'limoti jamiyatni boshqarish, uning istiqboli uchun mas'ul bo'lgan hukmdor va mulkdorlar uchun zarur edi.

Shayx Farididdin Attorning "Tazkiratul avliyo", Shayx Abdurahmon Jomiyning "Nafohatul uns", Shayx Miralisher Navoiyning "Nasoyimul muhabbat" asarlarida aynan "bob" so'zi eshik, ya'ni pir va uning darvozasi ma'nosida keladi. Darvoqe, "darvesh" so'zining o'zi ham sufiyona asarlar lug'atida "darvoza" so'zi o'zagidan olingani ma'lum.

Shuningdek, "Ming bir kecha" turkumidagi "Ali bobo va qirq qaroqchi" ertagining germeneytik jihatdan tahlil qilsak, unda bu yozma obidaning matni ostida juda ko'p haqiqatlar yuz ochadi. Masalan, bunda salaf-ajododlarimiz sufiyona sirlarini kod shaklida ertak qatiga yashirganlari ma'lum bo'ladi. Ushbu ertakning bosh qahramoni Ali bobo aslida Ali bobdir. Ya'ni Ali pir yoki Ali eshik desa ham bo'ladi. "Qirq qaroqchi" esa chiltan, ya'ni qirq tan, qirq avliyo. Qaroqchi, g'or va boshqa obrazlar ramziy ma'no kasb etadi. Jumboqli, sir-sinoatli, bir qancha tilsimni bag'riga olgan bu g'orning siri ertakda Ali bob tufayli ochilib qoldi.

Majlisda hozir bo'lganlarning adadi yoki ertakda yashiringanlar miqdori Alibob bilan hisoblaganda qirq bir kishidir. G'or siri esa ilmi laduniydir. Ya'ni tanlab olingan zotlarga bahramand bo'ladigan ilohiy ilmdir. Ertakda "Sim-sim ochil" deydi, biroq aslida ismi a'zam o'qilib "Tilsim ochil" deyiladi. Qirq kishi – chiltanlar haqida ma'lumotlar aziz zotlar, avliyolar haqidagi deyarli barcha adabiyotlarda uchraydi.

Chiltanlar, ya'ni qirq tanlar dunyoda eng yashirin shafaoatchi toifadir. Xudo bildirgan kishilargina ularning sirlaridan ogoh bo'lishi mumkin. Ularning miqdori hech o'zgartmaydi, azaliy taqdirga ko'ra, jamoadan bir kishi vafot topsa o'milariga yangi kishi qo'shiladi. Chiltanlar ham hamma zamonda mavjuddirlar. Chiltanlarning mavjudligi haqida manbalarda dalillar juda ko'p. Shayx Farididdin Attor "Tazkiratul avliyo"da shunday naqlni keltirdi: "Shayx Abu Bakr Varroq (Termiziy) bir kuni hazrati Muhammad Termiziyga: "Seni bir yerga olib borsam, men bilan borurmisan?" deganida "Borurman" deb javob berdi. Oldiga tushdi, birgalikda ketdilar. Bir mushkul yerlardan o'tdilar. Nogoh bir daraxt tagiga yetdilar. Unda bir oltin taxt qurilgan bo'lib, oppoq kiyimlar kiygan chiroyli, ko'rkam bir kishi taxt ustida o'ltirar edi. Uning xuzuriga borib salom berdilar. Ul kishi hazrati Muhammad Termiziyga ta'zim qilib, yoniga o'tqazdi.

Ko'p turli so'zlardan so'zlashdilar. U hech ularning so'zini tushunmadi. Bir soatdan keyin har tomondan to'p-to'p odamlar kelishdi. Qirq kishi bo'ldilar. Taxt ustida o'tirgan zot ko'kdan yoniga ishorat qilgan edi, taom tushdi. Yedilar. Ko'p turfa so'zlarni so'zlashdilar. Hakim Termiziy ijozat so'radi. Izlariga qaytdilar. Ketayotib Abu Varroq Termiziyga qarab: "Yurgil sayyidlardan bo'lding", dedi. Bir soat ichida Termizga yetdilar. Unga (yana): "Bul borganimiz yer Termizdan bir oylik yo'ldir", dedi. "Bul borganimiz manzili qayer va ul taxt ustida o'ltirgan kishi kimdir?" degan savolga javoban "Borganimiz yer Bani Isroil yurti, ul er (taxtda o'ltirgan) Qutb edi, ul kelganlar esa qirqlar (chiltan) edi", deydi[2].

Shuningdek, qutblar (ularning soni har bir zamonda turli miqdorda bo'lishi mumkin, bitta zamonda 4-5 nafar qutb yashashi ham kuzatilgan, hatto qutblar bitta makonda, bitta shaharda bo'lishi ham mumkin holat) abdollar, g'avslar, uvayslar (tushda yoki ona qornida belgi bergan zotlar), a'zamlar (ularning soni uch nafar, agar ismi a'zam ham qo'shilsa to'rt nafar), siddiqlar va hokazo. Bularning har biri alohida tadqiq etiladigan kategoriyalardir.

Mavzu bo'linib ketmasligi uchun cheklanamiz. Boblar bilan bog'liq manbalardan tashqari yurtimizda ziyoratgohlar ham mavjud. Deylik, "Arslonbob", "Bandi kushod pirim" kabilarni misol keltirish mumkin. Ulug' boblardagi fazilat bu – komillik, mehr-muruvvat, adolat, to'g'rilik, vijdan, or-nomus, iroda, taqvo, matonat kabi ko'plab asl insoniy xislat va fazilatlar majmuidir.

Inson eng avvalo inson sifatida o'zini o'zi taftish qilish ustiga qurilgan ta'limot bu tasavvufdir. Yana ko'p allomalar tasavvuf – butkul adab, to'liq axloq deganlar. Shu ma'noda Navoiyning "Nasoyimul – muhabbat" asarida zikri keltirilgan Husayn Voiz Koshifiyning "Futuvvatnomai sultoniy" nomli asarida odamlar uch guruhga ajratilgan bo'lib, ular: muoshirlar, mutarasmlar, muhaqqiqlardir. Muoshirlar – tariqat ahlining muxlislari bo'lib, ular qalandar-darveshlarga muhabbat bilan qaraydilar, darveshlar suhbatida ishtirok etadilar, ularning xizmatlarini bajaradilar va savobga o'zlarini sherik deb biladilar.

Keyingi guruhga mansub kishilar esa mutarasmlardir. "Mutarasm" so'zining ma'nosi esa rasmi rusumga haddan ortiq ergashuvchi demakdir. Ammo mutarasmlar darveshlarning odatlariga zohiran taqlid qilsalar-da, botinan hol talabgoridirlar va shu toifaga ixloslari tufayli fayzdan bahramanddirlar. Uchinchi guruh muhaqqiqlar – Haqqa yetganlar, ularni oliy martabali so'fiylar deb ta'riflash mumkin. Haqiqiy avliyolar, shayxi murshidlar asosan shularning ichidan yetishib chiqadi. Bu o'rinda muhaqqiq so'fiylarning najib sifatleri xususida to'xtab o'tish joiz deb hisoblaymiz.

Masalan, "Nasoyimul –muhabbat" asarida 51-raqam ostida kelgan yodnomada Abu Ali Sindiy (q. t. s.) haqida shunday deyiladi: "Shayx Ro'zbehon Baqliy (q. s.)

“Shathiyot” sharhida debdurkim, ul Boyazidning ustodlaridindur. Boyazid (q. s.) debdurkim, men Abu Alidin fano ilmini tavhidda o‘rganur erdim. Ul mendin “Al-hamdu” va “Qul-hu-volloh”ni...”

Bu ma’nodan anglashiladiki, ustoz degani hamma narsa faqat undan o‘rganiladi degani emas, ustoz ham o‘z

o‘rnida shogirdidan biror fan yoki biror hunar o‘rganishi kuzatiladi. Va shu o‘rinda insonning invidual huquqi hamda erkinligi ko‘zga tashlanadi. Shuning uchun ham bu toifa va bu yo‘nalish ahli o‘rganilganda doimiy qoliplar, stereotiplar, standartlar o‘z ahamiyatini yo‘qotadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Alisher Navoiy Nasoyimul muhabbat min shamoyim – ul futuvvat Nashrga tayyorlovchi Hamidxon Islomiy. – T.: Movarounnahr, 2017 – yil, -B. 236.
2. Fariduddin Attor. Tazkiratul avliyo. – T.: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2013y. – B. 464.
3. Shukur Jabbor. Mansur Halloj siri. – T.: Sano standart, 2009. -B.48
4. Isaqova Z. Tasavvuf ta’limotida valiylik tushunchasining diniy-falsafiy talqini (Alisher Navoiy Nasoyimul muhabbat min shamoyim – ul futuvvat asari asosida). Falsafa fanlari nomzodi dissertatsiyasi avtoreferati. – T. : 2007 yil. – 25 b.



*Dilfuza YO'LDASHEVA,*  
*Toshkent davlat transport universiteti*  
*E-mail: rustamkhurramov@mail.ru*

*TerDU dotsenti R.Mustafoqulov taqrizi asosida*

### O'ZBEK TILIDAGI DORIVOR O'SIMLIKLAR NOMLARINING TARIXIY LINGVISTIK-SEMANTIK JIHLARI

Annotatsiya

Maqola o'zbek tilidagi dorivor o'simliklar nomlari va ulardagi leksik-semantik munosabatlar masalasi o'rganishga bag'ishlanadi. Dorivor o'simliklar nomlarini tarixiy fitonomik-lingvistik-semantik jihatlari va xususiyatlarini tadqiq qilish tilshunoslik faniga yanada yangi ma'lumotlar bera olishi masalasiga e'tibor berilgan. Dorivor o'simliklar nomlariga ilmiy qiziqish va uning tarixiy jarayon ekanligi borasida izlanishlar olib boriladi. Respublikamizda bu borada olib borilayotgan sa'y-harakatlar qisqacha bayon qilinadi. Shu bilan birga o'zbek tilidagi dorivor o'simliklar nomlari olingan manba xususida to'xtalinadi. O'zbek tilidagi dorivor o'simliklar nomlaridagi bir va undan oshiq komponentlilik asosida tuzilganligi hamda bunday so'z birikmalarining leksik-semantik o'ziga xosliklari borasida talqiniy fikrlar bildiriladi.

**Kalit so'zlar:** Dorivor o'simliklar, so'z birikmalari, til, luhat, semantikka, morfema.

### HISTORICAL LINGUISTIC-SEMANTIC ASPECTS OF THE NAMES OF MEDICINAL PLANTS IN THE UZBEK LANGUAGE

Annotation

The article will be devoted to the study of the names of medicinal plants in the Uzbek language and the issue of lexical and semantic connections in them. Attention was paid to the question of whether the study of historical phytonomico-linguistic-semantic aspects and features of the names of medicinal plants can provide even more new information to the science of linguistics. There is a scientific interest in the names of medicinal plants and the research of the fact that this is a historical process. Efforts in this direction are being generalized in our republic. At the same time, the names of medicinal plants in the Uzbek language are fixed according to the source from which they were obtained. Interpretative opinions are expressed on the basis of one or more components in the names of medicinal plants of the Uzbek language, as well as on the basis of lexical and semantic features of such combinations of words.

**Key words:** Medicinal plants, vocabulary, language, vocabulary, semantics, morpheme.

### ИСТОРИЧЕСКИЕ ЛИНГВО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ НАЗВАНИЙ ЛЕКАРСТВЕННЫХ РАСТЕНИЙ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация

Статья посвящена изучению названий лекарственных растений в узбекском языке и их лексико-семантических отношений. Обращено внимание на то, что изучение исторических фитономико-лингвистико-семантических аспектов и особенностей названий лекарственных растений может дать новую информацию науке языкознания. Исследуется научный интерес к названиям лекарственных растений и его исторический процесс. Кратко остановимся на усилиях, предпринимаемых в этом направлении в нашей республике. При этом будет обсуждаться источник названий лекарственных растений на узбекском языке. Высказываются интерпретационные мнения относительно состава названий лекарственных растений в узбекском языке на основе одного или нескольких компонентов и лексико-семантических особенностей таких словосочетаний.

**Ключевые слова:** Лекарственные растения, лексика, язык, лексика, семантика, морфема.

**Kirish.** O'zbek tilidagi dorivor o'simliklar nomlari yoki o'zbek tabobat atamallari va ulardagi leksik-semantik munosabatlar masalasi hozirgi tilshunoslik fani uchun alohida e'tiborli mavzulardan biri sanaladi. Dorivor o'simliklar nomlariga, qolaversa tabobat atamallariga qiziqish azaldan tadqiqotlar nazaridan chetda qolmagan. XXI asrga kelib insoniyat salomatligi masalasi ijtimoiylik jihatdan oldingi, joiz bo'lsa birinchi o'rindagi dolzarb masalaga aylandi.

Respublikamizda so'ngi yillarda dorivor o'simliklarni muxofaza qilish, tabiiy resurslardan foydalanish, dorivor o'simliklar etishtiriladigan plantatsiyalar tashkil etish va ularni qayta ishlash borasida izchil isloxtatlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2020 - yil 10 - aprelda mamlakatimiz prezidenti tomonidan qabul qilingan "Yovvoyi holda o'suvchi dorivor o'simliklarni muxofaza qilish, madaniy holda etishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarori mazkur soxaga e'tiborni yanada kuchaytirdi[4].

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi o'zbek tilidagi dorivor o'simlik nomlarining leksik jixatdan shakllanishini o'rganish, ularni taxlil qilish, to'plangan o'simliklar nomlarini ma'lum tizimga solish va dorivor o'simlik nomlarining leksik, struktur xususiyatlarini yoritishdan iboratdir. Ilmiy izlanishlarni avvalam bor tilshunoslikning muxum qatlamidan biri hisoblangan so'z yasalishi umumiy tasnifi va dorivor o'simliklarning etimologiyasini urganishdan boshlaymiz.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** So'z yasalishi masalasi ko'p tilshunos olimlar tomonidan qiziqtirib kelingan va o'rganilgan. Xususan, A.G'ulomovning so'z yasalish xaqida o'z ilmiy izlanishlari va tadqiqodlariga tayanib "So'z yasalishi" tilshunoslikning aloxida xodisa va bo'lim sifatida ilk bor XX asrning 40 yillarida shakllangandi. Olim o'zining ilmiy kitoblarida so'z yasalishi bo'yicha o'z fikr va muloxazalarini aytib o'tgan. "O'zbek tilida so'z yasalishi yo'llari xaqida" nomli maqolasida bu muammoga doir bir

qator masalalar o'sha davrdagi tilshunoslik nazariyalari qo'lg'a kiritilgan yutuqlari asosida ilmiy echimini topdi[6].

O'zbek tilshunosligida so'z yasalishi masalalarini o'rgangan olimlardan yana biri A.Xojiev bo'lib u o'zining "So'z yasalishi tizimi", "O'zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so'z yasalishining nazariy masalalari" kitobida so'z yasalishini alohida soxa sifatida morfologiyadan ajratilgan xolda o'rganilishini ma'qullamaydi[3].

O'zbek tilshunosligida so'z yasalishini o'rgangan olimlardan yana bir olim Y. Tojiev. U o'z "O'zbek tili morfemikasi" kitobida ham so'z yasalishi va shakl yasallishi xaqida aytib o'tilgan va ko'p bo'g'inli hozirgi o'zaklarning ko'pi tarixiy jixatdan taxlil qilinganda, ikki yoki undan ortiq morfemalardan iborat ekanligini aytib quyidagi misollarni keltiradi: yomg'ir (yog'-im-ir), yostiq (yot-siq), qishloq (qish-qis-la-q), teskari (ters-ga-ru) va boshkalar[5].

So'z yasalishini hozirgi va tarixiy jixatdan solishtirgan tilshunos olimlardan yana biri G'. Abduraxmonov "Qadimgi turkiy til" kitobida hozirgi o'zbek tili morfologiyasi hamda qadimgi turkiy til morfologiyasini quyidagicha xulosalab bergan va ularni quyidagicha izoxlaydi: 1. Hozirgi zamon morfemalari qadimgi turkiy til tildagiga nisbatan miqdori ko'p va mazmunan boy. 2. Hozirgi o'zbek tilida bor bo'lgan yoki alohida element sifatida o'qilmagan morfemalar ham bor. 3. So'z va forma yasovchi chet el morfemalari yo'q. 4. Murakkab morfemalar juda kam[1].

Shu o'rinda Alisher Navoyining 1499 - yilda yozib tugatilgan "Muhokamat ul lug'atayin" asarida ham yasama so'zlar xaqida aytib o'tganunga ko'ra chi affiksi mansab nomlarini yasashi xaqida: qurchi, Suvchi, xazinachi, yurtchi, jebachi, yorg'achi, xolvachi, qo'ychi, kiyikchi kabi so'zlar. Bizga ma'lumki, Navoyining ushbu asari ikki tilni solishtirgan xolda turk tilining leksik, morfologik va boshqa imkoniyatlari fors tilidan qolishmasligini bir qancha misollar yordamida isbotlangan[6].

**Tahlil va natijalar.** Til bu insoniyat tajribalarini va bilimlarini keyingi avlodga etkazib beruvchi asosiy vosita hisoblanadi. O'zbek tilshunosligida ko'p so'zlar tarmoqlar terminologiyasi orqali urganilgan va etarli tajribalar to'plangan, qator soxalar terminlari ilmiy taxlildan o'tkazilgan va ularning o'zbek adabiy tilidagi o'rni tasvirlab berilgan. Ammo bizni qiziqtirayotgan dorivor o'simliklar nomlanishi barcha tadqiqotlardan o'tilgan va urganilgan degan xulosaga kelmadik.

Shu sabab, o'zbek tilidagi o'simlik nomlarini tizimli tadqiq etish maqsadga muvofiq deb topildi va ularni quyidagi leksik semantik guruhlarga ajratilgan xolda o'rgandik:

- a) daraxtsimon;
- b) butasimon;
- d) yarim butasimon;
- e) o'tsimon.

Ushbu guruhlar o'z ichiga yana kichik guruhlarga bo'linadi va ular o'simlik nomlarining turlarini bildiradi. O'simlik nomlari qadimgi davrlardan boshlab hozirgacha qo'llanilib bir nechta usullar orqali hosil qilinadi. O'zbek tilida o'simlik nomlari uch xil yo'l bilan yasaladi, ular morfologik, sintaktik va semantik usullaridir. O'zbekiston xududida uchraydigan dorivor o'simlik nomlari tuzilishiga ko'ra sodda, qo'shma, takror shakllarida uchraydi[7].

O'zbek tili lug'at tarkibi ilmiy urganishlar va taxlillar natijasida murakkab rivojlanish bosqichlarni boshidan kechirganligi aniqlandi. Til lug'at tarkibini tarixiy etimologik nuqtai nazardan tekshirganda, avvalo, o'zbek tilining genetik jixatdan turkiy tillaga mansubligi aniqlangan. Bunday so'zlar o'zbek tili leksikasining asosiy negizini tashkil etuvchi qadimiy qatlamdir[2]. Ba'zi bir o'simliklarning kelib chiqishi va shakllanishlarini ko'rib chiqdik:

Archa- «sarvar oilasiga mansub, ignabargli, doim yashil daraxt». Yangi yil bayramiga o'rmondan archa kesib

kelinadi. Bu ot qadimgi turkiy tilda sarv daraxtining bir turini anglatgan ard so'zidan kichraytirish ma'nosini ifodalovchi cha qo'shimchasi bilan hosil qilingan; keyinchalik qator kelgan ch undoshdan (rdch) oradagisi aytilmaydigan bo'lgan; o'zbek tilida a unilari a unililariga almashgan: (ard-cha-ardcha→ archa→archa).

Isiriq- "ko'p yillik dorivor o't". Qir yon bag'irlarida isiriq ko'p o'sadi. Bu ot qadimgi turkiy tildagi "hid tarat" ma'nosini anglagan is fe'lining (i)r ortirma qo'shimchasi bilan hosil qilingan shaklidan (i)q qo'shimchasi bilan yasalgan bo'lgan kerak : (is +ir= isir-) + iq = isiriq.

Ismaloq- "bargi ovqatga solinadigan isli ko'kat". Ismaloq somsadan to'yib edim. Bu ot qadimgi turkiy tildagi "hid tarat" ma'nosini anglatgan is- fe'lining eski o'zek tilida kuchaytirish ma'nosini ifodalovchi -la qo'shimchalari bilan hosil qilingan shaklidan -q qo'shimchasi bilan yasalgan bo'lib, "is taratib truvchi ko'kat" ma'nosini bildirgan; -q qo'shimchasi qo'shilish ilan undan oldingi a unlisi a unlisiga almashgan: (is- +m a = ism a -) la =ismala -q =ismalaq

Itog'iz -guli itning og'ziga o'xshash bir yillik o'simlik. Hovlida itog'izlar gullab yotibdi. Bu ot it ag'zi birikmasi tarkibidagi i egalik qo'shimchasini tashlab, ag'iz so'zi tarkibidagi i unlisini tiklab, it so'zga birlashtirish bilan yuzaga kelgan: it ag'zi→ itag'iz

Yantoq -dukkaklilarga mansub tikanli o't. Quritilgan yantoq qishda qo'yga ham juda yaxshi ozuqa o'ladi. Bu ot qadimgi turkiy tilda "alanga ol" ma'nosini anglatgan yan fe'lidan daq qo'shimchasi bilan yasalgan deb taxmin qilinadi. Bu ot asli yan fe'lining kuchaytirish ma'nosini ifodalovchi -da (-la) qo'shimchasi bilan yasalgan; keyinroq d undoshi t undoshiga, o'zbek tilida birinchi bo'g'inidagi a unlisi a unlisiga, q undoshi oldidagi a unlisiga a unlisiga almashgan: (yan -da(≤la)= yanda-) q= yandaq →yantaq).

Yaproq -"o'simlikning quyosh nuri yordamida oziqlanish a'zosi" barg. Daraxt yaprohi bilan ko'rkam, odam mehnati bilan (maqol). Bu ot qadimgi turkiy tilda "qopla" ma'nosini anglatuvchi -yap fe'lining kuchaytirish ma'nosini ifodalovchi -(u)r qo'shimchasi bilan qo'shib hosil qilingan shakliga -g'a qo'shimchasi qo'shib yasalgan va unga kichraytirish ma'nosini ifodalovchi -q qo'shimchasi qo'shilgan: (yap+ ur= yapur)- g'a= yapurg'a +q =yapuraq; →yapuraq); oxirgi o'zbek tilida birinchi bo'g'indagi a unlisi a unlisiga, -q undoshi oldidagi a unlisi a unlisiga almashgan: yapraq→ yäpräq.

Yasmiq "dukaklilar oilasiga mansub o'simlik va uning doni". Onam bugun yasmiq shavla pishiribdi. Bu ot qadimgi turkiy tildagi "sathi yoyil" ma'nosini anglatgan -yas fe'lidan -muq qo'shimchasi bilan yasalgan; o'zbek tilida -a unlisi -a unlisiga, ikkinchi bo'g'indagi -u unlisi -i unlisiga almashgan; yas-+ muq= yasmuq >yasmiq.

Yo'ng'ichqa -bedaning bir turi. Yana sho'r err chopdik yo'ng'ichqaning ildizini sug'urdik (Oydin). Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma'noni anglatgan bu ot yurinchg'a (Devon, 3,439), yorinchqa tarzida talaffuz qilingan, o'zbek tiliga keyingi shakli quyidagi tovush o'zgarishlari bilan etib kelgan: qator kelgan uch nchq undoshlarini aytishga qulaylik yaratish uchun nch undoshlari oralig'iga ы unlisi kiritilgan, keyin ы tovushlari talaffuz etilmay qo'ygan, n undoshi n undoshiga, n undoshi o'z navbatida ng' undoshiga, a unlisi a unlisiga almashgan, ы unlisining qattqlik belgisi yo'qolgan: yorinchqa> yorыmьchqa> yoqыchqa> yong'ыchqa> yong'ichqa.

Yo'sin- "zax er, tosh, daraxt ustida o'sadigan mayda o'simlik". Katta tosh ustini yo'sin qopladi. Bu so'z asli yosun tarzida talaffuz qilingan, o'zbek tilida u unlisi i unlisiga almashgan: yosun >yosin. Bu so'z tarkibida ot yasovchi un qo'shimchasi mavjudligi ko'rinib turibdi, lekin yasash asosi bo'lib kelgan so'z (fe'l) aniq emas. Bu so'z " nam xolatda

bo'l" ma'nosini anglatgan fe'l bo'lsa kerak, chunki bu o'simlik nam joylarda paydo bo'ladi.

Kakra g'alla ekinlari orasida o'sadigan taxir, talxa o'simlik. Ariqning narigi yonida kakra, supurgi,...yana allaqanday yovvoyi o'tlar g'ovlab yotar edi (Asqad Muxtor). Bu ot qadimgi turkiy tilda kekra, kekra(Devon,1, 398) tarzida talaffuz qilingan: o'zbek tilida e unlisi a unlisiga almashgan: kekra > kakra.

Kepak - "donning un qilinganda ajraladigan ustki qobig'i". Ivitilgan somonga kepak qo'shib tert qordi. Bu so'z qadimgi turkiy tildagi qolip ma'nosini anglatgan kip otining kep shaklida kichraytirish ma'nosini ifodalovchi -ak qo'shimchasi bilan hosil qilingan; kep+ ak =kepak.

Ko'kat - o'sib turgan o't o'lan. Xushbo'y mevalar, ayniqsa ko'katlar, turli nav sabzavotlar juda mo'l yog'ildi(Oybek). Bu ot o'zbek tilida "kashnich, ukrop, barra piyoz kabi o'simlik" ma'nosini anglatuvchi kok otidan a qo'shimchasi bilan yasalgan fe'lga t qo'shimchasini qo'shib yasalgan; (ko'k +a =ko'ka+ t =kokat). Bu so'zni ko'k o't so'zlaridan tarkib topgan, bu so'zlar bir so'zga birlashganidan keyin ikkinchi bo'g'indagi o unlisiga almashgan deb talqin qilish ham mavjud.

Pichan "o'rib quritilgan o't, xashak". Jangchilarning ko'pi...qalin pichan ustiga yumalab uxlab qolishdi(Oybek). Bu ot qadimgi turkiy tilda -kes, -o'r ma'nosini anglatgan bich-fe'lidan -(a)n qo'shimchasi bilan yasalgan; keyinchalik b undoshi p undoshiga almashgan:(bich- + an= bichan> pichan).

Tariq "donini oqla, so'k olinadigan boshqli o'simlik". Chumchuqdan qo'rqqan tariq ekmas (maqol). Bu ot qadimgi turkiy tilda "ekin maydon" ma'nosini anglatgan tar otidan -ы qo'shimchasi bilan yasaliib, "ekin ek-" ma'nosini anglatgan fe'lga g' qo'shimchasini qo'shib yasalgan (Devon,

1,354). Keyinchalik o'zbek tilida so'z oxiridagi g' undoshi q undoshiga, a unlisi a unlisiga almashgan, ы unlisining qattqlik belgisi yo'qolgan: (tar +ы= тары )+ g' =тарыg'> tariq. Bu ot dastlab donning barcha turlarini bildirgan, keyinchalik ma'noda torayish, xoslanish voqe bo'lib, don ekinining faqat shu bir turini anglata boshlagan.

Tikanak- "tikanli o'simlik". Cho'qqining o'rta erida tikanak va archa cho'kirtaklaridan yoqilagan bolalarning quvonchi yana qanotlandi(Hakim Nazir). Bu so'z asli tikan otdan kichraytirish ma'nosini ifodalovchi -ak qo'shimchasi bilan hosil qilingan: tikan+ak= tikanak.

Tol ingichka uzun bargli mevasiz daraxt. Yomon arida bol bo'lmas, suvsiz erda tol bo'lmas (maqol). Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma'noni anglatgan bu ot asli tal tarzida talaffuz qilingan, o'zbek tilida a unlisi a unliga almashgan: tal >tál.

Shumtol Yog'och qattiq, bargi patga o'xshash daraxt. O'rmon zonalarida chinor, zarang, shimtol, oq qayin, do'lana uchraydi. Gazetadan.

Evkalipt (yun. Eu yaxshi, kalyptos qoplangan) Avstraliyada o'sadigan bo'yi baland, yog'ochi qattiq va mustaxkam, barglari efir moyiga boy, doim yashil daraxt.

Eman yog'ochi oqish va juda qatti, keng yaproqli, jigarrang uzunchoq mevali daraxt, dub. Eman daraxtining-egilgani singani, Er yigitning uyalgani- o'lgani. Maqol. Eman stol[8].

**Xulosa.** O'simlik nomlarining leksik xususiyatlarini o'rganish muximdir. Shuning uchun biz o'simlik nomlarining leksik xususiyatlarini hamda har bir tur, turkum, oila va boshka oliy tabaqadagi birliklarning nomini, shuningdek, ularni bir biridan tafovut qiluvchi nomini aniq va tuliq tavsifini berishga harakat qildik.

#### ADABIYOTLAR

1. Абдурахмонов Ф. Қадимги туркий тил. Тошкент.1982. Ўқитувчи.26-бет.
2. Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. -Toshkent: Fan, 1985;
3. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. –Тошкент: Ўзбекистон»,194.б.
4. Мирзиёев Ш.М. ЎзР ПҚ-4670-сон 10.04.2020. Ёввойи ҳолда ўсувчи доривор ўсимликларни муҳофаза қилиш, маданий ҳолда етиштириш, қайта ишлаш ва мавжуд ресурслардан оқилона фойдаланиш чора-тадбирлари тўғрисида (lex.uz) (электрон ресурс). Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 11.04.2020 й., 07/20/4670/0414-сон; Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 08.10.2021 й., 06/21/6320/0940-сон; 21.12.2021 й., 06/21/36/1175-сон)
5. Тожиёв Ё. Ўзбек тили морфемикаси.Тошкент.1992.19 бет.
6. Тусунов У. Хозирги ўзбек адабий тили, Т.: Ўқитувчи нашриёти, 2010, 35-бет.
7. Ходжиев А. Ўзбек тили сўз ясаши тизими, Т., "Ўқитувчи" нашриёти, 2007, 4-бет.
8. O'zbek tilining izohli lug'ati. –Т., O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1-, 2-, 3-, 4-, 5-jild. 2006.



*Gulrux KAXXOROVA,*  
*Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti, PhD*  
*E-mail: gulrukh@mail.ru*

*O'zMU dotsenti I.O'sarov taqrizi asosida*

### INGLIZ TILIDA YORDAMCHI SO'ZLAR BOSHQA SO'ZLAR BILAN GRAMMATIK MUNOSABATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada ingliz tilida uchraydigan yordamchi so'zlar, xususan, yuklamalarning boshqa so'zlar bilan grammatik munosabatlari tadqiq etiladi. Ko'makchi va yuklamalar nutqning shakl hamda mazmun jihatdan shakllanishida muhim vazifa bajaradi. Ko'makchi, bog'lovchi va yuklamaning o'zaro yaqinligi, bir turkumga kiritilishi muayyan asoslarga ega bo'lib, ularning har uchasi ham sof va vazifadosh ko'rinishda uchraydi. Ushbu maqolada boshqa so'zlar bilan grammatik bog'liqlikni ifodalovchi, ammo aniq leksik ma'noga ega bo'lmagan so'zlar (frazema, quasy), modal fe'llar va ingliz tilidagi aniqlovchi iboralar doirasidagi partikl so'zlar yuklamalarning grammatik xususiyatlari, funksional so'zlar boshqa so'zlar bilan grammatik munosabatlarni ifodalashi hamda partikl so'zlarni o'z ichiga olgan frazaviy fe'llarning ahamiyati diagrammalar yordamida tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Bog'lovchi, yuklama, frazaviy/iboraviy fe'llar (frazemalar)da yuklamalar, modal xususiyatli fe'llar (Quasy-modal Verbs), funksional so'zlar, grammatik diagramma, nutqni shakllantirish.

### GRAMMATICAL RELATIONSHIPS OF AUXILIARY WORDS WITH OTHER WORDS IN ENGLISH

Annotation

This article examines the grammatical relations of auxiliary words in English, in particular particles with other words. Prepositions and particles play an important role in the formation of speech in terms of form and content. The mutual proximity and inclusion of conjunctions, prepositions, and particles in one category has specific reasons, and all three of them are found in a pure and functional form. In this article, the importance of words (phrases, quasy) that express a grammatical connection with other words, grammatical features of particle words within modal verbs and defining phrases in English, function words expressing grammatical relations with other words, and importance of phrasal verbs containing particle words are analyzed using diagrams.

**Key words:** Conjunction, preposition, particles in phrasal verbs (phrases), Quasy-modal Verbs, functional words, grammatical diagram, formation of speech.

### ГРАММАТИЧЕСКИЕ СВЯЗИ ВСПОМОГАТЕЛЬНЫХ СЛОВ С ДРУГИМИ СЛОВАМИ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация

В данной статье рассматриваются грамматические отношения вспомогательных слов английского языка, в частности частиц с другими словами. Предлоги и частицы играют важную роль в формировании речи по форме и содержанию. Взаимная близость и включение союзов, предлогов и частиц в одну категорию имеет конкретные причины, и все три встречаются в чистом и функциональном виде. В данной статье рассмотрено значение слов (словосочетаний, квази), выражающих грамматическую связь с другими словами, грамматические особенности слов-частиц в составе модальных глаголов и определяющих словосочетаний в английском языке, служебные слова, выражающие грамматические связи с другими словами, а также значение фразовых глаголов. Слова, содержащие частицы, анализируются с помощью диаграмм.

**Ключевые слова:** Союз, предлог, частицы во фразовых глаголах (словосочетаниях), квазимодальные глаголы, служебные слова, грамматическая схема, формирование речи.

**Kirish.** Ingliz tilida ham, o'zbek tilida ham yuklamalar matn tarkibida alohida so'zlar sifatida ajralib turadiki, shu xususiyatiga ko'ra ularni qiyinchiliksiz tez topish mumkin. Ammo ular turli ma'no nozikliklariga egaligi bois qaysi ma'noda kelganligini faqat matn orqali aniqlab olinadi.

R.Begmatova qayd qilganidek: "Yuklamalarning semantikasi ularning funksiyalari va qanday maqsadda qo'llanilayotganida ayon bo'ladi. Shu tufayli faqatgina o'z nutqida foydalanayotgan shaxsgina qaysi yuklamani qaysi bir maqsadda qo'llaganligini idrok qila oladi. Insonning tilga bo'lgan ta'siri shu o'rinda ko'rinadi"[1].

«1.3-jadval.»

**Asosiy qism.** O'zbek tilidagi yuklamalarni ko'rinishiga ko'ra ikkiga bo'lib o'rganishga to'g'ri keladi. Bular:

1. So'z yuklamalar: axir, hatto (ki), nahot (ki), ham, g'irt, faqat, atigi, naq, xuddi, qoq, hech, sira, na...
  2. Qo'shimcha yuklamalar: -mi, -chi, -a, -ya, -u, -yu, -ku, -da, -oq, -yoq, -ye, -gina, -kina, -qina, -ki, -dir....
- Shu o'rinda aytilish lozimki, ingliz tilidagi yuklamalar, asosan, so'z ko'rinishidadir. O'zbek tilida esa, aksincha, qo'shimcha ko'rinishidagi yuklamalar katta o'rinni egallaydi. (1.3-jadval.)


O'zbek tilidagi yuklamalarni mohiyatiga ko'ra uchga bo'lib o'rganish mumkin

<b>Sof yuklama</b>	<b>Qo'shimchasimon yuklama</b>	<b>Yarim yuklama</b>
axir, hatto, faqat, ham, naq, xuddi, nahot	-a, -ya, -mi, -ku, -u, -yu, - da, -oq, (-yoq), -ye, -gina (-kina, -qina), -dir, -ki, (-kim)	yolg'iz, yakka, ba'zan, bir, birgina, emas, yana, tag'in, tugul, xolos

Shakl jihatidan predloglarga o'xshash bo'lgan partikl so'zlar ingliz tilidagi uch konstruksiya doirasida yuklama vazifasini bajaradi:

1. Frazaviy / iboraviy fe'llar (frazemalar)da yuklamalar. Ular o'z ichiga yuklama vazifasini bajaradigan partikl so'zlarni oladi. Bunday grammatik qurilmalar tarkibi frazema fe'llardan keyin bir yoki bir nechta partikl so'zlardan iborat bo'ladi. Frazemali fe'lning partikl so'zi yuklama vazifasini bajaradi. Jumladan, calloff (cancel) – (bekor qilish); layinon (criticize) – (tanqid qilmoq); letup (diminish, lessen) – (kamaytirish); passon (transmit) – (o'tkazish, uzatish); ruleout (eliminate) – (yo'q qilish); throwup (vomit) – (qusish) va hokazolar iborali fe'llarga misol bo'la oladi.

Quyidagi grammatik diagramma yuklama sifatidagi partikl so'zlarni o'z ichiga olgan frazaviy fe'llarni o'zida aks ettiradi:



«1.1-diagramma.» Fe'lli gaplar


2. Modal xususiyatli fe'llar (Quasy-modal Verbs). Ingliz tilida yuklama vazifasini bajaradigan partikl so'zni o'z ichiga olgan ikkinchi grammatik qurilma quasy – modal fe'llardir. Quasy so'zi o'xshash, monand, hammasi emas, balki ba'zi xususiyatlarni saqlab qolgan ma'nolarini anglatadi. Quasy – modal fe'l yuklama vazifasida keladigan fe'l va predlogdan yoki fe'l va ravishdan iborat bo'lgan fe'llardir. Masalan:

ought to (kerak), used to (odatlangan, odatda bajaradigan) = verb + preposition [yuklama];  
verb + would rather, had better (yaxshisi)= verb + adverb.

Bunday modal fe'llar sof modal fe'llar va deyarli modallik xususiyatiga ega bo'lgan fe'llarni o'z ichiga oladi.

Ular ingliz tilidagi ko'makchi fe'llarning alohida shakli bo'lib, fe'llardan grammatik shakl va funksiyasi bilan farqlanadi. Uchta ingliz quasy – modal fe'llari yuklama vazifasini bajaradigan partikl so'zlarni o'z ichiga oladi. Bular: ought (to), hadbetter (hadbest), usedto fe'llaridir.

3. Aniqllovchili iboralaridagi yuklamalar. Ingliz tilida yuklama vazifasini bajaradigan partikl so'zni o'z ichiga olgan uchinchi grammatik qurilma bu – aniqllovchi ibora. Ingliz tili grammatikasida aniqllovchi ibora shaklida bir nechta aniqllovchi bitta so'z yoki so'z birikmasining aniqllovchisi vazifasini o'tashi mumkin. Quyidagi ostiga chizilgan aniqllovchilar aniqllovchi iboralarga misol bo'la oladi:



«1.3-diagramma.» Fe'lli gaplar

All three of the friends had been interviewed for the job, however, the board were not satisfied any of their answers.(Har uchala do'st bilan ishga olish uchun suhbat qilindi, biroq komissiya ularning birorta javobidan qoniqmad).

Both of the girls sitting at the front table have got excellent marks in the eham (Oldingi partada o'tirgan har ikkala qiz imtihonni a'lo bahoda topshirdi.)

Yuqoridagi jumalarda aniqllovchi iboralar tarkibidagi al lthree of the, any of their va both of the kabilar yuklama sifatida ishlatilgan. Quyidagi grammatik diagrammada aniqllovchi iboraning shakli va vazifasi, partikl so'zining yuklama vazifasi ko'rsatilgan:

Boshqa so'zlar bilan grammatik bog'liqlikni ifodalovchi, ammo aniq leksik ma'noga ega bo'lmagan so'zlar

– frazema, quasy –modal fe'llar va ingliz tilidagi aniqlovchi iboralar doirasidagi partikl so'zlar yuklamalarning grammatik vazifasini bajaradi.

Umuman aytganda, ingliz tili grammatikasida yuklamalardan iborat funksional so'zlar boshqa so'zlar bilan grammatik munosabatlarni ifodalaydi. Funksional so'zlar aniq grammatik funksiyani bajaradi, ammo aniq leksik ma'no bildirmaydi, chunki ularga atash ma'nosi xos emas.

Yuklama grammatik shaklga ega, grammatik ma'no anglatuvchi, muayyan grammatik vazifa bajaruvchi so'z sanalishi tufayli ingliz tili grammatikasida yuklama vazifasini o'tashi mumkin bo'lgan grammatik shakllar partikl so'z sifatida qabul qilinadi. Frazema, quasy – modal fe'llar va boshqa aniqlovchilarning partikl so'zlari yuklama vazifasini bajarib keladi.

Ingliz tilida yuklamalarning grammatik vazifasini faqat bitta grammatik shakl bajarishi mumkin. Partikl nomi bilan yuritiladigan bunday so'zlar qatorini predlog yoki ravishga xos funksiyani bajarmay qo'yan predlog yoki ravish, shu jumladan, frazemali fe'llardagi yuklamalar, deyarli modallik xususiyatidagi fe'llar va aniqlovchili iboralar, infinitiv (harakat nomi)li tuzilmalar tashkil qiladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, odatda, ingliz tilida yuklamalar o'zi bog'lanib kelgan so'zdan oldin qo'llanadi. Kamdan-kam holatlardagina ular o'zi bog'lanib kelgan so'zdan keyin kelishi mumkin. Masalan: "I can't remember him at all. I've even forgotten what he looks like". (Tarjimasi: "Men uni hech ham eslay olmayman, hattoki uning ko'rinishini ham unutib qo'yanman").

O'zbek tilida esa yuklamalar o'zi bog'lanib kelgan so'zdan oldin ham, keyin ham kelishi mumkin. Masalan, faqat yuklamasi juda ko'p hollarda o'zi ajratib kelgan so'z oldidan qo'llaniladi, ba'zan inversiyaga uchragan gaplarda va poetik «1.4-jadval.»

asarlarda o'zi aloqador so'zdan keyin ham keladi. Lekin bunday holatlar faqat yuklamasining presuppozitsiya anglatib kelishiga to'sqinlik qilolmaydi. Masalan: Faqat meni koyimang, ona.

Shunisi ham borki, har ikkala tilda ham bir ma'no guruhiya mansub yuklamalardan bittasi yo bir nechtasi, yo bir gapda bir necha ma'no guruhiya mansub yuklamalar aralash qo'llanib kelishi kuzatiladi. Masalan: "I have organised a perfectly wonderful party, but you even did not pay attention, you neither called at me, nor phoned, just ignored everything". (Tarjimasi: "Men juda ajoyib kecha uyushtirdim, biroq sen hattoki e'tibor ham qilmading. Sen na tashrif buyurding, na qo'ng'iroq qilding, shunchaki hammasini inkor etding").

Ma'lumki, o'zbek tilida yuklamalar yasalmaydi va yasalishga ham asos bo'lolmaydi. Lekin ingliz tilidagi so'z yasalishida yuklamalar ishtirok eta oladi. Aniqrog'i, ingliz tilida yuklama qo'shma so'z yasalishida qatnashadi. Bu jarayonda u qo'shma so'zning komponenti ko'rinishida ishlatiladi. Umuman aytganda, ingliz tilida yuklamaboshqa so'z turkumlari so'z yasalishida ishtirok etib, uning muhim komponentlaridan biri bo'lib keladi.

Ingliz tilida yuklama ishtirokida yasalgan qo'shma so'zlar "Part + N" modelida namoyon bo'ladi. Bunga online (mobil-aloqa(masofaviy)), onlooker (tomoshabin), onward (oldinga harakat qiluvchi) kabi qo'shma so'zlarni misol qilish mumkin. Ularning birinchi kelgan "on" qismi yuklama bo'lsa, keyingi qismi ot turkumidagi so'zlardir. Ingliz tilida yuklama va ot turkumining birlashuvidan yuqoridagi kabi qo'shma otlar hosil bo'lgan.

Shunisi borki, o'zbek va ingliz tillaridagi yuklamalarning ifodalab keladigan ma'nolarida ham o'xshashliklar mavjud. Masalan, ulardan ayrimlarini quyidagicha qiyoslab ko'rsatish mumkin: (1.4-jadval.)

O'zbek va ingliz tillaridagi yuklamalarning ma'nolaridagi o'xshashliklar.

Tillar kesimida	Tasdiq ma'nosi	Inkor ma'nosi	Qistov ma'nosi	Yuklama turi
O'zbek tilida	Menga naq shu kitob kerak edi.	Bu baliq xuddi dadang keltirgan baliqday emas.	Dushman turgan hududni qoq yorib kirdik.	Aniqlov
Ingliz tilida	He invited me to his wedding too.	The dead will not return as soon as you now.	After all, start the wedding make a campaign.	
O'zbek tilida	Meni ham to'yiga aytdi.	Dang'illama ma'raka qilganingiz bilan o'lgan qaytib kelmaydi-ku.	Axir endi to'yni boshlang.	Kuchaytiruv-ta'kid
Ingliz tilida	As for me, I knew it beforehand.	And you, you are not a human being!	What if you move forward ?? Do you call that a person? Will you not repay the loan you received?	
	Men-chi, bu haqda oldindan sezgandim.	Siz-chi, odam emas ekansiz. O'shani odam deb yuribsizmi?	Oldinroqqa siljisangiz-chi?! Olgan qarzingizni bermaysizmi?	So'roq-taajjub

Agar yuklama tushirib qoldirilsa, gapning ma'nosida ham yo'qotish yuz beradi. Bunday ta'kid nemis yuklamashunos G.Veydt tomonidan ham qayd etilgan[2].

Xullas, yuklamalar so'zlarga yoki gaplarga taalluqli bo'lib, ularga turli ma'no ottenkalarini qo'shadi. Ba'zan bunda bir ko'rinishdagi yuklamaning bir necha ma'no tovlanishlarini ifodalab kelishi kuzatiladiki, shuning uchun ular ko'pincha juft nom bilan atab kelinadi. Jumladan, so'roq yuklamalari,

asosan, so'roq-taajjub yuklamalari deyilishiga ularning bir paytda ham so'roq, ham taajjub, ham hayrat va hokazo kabi qator ma'nolarini bildirib kelishi sabab bo'ladi.

**Xulosa.** Ingliz va o'zbek tillarida yuklamalar turg'un hisoblanadi. Yuklamalar mustaqil leksik ma'noga ega emasligi tufayli ularning ma'nosini aniqlash juda qiyin. Shuningdek, gap tarkibida kelganda ham ularning mustaqil funksiyasi mavjud emas. Hech qanday grammatik kategoriyaga ham ega

emas. Ular faqat ta'kidlash, urg'u qaratish, cheklash aniqlash, kuchaytirish yoki alohida so'zlar, so'z guruhlarini, hattoki butun frazalar uchun inkor ma'nosini berish uchun xizmat qiladi.

Yuklamalar so'zlarga yoki gaplarga taalluqli bo'lib, ularga turli emotsional ma'no ottenkalarini qo'shadi. Ba'zan bunda bir ko'rinishdagi yuklamaning bir necha ma'no

tovlanishlarini ifodalab kelishi kuzatiladi, shuning uchun ular ko'pincha juft nom bilan atab kelinadi. Jumladan, so'roq yuklamalari, asosan, so'roq-taajjub yuklamalari deyilishiga ularning bir paytda ham so'roq, ham taajjub, ham hayrat bildirib kelishi sabab bo'ladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Begmatova R.F. Nemis va o'zbek tillarida yuklamalarning semantik, sintaktik va stilistik xususiyatlari: Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2020. – B.12.
2. Weydt H., Th.Harden. Kleine deutsche Partikellehre. Klett Stuttgart, 1983. – S.141.



*Ozoda KUCHKAROVA,*  
*Andijon davlat universiteti katta o'qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi*

*F.f.b.f.d. (PhD) D.A.Nasriddinov taqrizi asosida*

### YAXSHILIK VA YOMONLIK BADIY – OBRAZLI IFODA VOSITALARI TAHLILI

Annotatsiya

Mazkur maqolada yaxshilik va yomonlik badiiy-obrazli ifoda vositalarining tahlili borasida fikr yuritiladi. Yaxshilik va yomonlik badiiy-obrazli ifoda vositalari tahlili mavzusining dolzarbligi jamiyatimizdagi hozirgi ijtimoiy-madaniy vaziyat bilan bog'liq bo'lib, u insonning ma'naviy sohasiga ta'sir qilmasdan qolmasligi mumkin bo'lgan inqirozli hodisalarning chuqurlashishi bilan tavsiflanadi. Ushbu so'zlarga berilgan ta'riflar bilan birgalikda, mazkur yonalishda izlanish olib borgan rus, ingliz olimlarini fikrilaridan ham namunalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Yaxshilik va yomonlik, tahlil, voqelik, tasavvur, ong, jamiyat, badiiy-obraz, vosita, inson.

### АНАЛИЗ ХУДОЖЕСТВЕННО-ОБРАЗНЫХ СРЕДСТВ ВЫРАЖЕНИЯ ДОБРА И ЗЛА

Аннотация

В данной статье рассматривается анализ хороших и плохих художественных средств выразительности. Актуальность темы анализа художественно-образных средств выражения добра и зла связана с современной социокультурной ситуацией в нашем обществе, характеризующейся углублением кризисных явлений, которые не могут не затронуть и духовную сферу. человека. Вместе с определениями, данными этим словам, также представлены примеры мнений российских и английских ученых, проводивших исследования в этом направлении.

**Ключевые слова:** Добро и зло, анализ, действительность, воображение, сознание, общество, художественный образ, инструмент, человек.

### ANALYSIS OF ARTISTIC AND FIGURATIVE MEANS OF EXPRESSION OF GOOD AND EVIL

Annotation

In this article is discussed the analysis of goodness and badness artistic means of expression. The actuality of the topic of analysis of artistic and figurative means of expressing good and evil is associated with the current socio-cultural situation in our society, characterized by deepening crisis phenomena that cannot but affect the spiritual sphere. person. Together with the definitions given to these words, examples of the opinions of Russian and British scientists who conducted research in this direction are also presented.

**Key words:** Goodness and badness, analysis, reality, imagination, consciousness, society, artistic image, tool, person.

**Kirish.** Jamiyatda istiqomat qilayotgan insonlarning nutqi nafaqat yangiliklarni uzatishga, balki butun hissiy ishonchligi bilan voqelik haqida o'y fikrlari, mulohazalarini keltirib chiqarishga qodir. Nutqimizdagi barcha barcha so'zlar har qanday mazmuni ochishda ishtirok etadi va suhbatdoshimiz ongida ijobiy yoki salbiy tasavvur uyg'otishda alohida hizmat qiladi desak mubolag'a bo'lmaydi. Lekin har qanday tilda shunday so'z va iboralar (tilning majoziy-ifoda vositalari) mavjud bo'lib, ular yordamida yozuvchilar har qanday predmet yoki hodisaning u yoki bu xususiyatlari yoki tomonlarini yorqin, obrazli, ifodali va qisqacha tavsiflashlari mumkin.

Bizningcha, bu yaxshilik va yomonlik badiiy-obrazli ifoda vositalari tahlili mavzusining dolzarbligi jamiyatimizdagi hozirgi ijtimoiy-madaniy vaziyat bilan bog'liq bo'lib, u insonning ma'naviy sohasiga ta'sir qilmasdan qolmasligi mumkin bo'lgan inqirozli hodisalarning chuqurlashishi bilan tavsiflanadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Ushbu maqolada yaxshilik va yomonlik badiiy obrazli ifoda vositalari tahlil bahs yuritiladi. Avvalo yaxshilik va yomonlik so'zlarining ma'nolariga to'htalib o'tishni joiz deb bildik. Yaxshilik va yomonlik axloq va falsafaning markaziy toifalaridir. Ular insonlar haqidagi fikrlarni ifodalaydi, ular orqali inson o'z mavjudligini belgilaydi, ular ijobiy va salbiy hamma narsaning o'lchovidir. Aynan shu tushunchalar orqali insonning harakatlari, uning barcha faoliyati baholanadi.

Yaxshilik va yomonlik — axloq shunoslik fanining juft tushunchasi. Odamlarning xatti-harakatlariga, ijtimoiy hodisalarga berilgan ijobiy yoki salbiy bahoni ifodalaydi. Yaxshilik — eng muhim fazilat bo'lib, inson faoliyatining asl va azaliy mohiyatini anglatadi. U insonga kuchli ruhiy lazzat bag'ishlashi barobarida, uni shaxsga aylantiradigan haqiqiy baxtga olib boradi. Shuning uchun ham "ezgu (yaxshi) fikr", "ezgu (yaxshi) so'z", "ezgu (yaxshi) amal" tushunchalari Avestodan tortib, barcha muqaddas kitoblarda yetakchi o'rin egallagan. Yaxshilik insonning axloqiy va amaliy faoliyatida yuzaga chiqib, unda kamtarlik, ochiqko'ngillilik, mardlik, halollik, insoflilik, adolat, rostgo'ylik kabi fazilatlar mujassam bo'ladi. Yomonlik — yaxshilikning ziddi, shaxs va jamiyat taraqqiyotiga to'sqinlik qiluvchi illat. Yol' onchilik, pastkashlik, munofikdik, behayolik, rahmsizlik, nomardlik, xiyonat kabi tushunchalarda namoyon bo'ladi. Diniy nuqtai nazardan yaxshilik ilohiy inoyat, yomonlik esa insondagi shaytoniy va hayvoniy xislatlarning ifodasi tarzida talqin qilinadi; yaxshilik ham, yomonlik ham insonning ixtiyor erkinligidan qay darajada foydalanishining oqibati sanaladi. Qur'onda yaxshilik qilish insonning tabiiy burchi ekani, Alloh insonga o'zining ne'matlari bilan ehson qilganidek, inson ham boshqalarga yaxshilik qilishi lozimligi ta'kidlanadi. Musulmonlar tasavvuriga ko'ra, odamlar bu dunyodagi yaxshi ishlari uchun narigi dunyoda mukofotini oladi, ya'ni huzurhalovatga muvassar bo'ladi, yomon ishlari uchun do'zax azobiga duchor etiladi Keyingi davrlarda yaxshilik va yomonlik inson o'z manfaatlarini himoya qilishda to'g'ri yoki

noto'g'ri yo'l tutishi natijasida yuzaga keladi, degan fikr o'rtaga tashlandi. Mutafakkirlar yomonlikni inson hayotidan chiqarib tashlash uchun uni vujudga keltiruvchi ijtimoiy sharoitni yo'q qilish zarur deb ta'lim beradi[8]. **Yaxshilik** va yomonlik tushunchalari inson faoliyatini baholash xususiyatiga ega: uni insonning ulug'ligi yoki tubanligini o'lchaydigan muqaddas taroziga o'xshatish mumkin. Inson shaxsidagi yutuq va kamchiliklar, jamiyatning takomilga erishgan yoki erishmagani shu mezonlar bilan o'lchanadi. Qaysi jamiyatda yaxshilik ko'payib, yomonlik kamayib borsa, o'sha jamiyat axloqiy yuksaklikka, farovonlikka, taraqqiyotga tezroq erishadi; shaxsiy munosabatlarda xiyonat, g'azab, kibr, hasad, qasd, munofiqlik kabi illatlar asta-sekin yo'qolib, xushxulqlik, shirinsuxanlik, halollik, bag'rikenglik singari fazilatlar ko'proq o'rin egallab boradi, natijada jamiyatda yaxshilikning ustuvor bo'lishiga olib keladi[8]. Ushbu sohadagi ishlarning o'rganishimiz natijasiga shuni qo'shish mumkinki, yaxshilik va yomonlik qilish uchun insonlar, avvalo, oilada tarbiya topib, jamiyatda rivojlanish bosqochiga o'tar ekan, avvalo ushbu tushunchalar ularning ingiga yoshlik chog'larida ota-onas, yaqinlari tomonidan o'rgatilishi lozimligini anglab yetdik.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ingliz tilshunosligiga nazar tashlasak, ko'zga ko'ringan yetuk izlanuvchilar yaxshilik va yomonlikni o'z badiiy asarlarida tasvirlab o'tganlar. Har qanday tsivilizatsiyalashgan jamiyatda bo'lgani kabi, o'smirlar va bolalar olamida ham yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlik tushunchalari avvalo oilada singdirilishini ta'kidlab o'tganlar va bu tushunchalarni o'z asarlari qahramonlari misolida ham tasvirlaganlar[9]. Yaxshilik va yomonlikni targ'ib qilish, yosh avlodni okkultizm ilmlariga nosog'lom qiziqish uyg'otish va dindan voz kechish kabi ayblovlar go'yoki oddiy odamlarni sehrqaralarga qarshi qo'yadi deb o'ylaydilar. Yozuvchilarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri - asosiy qahramonlarning ko'zga ko'ringanligi, ularning harakatlari va kechinmalari, bu yerda sehrli va ajoyib narsalar yordamchi rol o'ynaydi, hikoya, romanlarining ohirida yaxshilik yomonlik ustidan doimo g'alaba qozongan. Shunday qilib, masalan, ishda munosabatlar katta rol o'ynaydi: do'stlik, sevgi, bosh qahramonlarning oila bilan munosabatlari. Ayniqsa, yovuzlik va ezgulik doimo yonma yon ta'riflangan va bular asar qahramonlari misolida o'z aksini tongan desak mubolag'a bo'lmaydi[8].

Rus halqining atoqli mutafakkirlari N.A. Berdyayev, I.A. Ilyin, N.O. Losskiy, V.S. Solovyov, L.M. Lopatin, L.P. Karsavin, S.N. Trubetskoy va boshqalar yaxshilik muammosini va undan ajralmas yomonlik muammosini hal qilmasdan turib, to'laqonli axloqiy tizimni ishlab chiqishni mumkin emas deb hisobladilar. Barcha tadqiqotchilar yaxshilik va yomonlik tushunchalarining nisbiy xususiyatiga qaramay, inson faoliyatining asosiy boshlang'ich nuqtasi uning ijobiy yo'nalishi - yaxshilik ekanligiga ko'p bora ta'kidlab kelishmoqdalar[7].

Faylasuf yaxshilikning mutlaq qiymati va shartsizligi g'oyasini shubha ostiga qo'ydi va uni yovuzlik mavjudligining ajralmas sharti sifatida belgiladi. Mualliflarning o'zi axloqni go'zal bo'lishi uchun yaxshilik doimo barcha narsadan ustundir deya ta'kidlaganlar[1], chunki axloqqa qarshi turishga chaqirilgan boshlang'ich sifatida u nafaqat yomonlikni, balki yaxshilikni ham ko'rsatdi va inson yovuzlikda aybdor sifatida ko'rsatiladi, balki yaxshilik ham insonlarni qilgan mehnatlari boshqalar tomonidan e'tirof etiladi. Jumladan alloma shunday deydi: "Biz o'zimizda asl gunohni olib yurganimiz va yaxshilik va yomonlik toifalarida, farqlar va baholashlarda aylanishga mahkum bo'lgan halokatli dunyoda yashayotganimiz sababli, bizning fikrimiz yengib bo'lmaydigan paradokslarda aylanadi"[1].

Ingliz olimlarining aksariyati ezgulik va yovuzlikning haqiqiy mazmuni masalasini inson borligini anglashning

asosiy qurollaridan biri deb hisoblaydilar, bu o'zining haqiqiylikida erkinlik, ijodkorlik va muhabbat shaklida namoyon bo'ladi deya qo'shimcha qiladilar[9].

**Tahlil va natijalar.** Maqolani yozish jarayonida yaxshilik va yomonlik leksemalarining lingvistik talqini muhokama qilishga harakat qildik. Yaxshi leksemaning lug'at ta'riflari tahlili asosida "hamma narsa ijobiy, yaxshi, axloqiy (yomonga qarshi)" eng keng tarqalgan komponenti ajratib ko'rsatilgan bo'lib, u quyidagi ma'nolar bilan belgilanadi: 1) yaxshi; 2) farovonlik; 3) mehribonlik; 4) halollik; 5) foyda; 6) baxt; 7) omad; 8) muvaffaqiyat; 9) qarz; 10) yaxshi ish, ish; 11) yaxshi munosabat; 12) mulk; 13) boylik; 14) rozilik belgisi[3].

Yomon leksemasining eng umumiy komponenti "hamma narsa yomon, axloqsiz (yaxshilikka qarama-qarshi)" bo'lib, quyidagi xususiy komponentlar yordamida aniqlangan: 1) zarar; 2) muammo; 3) baxtsizlik; 4) hujum; 5) muammo; 6) yomon tuyg'u: g'azab, bezovtalik; 7) gunoh; 8) qasos; 9) norozilik; 10) sharob; 11) ayyorlik[3].

Eng oddiy ma'noga ega bo'lgan markaziy birliklar sinfi semantik sohaning o'zagini - yadro semalarini tashkil qiladi. Leksema uchun yaxshi - "ijobiy", "yaxshi", "axloqiy" deya ta'riflar berildi. Leksema uchun yomonlik mos ravishda «yomon», «axloqsiz» so'zlari orqali tanishtirildi. Kuznetsovaning fikriga ko'ra, bu tushunchalarning asosiy (dominant, umumiyroq) sifatida ajratish mumkin: kategorik-leksik semalar, "arxisemalar" so'zning leksik ma'nosini tashkil qilishda eng muhim hisoblanadi[4].

Yana bir alloma, Malenkovaning so'zlariga ko'ra, "murakkabroq, maxsus ma'noga ega" deb ta'rif berildi, chunki boshqa barcha umumiy semalar kategorik-leksik semalarga bo'ysunadi. ularni aniqlashtirish, konkretlashtirish bu sema tuzilishiga ierarxik xususiyat beradi. Bunday semalar odatda differentsial deb ataladi. Yaxshi leksemasi uchun - 'yaxshi', 'omonlik', 'foйда', 'mulk' deb ta'riflar berildi. Yomonlik leksema uchun esa «zarar», «muammo», «hujum», «g'azab», «gunoh» kabi so'zlar bilan ta'riflandi[2].

Ezgulikning semantik sohasida birinchi ma'noga kiruvchi birliklariga - "halollik", "baxt", "muvaffaqiyat", "rozilik" kabi so'zlarni kiritsak; yomonlik so'ziga esa - "qasos", "g'azab", "ayb", "ayyorlik" tushunchalari bilan ta'riflanadi[2].

Ko'pincha Ingliz yozuvchilari uchun kimning ijtimoiy yoki moddiy sohada qanday o'rin egallashi, uning kelib chiqishi qanday bo'lishi muhim emas, asosiysi, nima bo'lishidan qat'iy nazar, halol va munosib inson bo'lib qolishida deb biladilar. Shubhasiz, fantastik roman asarining belgilovchi xususiyatlaridan biri syujet tuzuvchi asosiy o'zak sifatida ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi qarama-qarshilikdir[9].

Ijodkorlar asarlarida tasvirlangan deyarli barcha qahramonlar va ishtirokchilari o'rtasida, ayniqsa bosh qahramonlar bir-biriga qarama-qarshi, yaxshilik va yovuzlik doimo bir biriga zid tarzda tasvirlangan Yaxshi g'alaba qozongan bo'lsa-da, asosiy final - g'alabaga erishish yo'lida ko'plab qiyinchiliklar, jarohatlar va hatto o'limlarni tasvirlagan sahnalarni uchratishimiz mumkin.

**Xulosa va takliflar.** Yaxshilik va yomonlikning ikki tomonlama qarama-qarshiligi ideoleksikasida aks ettirilgan. Yuqorida bir necha olimlarning izlanishlaridan namunalar keltirdik: yovuzlik tushunchasining semantik sohasi juda ko'p qirrali tarzda taqdim etilgan va yaxshilik tushunchasi, yuqorida aytib o'tganimizdek, ko'pincha yashirin vositalar bilan ifodalanaadi. Shu bilan birga, kontekstida yaxshilik va yomonlik tushunchalarining ayrim ekvivalentlari va qarama-qarshi tushunchalarning "kesish zonasini" tashkil qilib, qarama-qarshilikda taqdim etilgan kontseptsiya maydoniga "o'tadi".

## ADABIYOTLAR

1. Бердяев 2003 Бердяев Н.А. Самопознание. М.,2003. - 412 с.
2. Маленкова 2004 Маленкова А.А. Система обозначений добра и зла в русском языке: структурно-смысловый анализ семантического поля. Дисс. на соиск. уч. ст. к. ф. н. Москва, 2004. - 191с.
3. Моспанова 2005 — Моспанова Н.Ю. Концептуальная оппозиция ДОБРО ЗЛО в фольклорной языковой картине мира (на материале русских народных сказок). Дисс. на соиск. уч. ст. к. ф. н. - Брянск, 2005.
4. Кузнецова 1982 Кузнецова Э.В. Лексикология русского языка. - М. Высшая школа, 1982.
5. Кириллина Н.В. Оксюморонные образования как способ репрезентации оппозиции добро - зло в поэтическом языке А.А. Ахматовой // Сборник трудов конференции по социально-экономическим и правовым проблемам. Вып. 5. - Подольск: ПИ МГОУ (открытый), 2010. - С. 161-168
6. Kirillina N.V. A.A. tilidagi antonimik munosabatlar. Axmatova yaxshi-yomon qarama-qarshiligini ifodalash usuli sifatida // So'z semantikasi va matn semantikasi: ilmiy ishlar to'plami. Nashr. X. - M., MGOU nashriyoti, 2010. -S. 17-21.
7. Kirillina N.V. Badiiy matndagi sinonimik munosabatlar // Til va nutqda ratsional va emotsionallik: sub'ektivlik, ekspressivlik, emotsionallik: Universitetlararo ilmiy maqolalar to'plami. - M.: MGOU, 2009. - S. 128-132.
8. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Yaxshilik\\_va\\_yomonlik](https://uz.wikipedia.org/wiki/Yaxshilik_va_yomonlik)
9. <https://web.telegram.org/156e7ea2-050b-48e8-a04b-94af61e09e90>



UDK:811.2

*Mo'tabar QO'LDOSHOVA,*  
*O'zbekiston milliy universiteti tayanch doktoranti*  
*E-mail:mutabar@gmail.com*

*O'zDJTU dosenti P.Nishonov taqrizi asosida*

## O'ZLASHGAN SO'ZLAR VA ULARNING TADQIQI TO'G'RSIDA AYRIM MULOHAZALAR

Annotatsiya

Mazkur maqolada o'zlashma so'zlarning inson ma'naviy qiyofasini shakllantirishdagi o'rni tadqiq etiladi hamda boshqa tillardan o'zlashgan so'zlarning etimologik kelib chiqishini o'rganishda duch kelinayotgan tilshunoslik muammolari o'rganiladi. Shuningdek, soha olimlari tomonidan boshqa tillardan o'zlashgan leksemalarning morfologik, semantik va leksik jihatdan kelib chiqish tarixi haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Etimologik lug'atlar, o'zlashma so'zlar, ensiklopedik metod, gibrid til .

## НЕКОТОРЫЕ СООБРАЖЕНИЯ О ПРИНЯТЫХ СЛОВАХ И ИХ ИЗУЧЕНИИ

Аннотация

В данной статье рассматривается роль принятых слов в формировании духовного образа человека, а также лингвистические проблемы, возникающие при изучении этимологического происхождения слов, заимствованных из других языков. Также учёными данной области обсуждается история морфологического, семантического и лексического происхождения лексем, заимствованных из других языков.

**Ключевые слова:** Этимологические словари, заимствованные слова, энциклопедический метод, гибридный язык.

## SOME CONSIDERATIONS ON ACCEPTED WORDS AND THEIR STUDY

Annotation

This article examines the role of accepted words in the formation of a person's spiritual image, as well as the linguistic problems encountered in the study of the etymological origin of words borrowed from other languages. Also, the history of morphological, semantic and lexical origin of lexemes accepted from other languages is discussed by the scientists of the field.

**Key words:** Etymological dictionaries, borrowed words, encyclopedic method, hybrid language.

**Kirish.** So'nggi yillarda mamlakatimizdagi iqtisodiy taraqqiyot bilan birgalikda xalqimizning ma'naviy va madaniy salohiyatini ham yuqori darajaga ko'tarishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jamiyatimizdagi turmush tarzini to'g'ri yo'lga qo'yishda, insonlar o'rtasidagi mehr-oqibat, o'zaro hurmatni mustahkamlashda, yoshlarda risoladagi xulq-atvorni shakllantirishda ma'naviyat va madaniyat muhim o'rin egallaydi. Shu o'rinda aytib o'tish joizki, nutqiy tafakkurning teranligi, har bir so'zni to'g'ri ang'lay bilib, uni o'z o'rnida, mohiyatan o'zgartirmay qo'llay bilish ham ma'naviyat masalalariga kiradi, albatta. Chunki biz nutqimizda qo'llayotgan har bir so'z o'z ma'nosiga va albatta kelib chiqish tarixiga egadir. Ularni yetarli darajada bilishimiz nutqimizning faolligini hamda to'la – to'kisligini yanada yaxshiroq ta'minlab beradi. Buning uchun turli asarlar, ilmiy-ommabop nashrlar, olimlarning fikrlarini tez-tez o'qib turish lozim. Biroq kitobxon biror so'zning ma'nosini to'liq bilish uchun, avvalambor, etimologik va izohli lug'atlarga murojaat qiladi.

Etimologik lug'atlar xususida so'z yuritar ekanmiz, dastavval, "etimologiyani" o'zi nima ekanligini anglash lozim. "ETIMOLOGIYA" (yun. haqiqat; so'zning haqiqiy ma'nosi va...logiya):

1) so'z va morfemalarning kelib chiqishini o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi;

2) so'zning kelib chiqishini aniqlashga qaratilgan tadqiqot usullari majmui;

3) so'zning kelib chiqishi.

XIX asr tilshunosligida «Etimologiya» termini «grammatika» ma'nosida ham qo'llangan. Tilshunoslik bo'limi hisoblangan etimologiyani asosiy vazifasi qadimiy

manbalarni hamda til lug'at tarkibining shakllanish jarayonini va uning dastlabki, qadimiy holatini tiklashdan iborat [16].

Etimologiya tilshunoslikning juda qadimiy soha bo'lib, eramizdan avvalgi filosof va filologlar ham so'zlarning dastlabki kelib chiqish tarixi bilan shug'ullanganlar. "Etimologiya" termini qadimiy Rumo olimlari Xrizipp va Varron nomlari bilan bog'liq ekanligi ehtimol qilinadi. So'zlarning haqiqiy va birinchi asl ma'nolari hamda shakllari til tarixi, boshqa tillar va dialektlardagi shu so'z to'g'ri kelgan o'zakka ega bo'lgan so'zlar bilan qiyoslash asosida aniqlanadi. Bunda so'zlarning avvalgi ma'nosi va formalari chuqur o'rganiladi. So'zlarning kelib chiqish tarixi, arxeologiya, geografiya, antropologiya, madaniyat va san'at kabi qator fanlar yordamida aniqlanadi. So'zlarning kelib chiqish tarixini o'rganish tamoyillari va metodlari ancha murakkab bo'lib ularni aniqlash uchun boshqa fanlarga murojaat etishni taqozo etadi. "Etimologiya" termini tilshunoslikda ikki ma'noda ishlatiladi: Leksikologiyani ma'lum tilda so'zlarning kelib chiqish tarixini o'rganuvchi soha ma'nosida hamda biror so'zning birinchi asl ma'nosi va shakli ma'nosida.

Yangi so'zning kelib chiqishini aniqlash oson, lekin eski so'zning qachon paydo bo'lgani va qaysi tildan yoki shevadan olinganini bilish ancha qiyin. Biror so'zning kelib chiqishini aniqlashda shu so'z qardosh tillardagi so'zlarning tovush strukturasi va ma'nolari bilan qiyoslanadi. Biroq doim ham shunday ilmiy izlanish aniq natijaga olib kelavermaydi. Chunki ba'zan so'zlarning tashqi formasi, ya'ni tovush sostavi bir – biriga yaqin bo'lsa ham ularning ma'nolari turlicha bo'ladi [1].

Demak, bunday holatlarda shu kabi lug'atlarning ahamiyati katta desak yanqlishmagan bo'lamiz. Shu o'rinda

tabiiy savol tug'iladi: etimologik hamda izohli lug'atlarimiz yetarli darajada ta'minlanganmi, lug'atlarda o'zlashma so'zlarning barchasi aks etganmi va ular to'g'risida ma'lumotlar to'liq aks etganmi? Ushbu savolga javobni ilmiy tadqiqotlar misolida ochib berishga harakat qilamiz.

To'g'risini aytganda, etimologik lug'atlarni tuzish ancha murakkab jarayon bo'lib, katta ma'suliyat va yuqori malakani talab etadi. Ayniqsa, uning elektron variantini tayyorlash juda murakkabdir. Biroq asarlarni tahlil qilishda doimo bizga so'zning to'liq, tez topa olish mumkin bo'lgan izohi va albatta kelib chiqish tarixi kerak bo'ladi. Shuning uchun ham chet tillaridan o'zbek tiliga kirib kelgan so'zlarning kelib chiqishi tarixi va ularning lug'atlarda o'rganilish darajasini bilish o'zbek tili etimologiyasida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Til lug'at boyligining o'zlashma so'zlar hisobidan boyib borish masalasi bir necha yillardan buyon lingvistlarning tadqiqot obyekti bo'lgan. Fransuz olimlaridan A.Martin, O.Sovajo, F.Bryuno, M.Breal, L.Senean, rus olimlaridan A.P.Beleskiy, I.K.Belodeda, Ye.M.Vereshagina, Yu.D.Desherieva, A.Jluktenko, A.A.Reformatskiy, L.V.Sherbalar bu sohada ko'plab tadqiqotlar olib borganlar. Masalan, o'zlashma so'zlarning etimologik tadqiq doirasida ish olib borgan S.A.Gulomaseynov ingliz va tojik tilidagi materiallar asosida adabiy terminlarni tahlil qiladi [2]. Olim ingliz va tojik tillardagi adabiy terminlarni struktura va semantik jihatdan tahlil qilish va ularni etimologik kelib chiqishini o'rganadi, shuningdek, ensiklopedik metod yordamida lug'atlarda berilgan o'zlashma so'zlarning sharhi, kelib chiqish tarixi va qo'llanilish doirasi borasida batafsil ma'lumotlar beradi. Shuningdek, u ingliz va tojik tillardagi lug'atlarning mikro va makro strukturasi ham aniqlashga harakat qiladi. Tadqiqotda asosan, ingliz, rus va tojik olimlari V.V.Vinogradov, V.P.Danilenki, D.S.Lotte, A.Ya.Shaykeevich, S.V.Grinev, S.V.Grineva-Grinevich, I.A.Degtyarev, M.Grey, K.Boldvik, P.Childz, U.Toir, S.Nazarzade, X.Jurev, M.Komilov, L.M.Mamadnazorovlarning nazariyalariga tayanadi. Olim o'z tadqiqoti doirasida tojik tilidagi o'zlashmalarining etimologik tadqiqi natijasida adabiyotshunoslik yo'nalishidagi terminlarning aksariyati tojik tilidan, ikkinchi o'rinda arab tilidan va uchinchi grek tili va lotin tilidan o'zlashgan terminlar tashkil qilishini guruhlariga ajratib asoslab bergan. Ingliz tilidagi adabiyotshunoslik yo'nalishidagi terminlarning etimologik-semantik tadqiqi esa mazkur yo'nalishdagi terminlar ingliz tiliga asosan grek tili ikkinchi o'rinda ingliz tili va uchinchi o'rinda esa fransuz o'zlashmalari tashkil qilishini ko'rsatib o'tgan.

Fransuz o'zlashmalarining etimologik tadqiq borasida tadqiqot olib borgan Yusifov El'xan Gasham nemis tili lug'atlaridan joy olgan fransuz o'zlashmalarining nemis tiliga kirib borish jarayonini insoning jamiyat rivojiga ta'siri natijasida sodir bo'lishini ta'kidlaydi [4]. U boshqa olimlar fikriga qo'shilgan holda til biror bir boshqa tildan o'zlashmalarni qabul qilmay o'z qatlami doirasida boyimasligini yoqlaydi. Nemis tiliga kirib kelgan o'zlashmalarining etimologik muammolarini o'rganar ekan u nemis tiliga lotin, fransuz, ingliz, italyan, fors, turk, arab va boshqa tillardan o'zlashgan so'zlarning tarixiy-etimologik tadqiqi to'liq va chuqur o'rganilmaganligini ta'kidlaydi[4]. U nemis tiliga kirib kelgan fransuz o'zlashmalarining tarixini o'rganar ekan, asosan fransuz o'zlashmalari asosan XI-XII, "XVII-XVIII, XVIII-XIX asrlarda fransuzlar bilan yaqin aloqalar natijasida kirib kelganligini aytib o'tadi va o'zlashishning tarixiy bosqichlari borasida tadqiqot olib borgan A.N.Mayorov [5] va L.M.Ribakovalarning [6] tadqiqotlariga tayanadi. Mazkur tadqiqotlarda nemis tiliga fransuz tilidan kirib kelgan so'zlar asosan, Fransiya qirolligi, qirolik saroyi madaniyati, qirolik adabiyoti, qirolik

aristokratiyasining o'ziga xosligi va yuqori oshpazlik mahorati G'arbiy Yevropada o'rta asr feodalizmining namunasi hisoblanganligi bilan xarakterlangan. Masalan fransuz tilidagi quyidagi so'zlar nemis tiliga o'zlashgan: blond – franc. blond; fein – franz. fin; manier– franz.maniere; palast–franz.palais; pavillon–franz.pavillon; forme–franz. forme [7].

Shunday qilib, o'zlashgan so'zlar har bir til lug'atidan joy olgan bo'lib, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy taraqqiyot natijasida yuzaga kelgan hodisa ekanligi bilan harakterlanadi.

To'yichiboy Djumaevning fransuz tiliga fors tildan o'zlashgan so'zlarning leksik, semantik va grammatik tadqiqida fors o'zlashmalarining fransuz tilidagi semantik, fonetik, grammatik, sintagmatik jihatlarini o'rganilgan. Dissertatsiya uchun tahlilga tortilgan matnlar asosan, fors tilidagi badiiy asarlarning fransuz tiliga tarjima qilingan asarlardan olingan kontekstlar tahlil qilingan.

Olim fors o'zlashmalarining fransuz leksikasida tutgan o'rni va o'zlashish jarayonini o'rganar ekan, u asosan Ye.V.Opel'bauma klassifikatsiyasiga asoslangan holda tadqiqot olib boradi, ya'ni o'zlashmalarining til lug'atlariga kirish jarayonida asosan funksional va formal elementlari hisobga olinadi, degan ilmiy xulosaga tayanadi.

T.B.Djumaev fransuz tiliga o'zlashgan fors o'zlashmalarini quyidagi guruhlariga ajratadi:

1) fors o'zlashmalarining assimilyasiya sababali fransuz tili leksikasida farq qilmaydigan o'zlashmalar aloe, sabur, (sok aloe), Babouche s.f. – orqasi ochiq, kabluksiz oyoq kiyim, balcon s.m. – balkon... Bunday leksika 87 tani tashkil qilgan;

2) qisman assimilyasiyaga uchragan fors leksikasi: bazar s.m. – arzon buyum bozori, caravan-s.m. transport, carvan serail s.m.,- karvon saroy Sharqdagi doimiy hovli, divan shu kabi 26 ta leksika o'zlashgani aniqlangan [8].

Mazkur tadqiqotda fors o'zlashmalarining fransuz tiliga o'zlashish jarayonini fonemografik, sintagmatik, morfologik, so'z yasash, semantik jarayonlar asosida o'zlashganligi asoslab beriladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ma'lumki, til lug'at tarkibining boyishi uch xil omilga asoslangan, ya'ni morfologik, semantik usul va so'z o'zlashtirish. So'z o'zlashish jarayon jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq hodisa hisoblanib biror bir tushuncha yoki narsaga jamiyatni ehtiyoj bo'lgandagina u tilimizga kirib keladi. Ammo shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, hamma o'zlashmalar ham lug'atimizga boqiy o'zlashib qolmaydi, ba'zilari umumiste'molga qarab yo chiqib ketadi yoki faol qo'llaniladi. Har qanday til jamiyat hayoti bilan uzviy bog'liqdir, shuning uchun tilni chet tilidan o'zlashgan so'larsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. O'zlashma so'zlar har qanday tilni rivojlanishi va lug'at boyligini oshishiga olib keladi. Barcha tarixiy voqealar va o'zgarishlar u yoki bu tarzda tilda aks etadi. Savdo aloqalari, fathlar, sayohatlar, moda, siyosat - bularning barchasi tillarning muqarrar o'zaro ta'siriga olib keladi va ularning til zahirasiga ta'sir qiladi. O'zlashish jarayoni turlicha bo'lishi mumkin va tarixiy sharoitga qarab turli davrlarlarda turlicha kechadi. Aksariyat hollarda o'zaro ta'sir qiluvchi tillarning yaqinligiga bog'liq, bir-biriga yaqin tillar turli til oilalariga mansub tillarga qaraganda bir-biriga ko'proq ta'sir qiladi[9].

Tillarning o'zaro ta'siri va o'zaro boyitish muammosi zamonaviy tilshunoslik tomonidan ilgari surilgan va klassik falsafiy konsepsiyadan kelib chiqadigan umumiy tilshunoslik muammolaridan biri bo'lib, unga ko'ra har bir xalq inson faoliyatining barcha sohalarini rivojlantirishga o'z hissasini qo'shadi.

Har bir til o'zlashgan so'zlar hisobidan ham boyib borishi muqarrar va ularning miqdori har bir tilda turlicha bo'ladi yani ba'zi tillarda ularning miqdori ko'p bo'lsa, ba'zi tillarda aksincha kam bo'lishi mumkin. Masalan, ingliz tilida

mavjud o'zlashmalar tadqiqi ustida ish olib borgan olimlar fikriga ko'ra ingliz tilidagi 70% so'zlar o'zlashgan so'zlar, qolgan esa mahalliy so'zlardir. Bu esa tabiiy ravishda so'zlarning kirib kelishidagi etimologik jarayonni o'rganishni taqozo etadi[10].

**Tahlil va natijalar.** O'zbek tilshunoslari ham o'zlashma so'zlar tadqiqi bilan shug'ullanganlar va ular o'z tadqiqotlarida o'zbek tiliga kirib kelgan so'zlarning etimologik jarayonini ochib berishga harakat qilganlar. D.A.Shomurodova o'zbek tiliga o'zlashgan so'zlar tadqiq borasida izlanar ekan, olima so'zlarning o'zlashish jarayoni turli xil davrlarda tarixiy voqealar sababli o'zbek tiliga kirib kelganligini tahlil qiladi. U o'zbek tiliga arab tilidan o'zlashgan so'zlar, fors-tojik tilidan o'zlashgan so'zlar va rus baynalminal o'zlashmalarini o'zlashishi va singib ketishini ko'rsatib o'tadi. Ma'lumki, VII -VIII asrlarda arab istilosi davrida barcha hujjatlar, yozishmalar arab tilida olib borilgan va bu esa tilimizga arab o'zlashmalarining kirib kelishiga sabab bo'lgan. Shuningdek, aholining ham arab tilini o'rganishi esa og'zaki va yozma nutqlarida arab o'zlashmalarini muntazam qo'llashlariga olib kelgan va bugungi kunga qadar arab tilidagi viloyat, hokimiyat, millat kabi o'zlashmalar tilimizga mustahkam o'rin egallagan.

Tojik tilidagi o'zlashmalarining o'zbek tiliga kirib kelishi ikki xalq o'rtasidagi asosan adabiy aloqalarga borib taqaladi[11]. Ma'lumki, mashhur adabiyot namoyondalari ikki tilda ya'ni o'zbek va tojik tilida ijod qilganlar. Ayniqsa, Alisher Navoiy asarlarida tojik tilidagi iboralar ko'pligi ham tojik tilidagi o'zlashmalarining o'zbek tiliga kirib kelishi bilan izohlanadi. Masalan, xona, firibgar, mozor, chashma, bechora, mast, sargashta kabilar. Bu borada Dilbar Shomurodova "o'zbek adabiy tili lug'at tarkibini tojikcha-forscha-arabcha, ruscha-evropacha, xitoycha o'zlashgan so'zlarga boyligi tilimizning lug'aviy boy va murakkab jarayonni bosib o'tganligidan dalolatdir." Haqiqatdan ham bugungi kunda nafaqat sharq tillari balki g'arb tillaridan fransuz, ingliz, nemis, italyan, ispan va boshqa tillardan ham so'zlarning o'zlashish jarayoni uzluksiz davom etib kelmoqda. Bu albatta, flora va fauna, kasb-kor, medesina, texnika va boshqa sohadagi terminlarning kirib kelishi va sohalardagi uzluksiz rivojlanish bilan izohlanadi. Zero, A.V.Superenskayaning ta'kidlaganidek, "So'z o'zlashtirish jarayoni turli millat va elatning og'zaki va yozma nutqining yorqin namunasidir. Shu sababli har bir tilda o'zlashma so'zlarning ma'lum miqdori kirib kelishi tabiiy hodisa. Ayrim xalqlarning puristik g'oyalari qanchalik kuchli bo'lmasin biroq birorta bir til o'zicha rivojlanmaydi va o'zlashma so'zlardan istisno bo'lmaydi. Har bir tilning o'zlashma so'zlar bilan boyligi, albatta bu til sohiblarining boshqa xalqlar bilan o'zaro aloqasi va munosabatidan dalolat beradi" [11].

Qo'ziev Umidjonning "O'zbek tilidagi izohli lug'atlarda o'zlashma so'zlar tahlili" nomli monografiyasi mazkur sohadagi yaxlit tadqiqot hisoblanadi. Olim mazkur tadqiqotda o'zbek lug'atshunosligi taraqqiyot yo'nalishlari, bosqichlari, lug'atlarda o'zlashma so'zlar va ularning asiyat bilan semik muvofiqligi, tasnifi kabi masalalarni o'rganadi. Shuningdek, o'zlashma sosiolekt, diniy tushunchalarni izohlovchi leksemalar hamda Navoiy asarlari asosida yaratilgan lug'atlar borasida ham fikr yuritadi.

Ingliz tilini rivojida o'zlashgan so'zlarning tadqiq borasida Go'zal Jumanova tadqiqot olib borar ekan, u ba'zi olimlarning ingliz tili o'zligini yo'qotgan "gibrid til"[13] degan fikrlarini rad etgan holda ingliz tilida o'zlashgan so'zlar miqdori ko'pligiga qarabmasda u o'ziga xosligi jihatidan german guruhi tili sifatida saqlanib qolganligini hamda o'zlashma so'zlar ingliz tili lug'at boyligini oshishiga xizmat qilganligini va bu til yetakchi xalqaro mulqot va ilm-fan til sifatida namoyon bo'layotganligini ta'kidlaydi [14].

Haqiqatdan ham, ingliz tilida o'zlashmalar haqida fikr bildirmoqchi bo'lsak u alohida rol o'ynaydi, bu zamonaviy ingliz tilining so'z boyligining 70 foizini tashkil qiladi. Ingliz tilining so'z boyligini to'ldirishning asosiy manbalari skandinaviya, lotin va fransuz tillari hisoblanadi. Albatta, golland, italyan, ispan, portugal kabi bir qator yevropa tillari ham ingliz tilining leksik zahirasi shakllantirishga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Ilmiy-texnika taraqqiyotining rivojlanishi, Angliya davrida iqtisodiy, madaniy va ilmiy aloqalarning kengayishi bilan texnik va ilmiy terminologiyani anglatuvchi yangi o'zlashmalar paydo bo'ldi. Ushbu atamalarining aksariyati fransuz va lotin tilidagi so'zlardan iborat. Yuqorida aytib o'tilganidek, o'zlashma so'zlar ko'plab tovush o'zgarishlariga uchragan va ingliz tili lug'atiga mustahkam o'rnatilgan.

Yuqorida aytilganlardan ko'rinib turibdiki, ingliz tili o'z lug'atini sezilarli darajada boyitgan. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, bir tilning boshqa tilga kuchli va uzoq davom etgan ta'siri o'zlashma tilning qiyofasini o'zgartirishi mumkin[15].

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, fransuz tilining ingliz tiliga eng katta ta'siri Angliyada Normand hukmronligining o'rnatilishi bilan bog'liq. So'zlarni keyingi o'zlashish jarayoni ijtimoiy va madaniy sabablarga ko'ra sodir bo'ldi, ya'ni yangi tushunchalar, uy-ro'zg'or buyumlari va boshqalar paydo bo'lishi tufayli. Hozirgi vaqtda ingliz va fransuz tillarini xalqaro tillar deb atash mumkin, chunki ular dunyoning ko'plab boshqa tillarida sezilarli iz qoldirgan va ularning o'zaro ta'siri madaniy, iqtisodiy va siyosiy integratsiya natijasidir.

#### ADABIYOTLAR

1. Sodiqov A., Abduazizov A., Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent, 1981. – B.110.
2. Gulomaseynov S.A. Sravnitel'niy etimologicheskii i leksikograficheskii analiz literaturovedcheskix terminov v angliyskom i tadjikskom yazikax. Diss.kand.filol.nauk. – Dushanbe, 2023
3. Yusifov E.G. Fransuzskoe zaimstvovanie i yego rol' v razviti i obogashenie slovarnogo sostava nemesskogo yazika. Filologicheskie nauki. 2020
4. Yusifov E.G. Fransuzskoe zaimstvovanie i yego rol' v razviti i obogao'enie slovarnogo sostava nemesskogo yazika. Filologicheskie nauki. 2020.
5. Mayorov A.N. Zaimstvovaniya v leksiko-semanticheskoy sistem yazikov (na materiale anglo-amerikanskoy v sovremenom nemekomu yazike FRG i GDR) Avtoref.kand.filol...nauk. M., 1967.
6. Ribakova L.M. Romanskoe zaimstvovanie v leksiko-semanticheskoy sisteme nemesskogo yazika. Avtoref.diss...kand.filol.nauk. – Moskva, 1967.
7. Yusifov E.G. Fransuzskoe zaimstvovanie i yego rol' v razviti i obogao'enie slovarnogo sostava nemesskogo yazika. Filologicheskie nauki. 2020.
8. Djumaev T.B. Persidskie zaimstvovaniya vo fransuzskom yazike (leksiko-semanticheskii i grammaticheskii analiz). Avtoref.diss...kand.filol.nauk. – Dushanbe, 2018.
9. Djumaev T.B. Persidskie zaimstvovaniya vo fransuzskom yazike (leksiko-semanticheskii i grammaticheskii analiz). Avtoref.diss...kand.filol.nauk. – Dushanbe, 2018. –S.14

10. Tashmatov A.T. Nekotorye teoriticheskie voprosy jazykovyh zaimstvovaniej//Problemy Nauki.2016.32(74).S. 87-90. URL: <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=27253261>
11. Shomuratova D.A. O'zbek tilga o'zlashgan so'zlar tarixidan. Fan, ta'lim va amaliyot integratsiyasi. G' – Toshkent, 2022. – 129-133b.
12. Shomuratova D.A. O'zbek tilga o'zlashgan so'zlar tarixidan. Fan, ta'lim va amaliyot integratsiyasi. G' – Toshkent, 2022. – 133b.
13. Superenskaya A.V. Zaimstvovanie slov i prakticheskaya transkripsiya. –Moskva, 1962. –S.17.
14. Qo'z'iev U.Ya. O'zbek tili izohli lug'atlarida o'zlashma so'zlar tahlili. –Namangan, 2016. –168b.
15. Jumanova G.A. Ingliz tili rivojida o'zlashgan so'zlarning o'rni. Academic Research in Educational Science. Volume 2/Issue2/2021/ – P.1408.
16. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-e/etimologiya-uz/>



UDK:004.1:05/07

Yelena MIRZAYEVA,

O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi «Dunyo bo‘ylab» telekanali bosh muharriri,

O‘zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti erkin tadqiqotchisi (PhD)

E-mail: lenatv77@mail.ru

O‘zJOKU dotsenti, PhD S.Shamaksudova taqrizi ostida

### MENTAL FEATURES OF INTERACTION BETWEEN THE UZBEK TV PRESENTER AND THE AUDIENCE

Annotation

This article is devoted to the analysis of the image of a modern TV presenter on Uzbek television and his interaction with the audience. The creative image of the presenter is built in the inseparable connection of his image, behavior and mentality and communication with the television audience. As a result of the research, the author comes to the conclusions: the mentality of a TV presenter today is "the way of thinking, the general spiritual mood of a person, a group. The modern audience is also subject to trends and changes associated with the reassessment of information values and new needs and interests, which, in turn, entails a new nature of establishing feedback.

**Key words:** Audience, image, communicator, mentality, rating, TV presenter, television.

### МЕНТАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ УЗБЕКСКОГО ТЕЛЕВЕДУЩЕГО И АУДИТОРИИ

Аннотация

Данная статья посвящена анализу образа современного телеведущего на узбекском телевидении и его взаимодействия с аудиторией. Творческий имидж ведущего выстраивается в неразрывной связи его образа, поведения и ментальности, также коммуникации с телевизионной аудиторией. В результате исследования автор приходит к выводам: ментальность телеведущего сегодня это «образ мышления, общая духовная настроенность человека, группы. Современная зрительская аудитория также подвержена веяниям и изменениям, связанным с переоценкой информационных ценностей, новыми потребностями и интересами, что, в свою очередь, влечет за собой новый характер налаживания обратной связи.

**Ключевые слова:** Аудитория, имидж, коммуникатор, ментальность, рейтинг, телеведущий, телевидение.

### O‘ZBEK TELEBOSHLOVCHISI VA AUDITORIYASI O‘ZARO TA‘SIRINING MENTAL XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqola O‘zbekiston televideniyesidagi zamonaviy teleboshlovchi obrazi va uning tomoshabinlar bilan o‘zaro munosabatlarini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Boshlovchining ijodiy imiji uning qiyofasi, xulq-atvori va mentaliteti hamda televideniy auditoriya bilan kommunikatsiyasi bilan chambarchas bog‘liklikda yaratiladi. Tadqiqot natijasida quyidagi xulosaga kelindi: bugungi kunda teleboshlovchining mentaliteti bu insonning, guruhning fikrlash tarzi, umumiy ma‘naviy kayfiyati. Zamonaviy tomoshabin auditoriyasi shuningdek axboriy qadriyatlarini, yangi ehtiyojlar va qiziqishlarni qayta baholash bilan bog‘liq tendensiyalar va o‘zgarishlarga duch keladi, bu esa, o‘z navbatida, teskari aloqani o‘rnatishning yangi tabiatini keltirib chiqaradi.

**Kalit so‘zlar:** Auditoriya, imij, kommunikator, mentalitet, reyting, teleboshlovchi, televideniye.

**Kirish.** Bugungi teleauditoriya zamonaviy mediatizim faoliyatining asosiy qismidir. U yoki bu teledasturda va hatto kanalda qancha tomoshabin borligidan kelib chiqib, nafaqat boshlovchining mashhurligi, balki telekanalga tashqaridan keladigan pulli reklama oqimlari miqdori ham belgilanadi. Sog‘lom raqobat sharoitida tomoshabin bugungi kunda xuddi bir vaqtlar teatr yo‘q bo‘lib, o‘rni kino bilan almashinadi, deguvchilar davridagi kabi TV muxlislariga va TVning yaqinda sodir bo‘ladigan tanazzulini bashorat qiladiganlarga va Internet axborot resurlariga shon-sharaflar aytguvchilariga bo‘linadi. Tarixiy tajriba shuni ko‘rsatmoqdaki, bugungi kunda teatr ham, kino ham bir makonda tinch-totuv mavjud. Xuddi shunday tarzda, televideniye ham, Internet ham o‘z tomoshabinlariga, o‘z auditoriyasiga ega. Hech kimga sir emaski, Internet muxlislarining auditoriyasi yoshroq, ammo an‘anaviy televideniye e‘tibor qaratuvchi tomoshabinlar hali ham labilroq, chunki faqat Internetni afzal ko‘rgan yoshlardan farqli o‘laroq, ular butunjahon Internet tarmog‘idan foydalanish tajribasiga egalar. Yoshlar esa, anchadan beri shakllangan televideniye dan tobora uzoqlashmoqdalar.

O‘zbekistonda va xorijda ko‘plab ilmiy ishlar telejurnalistika va telekommunikatsiyalar nazariyasiga bag‘ishlangan. Ammo jamiyatda va mediamuhitda sodir

bo‘layotgan dinamik evolyutsiyaviy va transformatsiyaviy jarayonlar sharoitida teleboshlovchining zamonaviy o‘zbek televideniyesi auditoriyasi bilan samarali o‘zaro ta‘sirining mental xususiyatlarini hisobga olgan holda televideniy mahsulot xususiyatlarini chuqur tahlil qilish alohida dolzarblik kasb etmoqda va bu mazkur muammo yetarlicha o‘rganilmaganligi bilan tavsiflanadi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Tomoshabinlar tomonidan ekran asarlarining idrok etilishini inobatga olgan holda umuman ekran madaniyatini va xususan televideniye ning o‘ziga xosligini tahlil qilish negizida mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar – X.I. Akbarov, Sh.T. Qudratxo‘ja, N.S. Kasimova, Y.A. Artikova, K.Z. Akopyan, R. Arnxeym, A.S. Vartanov, YE.L. Vartanova, Y.P. Budansev, P. Burdye, YE.Y. Dugin, M. Maklyuen, V.V. Vinogradov, S.M. Gurevich, N.B. Kirillova, K.E. Razlogov, S.L. Urazova, V.L. Svik, V.A. Shkuratov, V.S. Sappak, S.A. Muratov, YE.V. Pobereznikov va boshqa tadqiqotchilarning ilmiy ishlari tahlilga tortildi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ilmiy ishda qo‘yilgan vazifalarni hal qilish uchun quyidagi usullardan foydalanildi: nazariy adabiyotlarning tahlili, mahalliy jurnalistlarning televideniy nutqini shakllantirish omillarini aniqlash nuqtai

nazaridan qiyosiy baholash usuli, turli omillar ta'sirida televizion nutqni o'zgartirish jarayonini kuzatish, miqdoriy va sifatli kontent-tahlil, shuningdek qiyoslash usullari.

**Tahlil va natijalar.** TVda ham, Internetda ham tomoshabinlar qiziqishlarining qanday bo'lishidan qat'iy nazar, tomoshabinlar har qanday kommunikatsiya kontentining eng muhim tarkibiy qismi bo'lib qolmoqda. Va agar Internet o'z tomoshabinlariga real vaqt rejimida axborot jarayonining ishtirokchisi bo'lish uchun noyob imkoniyatni, shuningdek, munozaralar va forumlarning turli formatlarini taklif qilsa, televideniye, o'z navbatida, ham teskari aloqa o'rnatish bilan, ham turli realiti-showlar bilan o'ziga jalb qila oladi, shuningdek, studiyadagi tomoshabinlar bilan oddiy muloqotdan tortib, aloqaning zamonaviy texnologik yangiliklari yordamida masofaviy o'zaro ta'sir qilish orqali qiziqitira oladi.

Hech kimga sir emaski, bugungi kunda butun dunyoda, shu jumladan O'zbekistonda ham juda ko'p ixtisoslashgan ko'p yo'nalisli telekanallar mavjud bo'lib, ularning har biri uzatish formatidan kelib chiqib, o'z auditoriyasiga ega. Ma'lumki, format televizion dasturlarning umumiy xususiyatlari va tavsiflarini kanal efir vaqtining har bir muayyan daqiqasida maqsadli auditoriyaning e'tiborini jalb qilish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha kanal strategiyasi bilan o'zaro bog'liklikda belgilaydi. Shu bilan birga, dasturning janri unchalik muhim emas, balki u kanal formatining mohiyatini qanchalik aks ettirishi ahamiyatliroq. Va bu yerda biz K.A. SHERGOVNING «axborotning kaleydoskopik «oqimi» ichida janriy farqlarining ahamiyati umuman olganda pasayadi – telekanalga aloqadorlik, «format»ga muvofiqlik belgilariga nisbatan janriy farqlarning ahamiyati pasayadi, degan fikriga e'tiborni qaratmoqchimiz [10]. Bu, o'z navbatida, bitta format doirasida auditoriya bilan o'zaro ta'sirning turli xil shakllarini keltirib chiqaradi.

O'zbekiston televideniyesining taraqqiyoti hozirgacha konservativ rivojlanish doirasida qolmoqda. Ha, bizda teleauditoriya jalb qilingan turli xil tok-showlar mavjud. Ammo, aksariyat hollarda, tomoshabinlar munozarada bevosita ishtirok etmaydigan sukunat saqlovchilar bo'lib qolmoqda. Bu auditoriya faqat jimgina olqishlaydi va «surat»deb nomlanuvchi umumiy manzarani yaratadi. Shu bilan birga, shaxsiy fikrni ifodalovchi javoblar, munosabatlar, tomoshabinlardan kelgan savollar uchramaydi, chunki dasturlar konsepsiyasiga tomoshabin auditoriyaning dialog kommunikatsiyasida teng ma'noda ishtirok etishi kiritilmagan. Albatta, istisnolar ham mavjud, masalan, «O'zbekiston 24» telekanalidagi «Xalqaro press-klub». Ammo aksariyat hollarda teleauditoriyaning tok-showlarda ishtirok etish amaliyoti, afsuski, nolga teng. Va bu televideniye va televizion auditoriya o'rtasidagi zamonaviy o'zaro munosabatlarning katta muammolaridan biridir.

«Yangi modelning – tomoshabinlarning ishonchi va qiziqishini ishlab chiqishning muqarrar zarurati vaqti keldi. Hatto shu yillar davomida samarali ishlagan, auditoriyaning asosiy qismining yuragidan o'rin olib, muvaffaqiyat qozongan dasturlar va janrlar ham endi mashhurlikni yo'qotmoqda. Va biz yangi tahdid tarixi ostonasida turibmiz. Agar biz unga qarshilik ko'rsata olmasak, televideniye urfdan qolgan, so'nib borayotgan yangi medialar tomonidan yanada faol siqib chiqariladigan kommunikatsiya usuliga aylanadi.» [12]

OAV va auditoriyaning o'zaro ta'siri bir nechta tarkibiy qismlar tufayli murakkab aloqa tizimidir. Tomoshabinlarning har biri boshqasidan farq qiladi, hamma kommunikatsiyaning turli xiliga sozlangan, har kimning o'z tafakkuri va dunyoqarashi, qarashlari va pozitsiyasi mavjud; teledasturlarni ishlab chiqish jarayonida ishtirok etuvchi ijodiy jamoalar bir xil emas. Shunga qaramay, boshlovchi, rejissor, muharrir, operatorlar belgilangan qoliplar bo'yicha bir xil fikrlamaydi va harakat qilmaydi, aksincha, har bir muayyan

vaqtda ulardan nima talab qilinishi haqida o'zlarining shaxsiy tasavvurlariga va auditoriya haqidagi o'z fikrlariga egalar; kanal konsepsiyasiga xos mafkurani saqlab qolishning va tijoriy tarkibiy qismning ham ahamiyati kam emas; boshlovchining roli jonli va o'zgaruvchan bo'lishi kerak, jurnalist nafaqat dastur formatiga, balki taklif etilgan auditoriyaga ham moslashishi lozim. «Notiqlik har doim uchta xususiyatga ega: tuyg'ularning kuchi, ishtirok qobiliyati va umumiy farovonlik istagi» [5]. Va boshlovchi, shubhasiz, o'z qadriyatlarini, qarashlari va mustaqil ijtimoiy mavqei bilan birinchi o'ringa chiqadi. Uning vazifasi shunchaki boshlovchi yoki chetdan kuzatuvchi bo'lish emas, balki dialogda yashash, auditoriya bilan ishlashdir. «Yashash - dialogda ishtirok etish demakdir: savol berish, tushunish, javob berish, rozi bo'lish va hokazo»[1]. Manzillilik ham xuddi shunday muhim, ya'ni boshlovchi har doim ma'lum muayyan auditoriyaga yo'nalgan bo'lishi, ya'ni dialoglar studiyadagi tomoshabinlarga, aholining turli qatlamlariga mos keluvchi ma'lum bir uslubda ishlab chiqilishi kerak. Shu bilan birga, muhokama ko'rib chiqilayotgan masala bo'yicha turli nuqtai nazarlarni o'z ichiga olishi kerak. Aks holda, «ko'p insonlarning fikrlari umumiy qabul qilingan (maqom)gacha tushib ketadi» [12].

Boshlovchining asosiy vazifasi suhbatning borishini nazorat qilish, tomoshabinlar va teletomoshibinlarni taranglikda ushlash, buni esa, yonma yon yuruvchi jurnalistik mahorat va artistiksiz amalga oshirishning imkoni yo'q. «Tomoshabinlarning aksariyati qabul qilish barcha kanallaridan olingan axborotni jamlab, xabarning ishonchligini yo'l-yo'lakay baholaydi - ular fikrlamasdan, haqiqat va yolg'onni «topishadi»» [2].

Teleboshlovchi va auditoriya o'rtasidagi o'zaro munosabatlar masalalarida jurnalistik nutq bilan bevosita bog'liq bo'lgan ikkita bir-biridan kelib chiqadigan jarayonni ta'kidlash mumkin. Bir tomondan, bu teleboshlovchi va tomoshabinlarning o'zaro bog'liq interfaol munosabatlari jarayoni, boshqa tomondan, bu boshlovchining teleauditoriyaga, uning ongiga, xulq-atvoriga, atrofda qilargalarga muayyan belgilangan vaqt kesimida asosiy topshiriqlarni beruvchi kommunikativ shaxs, mohir mutaxassis sifatida ta'siri. Aynan boshlovchi tomoshabinlarda muayyan qarashlar, g'oyalari, e'tiqodlari, qadriyatlar, axloqiy va ma'naviy ustuvorliklarni shakllantiradigan idrok muhitini yaratadi. Shunday qilib, bu ikki jarayon «ta'sir – tarkibiy qismlarning o'zaro ta'siri munosabatlarning yaxlit majmuasini» keltirib chiqaradi[7].

Televideniyaning oldida turgan vazifalar ham o'zgarimoqda. Bugungi kunda uning maqsadi, birinchi navbatda, tomoshabinlarga axborot-tashviqiy ta'sir etish, uning fikrini zamonaviy ijtimoiy strategiyalarga mos holda shakllantirish. Va bu vazifalarni amalga oshirishda teleboshlovchi asosiy rolni o'ynaydi. Aynan u auditoriyaning ham boshlovchi, ham tomoshabinlarning manfaatlariga javob beradigan barcha respondentlar uchun tushunarli bo'lgan ma'lum signallar va belgilar yordamida telekommunikatsiyaning barcha ishtirokchilariga boshlovchi tomondan uzatilgan axborotga asoslangan ijtimoiy jarayonlarni amalga oshirishga tayyorlik hissinu uyg'otishi kerak. Axir, «tomoshabin faqat yangiliklarning o'zini emas, balki ularni taqdim etish usulini tanlaydi. Bu kasbiy mahoratning o'sishi uchun rag'batdir» [10].

Boshlovchining kasbiy mahorati nafaqat uning kasbiy fazilatlarini va mahoratining aksidir, balki axborotni to'plash, uni tuzish va tomoshabinni o'ziga jalb qila oladigan darajada noodiyati, yorqin, qiziqarli uzatish usullarini topish, to'g'ri, o'tkir savollarni bera olish qobiliyati. «Faktlarni tanlash, suhbatdoshlarga eng dolzarb savollar, siyosatchilar bilan «cho'zilgan qo'l uzunligida» ishlash - bu haqiqiy professionallik hisoblanadi» [6]. Teleboshlovchi kim uchun va nima uchun u yoki bu dasturni tayyorlayotganini aniq

tushunishi kerak. «Malakalar, ko'nikmalar, mafkuraviy zaxiraga asoslangan «professionallik» tushunchasining yetakchi mezoni «mukammallik» tushunchasi bilan ta'riflanadi [8]. S.A. Muratov to'g'ri ta'riflaganidek, «publitsistik eshittirishlar ta'siri ostida auditoriyaning o'zi boshqacha bo'lib qoladi» [6].

Shubhasiz, har bir teleboshlovchi uchun uning timsolining imij, reyting, mashhurlik, e'tirof kabi tarkibiy qismlari muhim. Ammo bugungi kunda uning tomoshabinlar bilan kontakt o'rnatish, tomoshabinlardan javob olish, ishonchini qozonish, qiziqishlarini ushlab qolish qobiliyatlari ham kam emas. Bu nafaqat boshlovchining kommunikabelligi va kompetentligi, balki uning faol ijodiy pozitsiyasi va uning hayotga sifatli tatbiq etilishi, shuningdek, professionallik, mafkuraviy yetuklik, dunyoqarash va shaxsiy fazilatlar ham muhimdir. Muloqot texnikasini professional tarzda o'zlashtirish juda muhim, ya'ni, nafaqat nutq so'zlash, balki suhbatdoshlarini tinglash va tushunish ham muhim. Bu, o'z o'rnida, milliy mentalitetimizning tarkibiy qismini tashkil etadi, chunki mentalitet bu «fikrlash tarzi, insonning, guruhning umumiy ma'naviy sozlanishi ... Mentalitet yoki «fikrlash turi» (fransuzcha mentalite) yoki ijtimoiy–ruhiy munosabatlar, idrok etish usullari, his qilish va fikrlash uslubidir.» [9] «Fikrni singdirish, aksincha, subyektning ongini chetlab o'tadi va shaxsiy ongdan tashqari ruhiy sohaga, so'ngra maxsus qayta ishlovsiz to'g'ridan-to'g'ri umumiy ong sohasiga kirib boradi va u yerda har qanday passiv idrok obyekti kabi mustahkamlanadi» [2].

S.G. Korkonosenko teskari aloqaning quyidagi shakllarini ajratib ko'rsatadi: epistolyar (tahririylarning pochta, bu telefon orqali murojaatni ham o'z ichiga olishi mumkin); tezkor (teleko'rsatuv yoki radioeshittirish paytida telefon orqali, shuningdek, tomoshabinlarning fikrlarini uzatish qilish uchun kameralar va mikrofonlarni to'g'ridan-to'g'ri ulash; gazeta amaliyotida shunga o'xshash vazifani o'quvchilar bilan «qaynoq chiziq» bo'yicha suhbatlar orqali amalga oshiriladi); hammualliflik (nashrlar va dasturlarni tayyorlash uchun mualliflarni jalb qilish); — testdan

o'tkazuvchi (tahririyat ishi yoki muhokama mavzusi bo'yicha OAVda auditoriyaning pozitsiyalarini aniqlashtirish — anketalar, shaxsiy intervyular, telefon yordamida); maslahat (tahririyat mahsulotlarini muhokama qilish — o'quvchilar va tomoshabinlar konferensiyalarida, nashrning og'zaki nashrlarida, ochiq xatlar kunlarida va sh.o'larda); ekspert (OAV ishining sharhlarini, jurnalistik amaliyotga oid tadqiqiy va ilmiy-tanqidiy materiallarni, ekspert mutaxassislarining fikrlarini o'rganish); tadqiqiy (nashrlar yoki dasturlarning haqiqiy auditoriyasi dinamikasining reyting o'lchovlari — va auditoriya holati, shu jumladan tahririyat buyrug'i bilan)ni o'rganish[4].

**Xulosa.** Aynan jamiyatning demokratlashuvi yangi axborot makoniga, so'z va harakat erkinligiga olib keldi. Kompyuterlashtirishning keng joriy etilishi shaxslararo muloqot chegaralarini yo'q qildi, madaniy va axboriy bilimlar va qadriyatlarining chaqmoq tezligida almashinuvini tashkil etishga imkon berdi, ularning aksariyati televideniye orqali shakllandi. Bularning barchasi televizion ko'rsatuvlarga bevosita bog'liq bo'lgan ijtimoiy ongning o'zgarishiga olib keldi. Televideniye'dagi kommunikatsiya parametrlari o'zgardi, u ijtimoiy qadriyatlardan konyukturga o'tib, yanada ko'proq moddiylashdi. Televideniye reklama beruvchilarning pullarini kanallarga pul olib keluvchi mashhur bo'lgan taniqli shaxslar atrofida quriladi.

Zamonaviy teleboshlovchi bu kommunikator shaxsining mutlaqo yangi turi. U yangi hayotga, ijtimoiy va madaniy hodisalarga yuqori darajada moslashish, yuqori kasbiy mobillik, texnikaviy va kommunikatsiyaviy texnologiyalarining reaktiv taraqqiyotiga moslashish qobiliyati, tomoshabinlarning mehrini uyg'otish va hatto muxlisiga aylantirish qobiliyati bilan ajralib turadi. U auditoriyaning ko'plab ma'naviy ehtiyojlarini qondirishni amalga oshirib, insoniy muloqotning ahamiyatiga, milliy mentalitetga asoslangan tomoshalarga e'tibor qaratib, jamoatchilik ongiga ta'sir qilib, auditoriya uchun voqelikni modellashtirib, zamonaviy voqelik sharoitida auditoriya bilan mutlaqo yangi kommunikatsiya turini qurishga qodir bo'ladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Бахтин М.М. Заметки. Собр. соч.: в 7 т. Т. 5. Институт мировой литературы им. А.М. Горького. — М.: РАН, 1996. — С. 351.
2. Кара-Мурза С. Манипуляция сознанием. — М.: Алгоритм, 2000.— С. 317.
3. Касымова Н. Журналист касб одоби масалалари: кеча ва бугун. // [http://trif.uz/article\\_view.php?id=375](http://trif.uz/article_view.php?id=375).
4. Кorkonosenko С. Г. Основы журналистики. — М.: Аспект Пресс, 2001. — С. 132.
5. Кошанский Н. Ф. Риторика. — М., 2013. — С. 90.
6. Кузнецов Г.В. Семь профессиональных граней журналиста ТВ. — М.: ИПК работников ТВ н РВ, 2001. — С.57.
7. Савостьянов А. И. О вербальной коммуникативности журналиста в учебном процессе. // Материалы областной межведомственной научно-практической конференции 25 октября 2017 г. — Коломна, 2017. — С. 72.
8. Урабова С.Л. Реалити-шоу в контексте современного телевидения. Автореферат диссертации на соискание ученой степени канд. филол.наук. — М., 2008. — С. 27.
9. Философия: Энциклопедический словарь. — М.: Гардарики, 2004.
10. Цвик В.Л. Телевизионная служба новостей. — М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2008. — С. 5
11. Эрнст К.Л. Выступление на «парламентском часе». // Аналитический вестник Совета Федерации. — 2012. № 18 (461). — С. 9.
12. Holub R. Jurgen Habermas: Critic in the public sphere. London: Routledge, 1961.



*Gavhar MUFTULLAYEVA,*  
Navoiy davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti  
E-mail: [gavharmuftullaeva@gmail.com](mailto:gavharmuftullaeva@gmail.com)

*ToshDO'TAU professori, f.f.d. D. Yusupova taqrizi asosida*

**ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ОБРАЗА ХОДЖА МУХАММАДА ПОРСО В "ХАЙРАТ УЛ-АБРОР"**  
Аннотация

В статье анализируются двадцатый макалет поэмы Алишера Навои «Хайрат ул-Аброр» и повесть о «Ходже Мухаммаде Порсо и его сыне Ходже Абу Насре», которая включена в качестве приложения. Объяснены причины, по которым Ходжа Мухаммад Порсо был выбран Навои в качестве главного героя. В процессе анализа важную роль играют основные критерии, характерные для авторского произведения.

**Ключевые слова:** Секта Ходжаган-Накшбандия, Ходжа Мухаммад Порсо, Ходжа Абу Наср, художественная интерпретация, превосходство смысла над изображением, этидол, т.е. умеренность.

**ARTISTIC INTERPRETATION OF THE CHARACTER OF KHOJA MUHAMMAD PORSO IN "HAYRAT UL-ABROR"**  
Annotation

The article analyzes Alisher Navoi's story about "Khoja Muhammad Porso and his son Khoja Abu Nasr went on Haj pilgrimage" in the twentieth article of "Hayrat ul-Abror" epic and its appendix, and the choice of Khoja Muhammad Porso as the main character by Navoi is analyzed. reasons are explained. In the process of analysis, the main criteria specific to the author's work play an important role.

**Key words:** Khojagon-Naqshbandiya sect, Khoja Muhammad Porso, Khoja Abu Nasr, artistic interpretation, superiority of meaning over images, etidol, i.e. moderation.

**"HAYRAT UL-ABROR" DA XOJA MUHAMMAD PORSO SIY MOSINING BADIY TALQINI**  
Annotatsiya

Maqolada Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostonidagi yigirmanchi maqolat va unga ilova tarzida keltirilgan "Xoja Muhammad Porso va uning o'g'li Xoja Abu Nasr" haqidagi hikoyat tahlil qilingan. Xoja Muhammad Porso siy mosining Navoiy tomonidan bosh obraz sifatida tanlanishining sabablari yoritiladi. Tahlil jarayonida muallif ijodiga xos asosiy mezonlar muhim rol o'ynaydi.

**Kalit so'zlar:** Xojagon-Naqshbandiya tariqati, Xoja Muhammad Porso, Xoja Abu Nasr, badiiy talqin, ma'noning suvratdan ustunligi, e'tidol, ya'ni mo'tadillik.

**Kirish.** Xojagon-naqshbandiya tariqatining yirik namoyandalardan biri, Hazrat Bahouddin Naqshbandning eng yaqin shogirdi Xoja Muhammad Porso tasavvuf olamida o'ziga xos o'ringa ega va uning asarlari, xususan, "Risolayi Qudsiya" va "Fasl ul-xitob" ruhiy tarbiya borasidagi nodir asarlardan hisoblanadi. Tasavvufiy qarashlar asarlarining tub-tubiga singib ketgan Alisher Navoiy ham so'fiylarning ibratli hayot yo'li va falsafiy qarashlaridan ma'nan bahramand bo'lgan va o'z asarlarida ularning nomini yuksak ehtirom bilan tilga olgan. Bunday ulug' shayxlar qatorida Xoja Bahouddin Naqshband hazratlari va u kishi asos slogan tariqat yo'lining yetuk namoyandalari Xoja Muhammad Porso, Xoja Ahror Valiylarni keltirish mumkin. Xo'sh, Navoiy bu shaxslarni aynan nima maqsadda o'z asarlarida hurmat bilan tilga oladi, madh etadi va o'rni kelganda ular bilan bog'liq hikoyatlarni keltirib o'tadi? Shuni aniqlik, ruhiy kamolotga undovchi hazrat Navoiyning adabiy me'rosi qalbi va ruhi pok, insonning qalbini poklovchi ilohiy ishqdan bahramand zotlarning hayot yo'lida biz o'rganishimiz kerak bo'lgan jihatlar ko'pligini va bularni anglay olishimiz uchun esa faqat aqlning o'zi o'z o'zidan namoyon etadi. Ustoz N. Komilov ta'biri bilan aytganda, "...ular zohiriy jihatdan shunday, aslida esa, botiniy ma'nolari mohiyatiga ko'ra bir xil falsafiy-tasavvufiy qarashlar silsilasiga borib taqaladigan o'zaro uzviy aloqador asarlar bo'lib, birini ikkinchisiz tushunish qiyin" [1, 149-bet]. Shunday ekan, Navoiyning yuksak ehtiromiga sazovor bo'lgan ulug' zotlar haqida

o'rganish, qolaversa, hazratning o'z asarlarida keltirgan o'rnlarni tahlil qilish orqali komillik sari yana bir odim ildamlash adabiyotshunoslar oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Alisher Navoiy ijodini zohir va botin ilmi nuqta nazaridan tadqiq etish masalasida yetuk adabiyotshunoslarimiz I.Haqqul, S.G'aniyeva, N.Komilov, A. Hayitmetov, A. Qayumov, A.Rustamov, Y.Is'hoqov, S.Rafiddinlarning alohida o'rni bor. Xususan, tasavvuf ta'limoti, naqshbandiylik tariqati mazmun-mohiyati jihatdan Navoiy ijodi bilan chambarchas bog'liqligi 1996-yilda chop etilgan Sultonmurod Olimning "Navoiy va Naqshband" nomli kitobida keng yoritilgan. S. Olim shoir ijodida naqshbandiya ta'limoti g'oyalari targ'ibining ko'rinishlari va yo'nalishlarini quyidagicha ko'rsatadi:

1. Xoja Bahouddin Naqshband hayoti va faoliyatini yoritish.
2. Xojagon-naqshbandiya tariqati vakillari hayoti va faoliyatini yoritish.
3. Naqshband va naqshbandiylik badiiy timsollarini yaratish.
4. Badiiy asarlarda naqshbandiya ta'limoti g'oyalarini targ'ib etish.[2]

Adabiyotshunos S. Olim ta'kidlaganidek, bu yo'nalishlarning har biri alohida tadqiqot mavzusi bo'lgulik darajada katta qamrovga ega va buni o'rganish ilm ahli oldida

turgan muhim vazifalardandir. Bugungi kunga qadar yuqorida sanab o'tilgan yo'nalishlar bo'yicha alohida tadqiqot deyarli yo'q. N.G'afforovning 1999-yilda himoya qilingan "Alisher Navoiy "Xamsa"sida so'fiylar timsoli" nomli nomzodlik dissertatsiyasida bitta bob naqshbandiya shayxlari talqini uchun ajratilgan. Tadqiqotchining ushbu ishida yoritilgan masalalar adabiyotshunos S.Olim ta'kidlagan, yuqorida keltirilgan to'rtta yo'nalishga ham mos keladi. Negaki, N. G'afforov aynan bitta bobning o'zida Xoja Bahouddin Naqshbandning hayoti va faoliyati, xojagon-naqshbandiya tariqati vakillaridan Xoja Muhammad Porso va Xoja Abu Nasr, Xoja Ahror Valiylarning faoliyatiga to'xtalish barobarida ularning ba'zilarining badiiy timsollarini ham yaratib, bu orqali naqshbandiya ta'limoti g'oyalarini targ'ib etadi. Bu yo'lda esa u rus olimlaridan Trimingem, Bertels asarlari, qolaversa, F. Qosimovning "Saltanat tayanchi", Muhammad Boqirning "Bahouddin Balogardon", Faxriddin Ali Safiyning "Rashahot ayn ul-hayot" kabi tarixiy va badiiy asarlariga yuzlanadi. Xoja Muhammad Porso va uning o'g'li Xoja Abu Nasr timsollari tahlil qilinib, tarixiy faktlar orqali Navoiy ushbu timsollarni yaratishdan asosiy maqsadi shoh Husayn Boyqaro va shahzoda Badiuzzamon orasida bo'lib turadigan nizolarni bartaraf etish, ota va o'g'il munosabatlarini yumshatish ekanligini ta'kidlaydi: "Xoja Porso va uning o'g'li Abu Nasr haqidagi hikoyat pand-nasihat doirasidan chiqib, siyosiy tus olgan. Birgina shu voqea bahonasida Navoiy Temuriylar saltanatini inqirozga olib borgan toj-u taxt talashuvi, otani o'g'ilga, akani ukaga qilich o'qtatirgan fojeani ko'tarib chiqadi[3].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Sharq mumtoz adabiyotining chuqur bilimdoni, filologiya fanlari doktori A. Rustamov "Alisher Navoiyning poetik mahorati" nomli kitobida "Mahbub ul-qulub" asarida keltirilgan jumalarga tayanib, "Badiiy asarning elga beradigan fayzi unga lazzat bilan birga kamolot bag'ishlashdan iborat" - der ekan, zavqli shoir ta'bidan yaratilgan asar ma'rifiy, tarbiyaviy va badiiy qiymatga ega bo'lishini va shu uch talab doim bir-birini to'ldirib, bir-birini taqozo qilib turishini ta'kidlaydi.[4] Badiiy asarga aloqador bo'lgan bu uch talab nuqtai nazaridan olib qaraydigan bo'lsak, biz tahlilga tortmoqchi bo'lgan "Hayrat ul-abror" dostonidagi birgina Xoja Muhammad Porso va uning o'g'li haqidagi hikoyatda ham muallif tomonidan qo'yilgan aniq maqsad mavjud va bu maqsadga erishishda Navoiy biri birini taqozo etib turuvchi yuqoridagi talablardan kelib chiqqan holda yondashgan. A. Rustamov ta'kidicha, ijod tamoyili nuqtai nazaridan, tarbiyaviylik va ma'rifiylik xususiyati asarning ma'no tomoni, badiiy vositalari esa uning suvratini, ya'ni shakl tomonini tashkil etadi. Navoiy uchun insonning hamma faoliyatidagi kabi so'z san'atida ham ma'no birlamchi, suvrat ikkilamchidir[4]. Olim Navoiy ijodining o'ziga xosligini va u yaratgan asarlarning yetuklik cho'qqisiga yetish sababini Navoiy ijodiga xos bo'lgan ikkita tamoyil orqali tushuntiradi:

Ma'noning suvratdan ustunligi

E'tidol, ya'ni mo'tadillik

A.Rustamov birinchi tamoyil orqali Navoiy asarlarida suvrat mazmunga xizmat qilishini, badiiyat nuqtai nazaridan asarning mazmun-mohiyati, tarbiyaviy tomoniga ta'sir ko'rsatmaslik Navoiy uchun bosh me'zon ekanligini ta'kidlaydi. E'tidol tamoyili orqali esa Navoiy asarning mazmunida, qolaversa badiiy tomonida ham mo'tadillikka amal qilganligini Navoiyning saxiylik va baxillik haqidagi qarashlari orqali tasdiqlaydi[4].

"Hayrat ul-abror" dostonida keltirilgan Xoja Muhammad Porso va uning o'g'li haqidagi hikoyatni yuqorida so'z yuritilgan ikkita tamoyil nuqtai nazaridan tahlilga tortadigan bo'lsak, uni ma'rifiy, tarbiyaviy hamda badiiy qiymatga birdek ega ekanligini ko'ramiz.

**Tahlil va natijalar.** "Hayrat ul-abror"ning didaktik ruhda yozilgan doston ekanligidan kelib chiqadigan bo'lsak, undagi maqolatlarga ilova tarzida keltirilgan hikoyatlarning bosh g'oyasi inson kamoloti, ruhiy tarbiyasi bilan bog'liq. Navoiy hikoyatlarning qahramonlari sifatida maqolatning mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda turli ijtimoiy tabaqa vakillarini tanlaydi. Biz tahlilga tortayotgan hikoyatdagi Xoja Muhammad Porso obrazi Navoiyning ushbu dostonidan tashqari, "Lison ut-tayr", "Nasoyim ul-muhabbat" asarlarida ham uchraydi. Har uchala asarda ham Xoja Muhammad Porso va uning o'g'li bilan Haj ziyoratiga borish voqealari keltiriladi. Biroq ularda ilgari surilgan g'oyalar turlichadir. Bu borada N.G'afforov shunday deydi: "Agar "Lison ut-tayr"da birgina insof misolida Xoja Porso va Xoja Abu Nasrning Hajga borish voqeasi tasvirlansa, "Hayrat ul-abror"dagi hikoyatda Navoiy ota va o'g'il orasidagi murosasizlik, pir-u murshidsiz tariqat yo'lini tutmaslik, dunyo boyligiga ko'ngil bermay, Haq yo'lini, Muhammad sallallohu alayhi vassallam tariqini mahkam tutish kabi g'oyalarni bir-biriga bog'laydi." [3]. Hikoyatning bosh obrazi darajasiga ko'tarilgan Xoja Muhammad Porso va Xoja Abu Nasr siyomosining badiiy talqini undan oldin keltirilgan maqolat bilan bir g'oyaviy butunlikni tashkil etadi, ya'ni Navoiyning maqolatda yuritgan falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta'limiy mulohazalarining real turmushdagi tasdig'i, komillikning yuksak bir namunalari sifatida keltiriladi. Hazrat Navoiy dunyo haqidagi falsafiy mulohadalarni quyidagicha bayon etar ekan, aynan Xoja Muhammad Porso siyomosini dunyoga shunday ko'z bilan qaraydigan, mol-dunyo, mansab, shuhratparastlikning o'tkinchi tuyg'ular ekanligini to'laqonli anglab yetgan yetuk shaxs sifatida bilgani uchun ham tanlaydi:

Bil munikim umr vafosizdurur,

Davlat ila joh baqosizdurur.

Tushdek erur dahrda nokom-u kom,

Ko'z yumub ochquncha o'tubdur tamom.

Dahr binosini harob anglag'il,

Ne ko'runur anda sarob anglag'il. (H.A. MAT. T. 7.

344-bet.)

Navoiyning ijtimoiy-siyosiy mazmundagi qarashlarining bir ifodasi sifatida adolat haqidagi mulohazalarini keltirish mumkin. Maqolatda "kitobat" san'ati orqali adolat zulum qorong'uligini yorituvchi quyosh, davlatga ham, dinga ham birdek zarur bo'lgan misoli bir toj hamda izzat va sharaf, shon-shuhratning tuzog'i kabi bir butunlik deya chiroyli o'xshatishlar yaratadi:

Adli uch har fila maakrun erur,

Har biriga o'zgacha mazmun erur:

"Ayn"i aning mehre erur tobnok,

Zulm qaro shomini qilmoqqa pok.

"Dol"i dag'i davlati din tojidur,

Din bila davlat eli muhtojdur.

Hurg'a gisu quyig'i "Lom"i bil,

Izzu Sharaf qushlarining domi bil. (H.A. MAT. T. 7.

348-bet.)

Maqolatdagi fikrlar tasdig'i sifatida keltirilgan hikoyatda Navoiy adolatni o'ziga shior qilib olgan, shon-shuhrat, mansabga intiluvchi nafsni yengga olgan shayx timsolini ota va o'g'il munosabatlari orqali ko'rsatadi. Hikoyatda ota madorsiz qolgan chog'ida o'g'lining unga Haj safarida yo'ldosh bo'lib kelganini shunchalik yuksak baholashi, ya'ni ibodatga kelgan xalqning iltijolarini ado etish, ularni duo qilishga munosib kishi sifatida o'zidan-da munosib ko'rishi ham adolatning bir ko'rinishi, qolaversa bu orqali Navoiy ikki masalani ko'tarib chiqadi:

Ota va o'g'il munosabatlarini yumshatish, ular orasida mehr-oqibat tuyg'ularini kuchaytirish;

Shoh va uning xalqiga bo'lgan munosabatlaridagi adolatga ishora qilish;

Shuhrat va mansabdan tiyilishning ruhiy kamolotga yo'l ochishi.

Otaning o'g'liga nisbatan qilgan adolati, unga bo'lgan ishonchi o'g'lini shu darajaga yetkazdi:

Sa'y etibon o'yla atodek kishi,

Yetti bu g'ayratg'a o'g'ulning ishi. (H.A. MAT. T. 7. 356-bet.)

Xoja Muhammad Porsoning bunday yetuk xislatlari shoh Husayn Boyqaro uchun ibrat namunasi qilib olingan bo'lsa, shahzoda Badiuzzamon uchun Xoja Abu Nasrning otaga nisbatan yuksak ehtiromi ham xuddi shunday namuna edi.

Maqolat va hikoyatdagi mazmun-mohiyatni biz yuqorida keltirib o'tgan ikki tamoyil nuqtai nazaridan olib qaraydigan bo'lsak, ularda ma'noning suvratdan ustunligi, boshqacha aytganda, badiiylik uning mohiyatidan ustun bo'la olmasligi, aksincha ana shu mohiyatni ochib berishga xizmat qilishi ayonlashadi. Ulug' shoir ijodiga xos bu xususiyat haqida adabiyotshunos N. Jabborov ham "Ijod namunasi mukammal badiiyat bilan birga teran ma'noni mujassam etmog'i zarurligi" Navoiy ijodi va adabiy-estetik qarashlarining asosiy mezonlaridan biri deya ta'kidlaydi [5].

Mo'tadillik tamoyili, ya'ni o'rtachalikni asarlarining ham tarbiyaviy, ham badiiy tomoniga tadqiq etgan Navoiy ushbu hikoyatdagi Xoja Muhammad Porso va uning o'g'li Xoja Abu Nasr orqali ota va o'g'il orasidagi munosabatlar,

mehr-oqibat, adolat, izzat-ehtiroim kabi tuyg'ularni madh etishda ham aynan shu mo'tadillikni saqlaydi, ya'ni badiiy vositalardan fikrni ifodalash uchun maqolat qismida ko'proq foydalansa, hikoyatda ixchamlikka, qisqa jumla orqali teran ma'no anglatishga erishgan. Buni hikoyatdagi har bir bayt, har bir misrada kuzatish mumkin. O'g'ilning otaga bo'lgan ehtiromi, o'zidagi kamtarlik, shon-shuhratga berilmaslik xususiyatlari, qolaversa, bo'yniga yuklatilgan vazifaga nisbatan mas'uliyat hissining yuqoriligi kabilarni ifodalash uchun Navoiy ushbu baytni keltiradi:

Bilmas esam men tilak oyinini,

Aylama zoyi aning ominini. (H.A. MAT. T. 7. 356-bet.)

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy ijodida xojagon-naqshbandiya shayxlari salmoqli o'rinni egallaydi. Hazrat Bahouddin Naqshband va bu zotning shogirdlari Xoja Muhammad Porso siymosi Navoiy asarlarida turli maqsadlarda keltiriladi. Biroq barchasidan ko'zlangan bosh maqsad – bitta. U ham bo'lsa – RUHIY TARBIYA. Negaki, naqshbandiylik, umuman olganda, tasavvuf insonning qalbini poklovchi, insonni ruhan oziqlantiruvchi yo'ldir. Shaxs kamolotida tarbiyaning o'rni beqiyos ekan, Navoiy asarlarining badiiy qiymati har qaysi zamonda ham o'z ahamiyatini yo'qotmaydi.

#### ADABIYOTLAR

1. Комилов Н. Тасаввуф. – Toshkent: Movarounnahr- O'zbekiston, 2009. – B. 149.
2. Sultonmurod Olim. Navoiy asarlarida Xoja Bahouddin Naqshband ta'rifi. Jahon adabiyoti jurnali, 2013-yil, 3-son.
3. Гаффаров Н. Н. Алишер Навоий Хамсаида суфийлар тимсоли. Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент, 1999.
4. Рустамов А. Навоийнинг бадий махорати. Тошкент: Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979.
5. Жабборов Н. Маоний ахлининг сохибкирони. Монография. Тошкент, 2021.



*Dilafroz TURAKULOVA,*  
Uzbekistan state world languages university, teacher  
E-mail: dilimturakuloval309@gmail.com,

Based on the review of L.R. Raupova, professor of the University of Uzbek Language and Literature, doctor of philology

## THE PROBLEMS OF STUDYING LINGUISTIC CONCEPT IN MODERN LINGUISTICS

Annotation

Current article provides an overview of previous studies on the concept in modern linguistics. It examines the existing conceptual categories and offers points of view on how to grasp the concept's nature, structure, and essence.

**Key words:** Concept, linguistics, types of concepts, abstractness, categories of concepts, metaconcepts.

## ПРОБЛЕМЫ ИЗУЧЕНИЯ ЯЗЫКОВОГО КОНЦЕПТА В СОВРЕМЕННОЙ ЛИНГВИСТИКЕ

Аннотация

В настоящей статье представлен обзор предыдущих исследований концепта в современной лингвистике. В нем рассматриваются существующие концептуальные категории и предлагаются точки зрения на то, как понять природу, структуру и сущность концепта.

**Ключевые слова:** Концепт, лингвистика, типы концептов, абстрактность, категории концептов, метаконцепты.

## ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA LINGVISTIK KONSEPTNI O'RGANISHNING MUAMMO VA YECHIMLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada zamonaviy tilshunoslikda konsept bo'yicha oldingi tadqiqotlarning umumiy ko'rinishini beradi. U mavjud konseptual kategoriyalarni o'rganadi va kontseptsyaning mohiyatini, tuzilishini va mohiyatini tushunish bo'yicha nuqtai nazarlarni taklif qiladi.

**Kalit so'zlar:** Tushuncha, tilshunoslik, tushunchalar turlari, abstraktlik, tushunchalar kategoriyalari, metakontseptsiyalar.

**Introduction.** There have been a lot of perspectives and research works on the study of the linguistic term "concept" since recent years. The term "concept" currently lacks a definite definition because it encompasses cognitive science, semantics, and linguoculturology all at once. In terms of linguistic structure, this phrase is comparable to other nearby terms. Studying and analyzing the concept has become widespread among world linguists and they stated different problems related to studying this term thoroughly.

According to Russian linguist Teliya the concept is always knowledge that is organised into a frame; therefore, it represents not only an object's basic traits but also all those that exist in a certain linguistic community and are knowledgeable of the essence (Teliya 7,p.96). A concept is a specific conception of a piece of the world or a portion of such a piece, which has a complicated structure stated in numerous groups of attributes and is executed using various linguistic techniques. Conceptual signs are made into fixed and free combinations of language units that serve as the concept's representations. The concept represents the category and value traits of certain information about parts of the world. Signs that provide a purpose for the relevant culture are presented in the concept's organisational structure.

**Literature review.** The "concept" in linguocultural texts is first and foremost a verbalised cultural meaning, and it is "by default" a linguocultural concept (linguoconcept) - a semantic unit of the "language" of culture, the expression plan of which is a two-way linguistic sign whose linear extent, in theory, is unrestricted (Teliya 7,p.103). The concept of culture as a "symbolic universe" (Cassirer), whose particular expressions in some "interval of abstraction" (in comparison with a foreign culture) are unavoidably ethnospecific, serves as the deciding element in interpreting the linguoconcept.

Babushkin defined the concept as "any discrete unit of collective consciousness that reflects the subject of the real or

ideal world and is retained in native speakers' national memory in the form of a known verbally designated substrate." (Babushkin 1,p.95). Another Russian linguist Karasik considers the concept of a "object" exposed to cognitive processing in the sum of all valence relationships marked by national culture marking is known as the "national concept," which is the most broad, most abstracted, but concretely represented by (linguistic) consciousness.

**Research methodology.** Before analyzing existing problems related to the concept, it is important to describe the structure of the concept. There are wide range of research works that were dedicated to study the structure of the concept, and one of the well-known notions was given by Russian linguists Stepanov. According to Yu. S. Stepanov(2004:55) , the concept is identified in three components or layers and he considers concept as a fact of culture.

The first layer is called the primary or in other words distinct charactersic;

Next one is an extra or multiple extra "Passive" qualities that are not current, "historical";

The last layer is an outward, linguistic shape imprinted with an interior form that is typically not at all realized.

Another model was suggested by Russian linguist G.G. Slisshkin and according to his associative model of the concept, there is a constant nomination and renomination of objects, the introduction of new ones, and the loss of previous associative ties between linguistic units and nominated objects throughout the course of its functioning. With this method, the nominative density of the idea serves as the primary characteristic of the intra zone of the concept (the set of associations contained in the concept), while the primary characteristic of the extrazone (the set of incoming connections) serves as metaphorical diffuseness (Slisshkin 6,p.87).

Next approach to modeling the structure of a linguocultural concept involves figurative, associative, conceptual, value, historical and etymological components.

The internal form of the word, which serves as the primary representation of the concept, determines the etymological component (or "etymological layer," in Yu.S. Stepanov's terminology) of the concept. The concept's etymological component acts as an extra source of inspiration for its value component. Next, thematic, paradigmatic, and syntagmatic dominating associative relations, in which idea language representations participate, make up the associative component of a concept. Since the conceptual and associative parts of a concept meet in some places, it is not possible to incorporate interpretations that are derived from the concept's dominating associative connections; nonetheless, its content does contain certain general aspects.

A mixture of conceptual metaphors obtained by a native speaker from the compatibility of the term that objects the idea in the language may also be included in the concept's figurative component. Lastly, the most important characteristics of the associative components of the concept, which are included in its structure on earlier stages of existence in the concept sphere of an ethnos and heavily influence its synchronous state, are contained in the historical component of the linguocultural concept. The figurative, value, and associative aspects of the linguocultural concept represent the national identity and are strongly influenced by its etymological component.

One of the common problems of studying the concept is considered its complexity and in this regard, the complexity of the concept structure is emphasised by Yu.S. Stepanov, who writes: "On the one hand, everything that belongs to the concept's structure belongs to it... on the other hand, the concept's structure includes everything that makes it a fact of culture - the original form (etymology), history condensed to the content's main features; contemporary associations; grades, etc.)" (Stepanov 5, p.45)

Next problem is related to the categories and types of concepts. The following categories of concepts are distinguished by A.P. Babushkin:

Mental images, plans, hypernyms, frames, insights, scenarios, and kaleidoscopic thoughts.

concept schema forms a perceptual and cognitive picture of the world, in a specific way articulated by lexical means;

concepts-hyperonyms - definitions devoid of connotation;

concept frame - scene diagram, a set of associates stored in memory;

mental pictures - a set of images in the collective/national or individual consciousness of people;

Concept scenario (script) - a plan of events, the presentation of information about stereotypical episodes, the sequence and connection of conceivable events denoted by a word, and their dynamics;

insight - a sudden understanding, comprehension of those or other relationships and the structure of situations in general, information "packed" in the word about the design of the internal structure or functional purpose of the subject;

Metaphorization gives rise to kaleidoscopic concepts, which lack consistent, stable associations because they first manifest as mental images before taking the shape of a frame, scheme, or scenario (Babushkin 1, pp.46-95)

**Analysis and results.** The distinction between universal concepts (such as water, the sun, country, land, and home) and national concepts (such as True, the truth is in Russian) is made based on the degree of reflection of the national character and identifying this distinction has been controversial. Concepts can be divided into sociocultural and

ethnocultural categories. The same may be said of sociocultural notions. Individual conceptions (G.G. Slyshkin, V.I. Karasik, Z.D. Popova, and I.A. Sternin) and group concepts (age, gender, professional status, etc.) are included. The author can provide many ideas, such as ideas conveyed by keywords, ideas that describe a person's psychotype, and occasionally ideas that refer to certain social groupings (in which case they are referred to as sociocultural or ethnocultural ideas). (Karasik 2, p.28)

It is also interesting to study associative classifications. The following are some of G.G. Slyshkin's key points about associative classifications of concepts:

Proportional concepts, which are peculiar in that they continue to enrich both the intrazone and extrazone;

Formed concepts, in which the intrazone has formed but the extrazone is still operational;

The following are some of G.G. Slyshkin's key points: proportional concepts, which are peculiar in that they continue to enrich both the intrazone and extrazone; formed concepts, in which the intrazone has formed but the extrazone is still operational; and emerging concepts, which do not yet have an extrazone but already have a developed intrazone. (Slyshkin 6, p.48)

Due to the high degree of abstraction of conceptualised ideas, limiting concepts' intrazone is continually increasing, while their extrazone is absent; basic concepts, however, have almost totally lost their intrazone and have only kept their extrazone as a component of individual units.

According to the principles of structural categorization, macroconcepts are differentiated as "a complex mental formation associated with concepts included in its structure, generic relations" (for example: "foundation of the world," "plant," "living being," etc.). Besides that N. Yu. Shvedova (2005) categorises notions into "large," "great," "basic," and "basic" and "small," "non-basic," "basic." Corresponding "non-core" notions are placed around "core" concepts that lack the characteristics of "big" concepts, such as those with extensive historical origins, conventional designation, historically ingrained social or subjective judgements, oppositional contrast to other units, etc.

Concepts are separated into abstract (mentifacts) and specific/subject concepts (natural facts and artefacts) according to how abstract the material is: The typology of linguistic concepts may also be based on the level abstractions of their names that refer to universal concepts of spiritual culture, formed by hypostasizing predicates - properties and relationships (happiness, beauty, freedom, etc.), on the one hand, and to concepts-symbols - cultivated realities (matryoshka, bird cherry, birch, etc.).

G.G. Slyshkin distinguishes between the real concepts of linguistic personality and the meta-concepts of linguistic personality depending on the nature of the interaction between the concept sphere of a linguistic personality and language occurrences. "A metaconcept is the outcome of secondary conceptualization, the results of which are semiotic formations (such as language, text, genre, style, translation, discourse, grammar, etc.) that represent prior conceptualization experiences of humanity. The reflection of a native speaker on the sign activity, of which he is the object and/or subject, is realised in metaconcepts. (Slyshkin 6, p. 96)

Concepts can be classified as verbalised or non-verbalised depending on the type of expression used. Additionally, verbalised ones are further broken down into univerbations, phraseological (syntactic), and "and, finally, the specific division of linguistic concepts can go according to line of the subject area: emotional, ontological, epistemological, semiotic, illocutionary, etc. (Vorkchev 8, p. 32)

**Conclusion.** The key point of disagreement amongst researchers in this area is the quantity and kind of semantic components:

1. The combination of the "concept," "image," and "action," anchored in the meaning of any sign, creates the "discrete integrity" of the concept.

2. The notion highlights the conceptual and emotional aspects as well as "everything that makes it a fact of culture" such as etymology, contemporary connections, and appraisals (Stepanov 5, p.41).

3. The oneness of the value, figurative, and conceptual sides also contributes to the formation of the linguistic notion (Karasik 2, p. 109).

4. There are three types of semantic components that make up a linguoconcept: conceptual, figurative, and significant (see Vorkachev 8, p.80). Conceptual components reflect the attribute and definitional structure of the concept,

while figurative components fix cognitive metaphors that support the concept in the linguistic consciousness. Significant semantic components are determined by the position that the concept's name occupies in the language system.

5. Finally, the sequence of the concept's "manifestation in the form of an image, concept, and symbol" (Kolesov 2002: 107), where the image represents the psychological foundation of the sign, the concept reflects the logical functions of co-knowledge, and the symbol is a general cultural element of a verbal sign, ensures the concept's semantic unity.

To conclude, despite the vast amount of acquired experience and research works, many difficulties in the theory of concepts remain unanswered, necessitating more research into the topic of how concepts are described and expressed, as well as how they relate to other phenomena like texts, myths, signs, and symbols.

#### REFERENCE

1. Babushkin A. P. Tipy konceptov v leksiko-frazeologicheskoy semantike yazyka, ih lichnostnaya i nacional'naya specifikatsiya [Types of concepts in lexico-phraseological semantics of the language, their personal and national features]. Voronezh. 2006. P. 29.
2. Karasik V.I. Yazikoviy krug: lichnost, konsept, diskurs. M., 2004.
3. Stepanov Y. S. Konstanty: slovar' russkoj kul'tury [Constants: dictionary of Russian culture]. M. Academic project. 2001. P. 43.
4. Michael J. O'Brien, R. Lee Lyman, Alex Mesoudi and Todd L. Van Pool. Cultural traits as units of analysis//Philosophical Transactions of the Royal Society, vol. 365, no 1559. Carlton House Terrace, –London: 2011.
5. Stepanov Y. S. Konstanty. Slovar' russkoj kul'tury. Opyt issledovaniya [Constants. Dictionary of Russian culture. The experience of research]. M. School "Languages of Russian culture". 1996. Pp. 46-54.
6. Stepanov Y.S. Linguocultural concept and its terminological system. 1997.
7. Slisshkin G.G. Lingvokulturniye konsepty i metakonsepty. Volgograd, 2004.
8. Teliya V. N. Russkaya frazeologiya. Semanticheskij, pragmaticheskij i lingvokul'turologicheskij aspekty [Russian phraseology. Semantic, pragmatic and linguocultural aspects]. M. 1996.
9. Vorkachev S.G. Lingvokulturniy konsept: tipologiya i oblasti bitovaniya. Volgograd, 2007.
10. Theodore Allen Snyder. A Spatial Analysis of Grassland Species Richness in Curtis Prairie, 2004.



*Dilafro'z XALILOVA,*  
*ToshDO'TAU doktoranti*  
*E-mail: dxb981@gmail.com*

*QarDU dotsenti Sh.Qahhorova taqrizi asosida*

## SHARQ VA G'ARB TIBBIYOT TERMINOLOGIYASINING TAKOMILLASHISH TARIXI

Annotatsiya

Sharq va g'arb olimlarining tibbiyot terminologiyasini diaxron va sinxron usulda, jumladan etimologik, morfologik, semantik, leksik, lingvokulturologik tomondan o'rganish holda bugungi holatini ochib berish. Jahon tilshunosligida o'rganilganligi, ta'lim sohasidagi termin birikmalarning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish, universal va noyob tuzilishga ega ilmiy-kasbiy tillar holatini saqlab qolish, to'plash, umumlashtirish, jamiyatga va alohida kasbiy guruhlariga xizmat qilishini kognitiv nuqtai nazardan yondashishni talab etadi.

Ushbu maqola til vositalarini tejash qoidalari va nutqning o'sishida o'z aksini topgan dunyo olimlari tomonidan o'rganilgan terminlarning tadqiqiga bag'ishlanadi.

**Kalit so'zlar:** Tilshunoslik, soha, termin, tibbiy, tibbiyot, qo'llanma, izohli lug'at.

## ИСТОРИЯ РАЗВИТИЯ ВОСТОЧНОЙ И ЗАПАДНОЙ МЕДИЦИНСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ

Аннотация

Изучая медицинскую терминологию восточных и западных ученых в диахроническом и синхроническом ключе, включая этимологический, морфологический, семантический, лексический, лингвокультурологический аспекты, выявить современную ситуацию и выявить специфические черты терминосочетаний, изучаемых в мировой лингвистике и в области образования, их изучение требует подхода с познавательной точки зрения, что они имеют универсальную и уникальную структуру, сохраняют статус научных и профессиональных языков, собирают их, обобщают, служат обществу и отдельным профессиональным группам с когнитивной точки зрения.

Данная статья посвящена изучению изучаемых мировыми учеными правил сохранения языковых средств и терминов, которые находят отражение в росте речи.

**Ключевые слова:** Лингвистика, область, термин, медицинский, медицина, пособие, толковый словарь.

## HISTORY OF DEVELOPMENT OF EASTERN AND WESTERN MEDICAL TERMINOLOGY

Annotation

Identifying the current situation of studying medical terminology of eastern and western scientists in a diachronic and synchronic way, including etymological, morphological, semantic, lexical, linguocultural aspects, learning its research in world linguistics and peculiar features of term combinations in the field of education, retaining the status of professional scientific languages which has universal and unique structure, collecting, generalizing require cognitive approach to serve individual professional groups.

This article devoted to the research of terms studied by world scientists who contributed to the growth of speech and principles for the preservation of language means

**Key words:** Field, term, medical, medicine, manual, concise dictionary.

**Kirish.** Terminologiyaning tibbiyot sohasini o'rganish qadim o'tmishga borib taqaladi. Tibbiyot terminologiyasi barcha Yevropa tillari uchun Yunon-Lotin tili poydevor sifatida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. XIX asrgacha lotin tiliga fan tili sifatida qaralgan, tibbiyot nomenklaturasida juda ko'p leksik o'xshashliklarga hissa qo'shgan va uning ta'sirini bugungi kungacha ko'rish mumkin. Lotin tili asosini o'rganish tibbiyot sohasida faoliyat yuritayotgan mutaxassislariga turli tillardagi tibbiy matnlarni tushinishga yordam beradi.

**Adabiyotlar tahlili.** Tibbiyot sohasiga oid terminlarni o'rganish jahon termishunos olimlari tomonidan muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Ingliz termishunoslari Rosita Magliening "Understanding the language of medicine (Tibbiyot tilini tushunish)" [9] nomli kitobida tibbiy terminlar avval diaxron, so'ng sinxron tarzda o'rganilgan. Muallif tibbiy terminlarni lingvistik (leksik, semantik) hamda metodik jihatdan tadqiq qilgan bo'lib, og'zaki tibbiy diskurs qismida bemor hamda ularning oilalari bilan shifokorning o'zaro muloqoti, ilmiy muloqot hamda tibbiyot sohasidagi tarjimonlar haqida kerakli ma'lumotlarni keltirgan.

Robert B. Tayloring "The amazing language of medicine: understanding medical terms and their back stories (Tibbiyotning ajoyib tili: tibbiy terminlar hamda ularning tarixini tushunish)" [11] nomli kitobi ingliz tibbiy terminlari etimologik jihatdan tadqiq qilingan eng beqiyos asarlardan biri hisoblanib terminlarning leksik, semantik, stilistik jihatdan tahlil qilingan bo'lib ularning qiziqarli tarixini yoritadi.

Tibbiy terminlarning morfologik tadqiqi borasida bajarilgan ilmiy ishlar ichida Bozena Dzuganovanning maqolalari [3] muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchi tibbiyot sohasidagi terminlarning affiksatsiya tomonini tahlil qilgan bo'lib, ayniqsa salbiy ma'no beruvchi qo'shimchalarni chuqur o'rganish.

Shuningdek, rus terminolog olimlarining tibbiyot termini muammolarida olib borgan xizmatlari zamonaviy terminologiyada muhim ahamiyat kasb etadi.

Rossiyada birinchi anatom professor, akademik F.P.Protasov (1724—1796) rus tilidagi anatomik terminshunoslikka asos soladi. Taraqqiy etib borayotgan rus tibbiy terminshunosligida ilmiy terminlarni qo'llash va tartibga solishda XVIII asrda rus olimi va ma'rifatchisi

N.M.Maksimovich-Alebadiknig xizmatlari beqiyos hisoblanadi.

Shuningdek E.B.Bekishyevaning “Древние языки (Qadimiy tillar)” [2] nomli maqolasida tibbiyot terminologiyasining rivojlanish tarixini bir nechta bosqichlarga bo'lib ko'rsatib beradi va quyidagicha ifodalaydi;

Birinchi bosqich (XVIII asr). Rus adabiy tilining faol shakllanishida yunon-lotin tillaridagi ilmiy atamalardan keng foydalana boshladi. Tibbiyot terminlari haqidagi ilk lug'atlar “doyalik sanati” bo'yicha birinchi rus professori N.M.Ambodik Maksimovich tomonidan yaratilgan. 1789-1794 - yillarda rus tilining birinchi akademik lug'ati “Rus akademik lug'ati”, 600 ta qadimiy va yunon-lotin tiliga so'zlariga asoslangan tibbiy atamalarni kiritgan.

Ikkinchi bosqich (XIX asr) rus tibbiyot terminologiyasini tizimlashtirish va takomillashtirish. Bu bosqichda sifat jihatdan tibbiy atamalar leksikografikasiga qayta ishlov berish bilan ifodalanadi. Sankt-Peterburg rus shifokorlar jamiyatining asoschisi A.N. Nikitin tomonidan 1935 - yilda “Shifokor lug'ati” tuzildi. Bu davrda tibbiyot terminologiyasining rivojlanishi taniqli rus shifokorlari Ye.O. Muxina, N.I. Pirogova, S.P. Botkina, I.M. Sechenova, I.P. Pavlova ilmiy ishlarida ko'rishimiz mumkin. 1892–1893 yillarida A. Vilarening “Birinchi tibbiy ensiklopedik lug'at”i nemis tilidan tarjima qilingan lug'ati nashrdan chiqarilgan.

Uchinchi bosqich (XX asrning birinchi yarmi) terminologiya nazariyasi vujudga kelishi va shakllanishi bilan bog'liqdir. Ammo XX asrning birinchi yarmida tibbiyot terminologiyasi nazariy fan sifatida ilmiy tadqiqotlarga mustaqil yo'naltirilmagan. Biologiya fakultetlari uchun birinchi lotin tili darsligi muallifi P.I. Karuzinning fikricha, klassik gimnaziyalarning yopilishi va o'rta maktab fanlaridan lotin tilining chiqarib yuborilishi, tibbiyot oliygohlarining anatomiya, farmakologiya va klinik kurslarda o'qiyotgan ko'pgina yoshlarni an'anaviy ravishda qo'llanilgan yunon-lotin tilidagi tibbiy atamalarni o'zlashtirishda qiyinchiliklarga duch kelishiga olib keladi. Ayni paytda lotin tili darsliklari tibbiyot instituti V.M. Bogolepova va N.M. Lempelya, “Lotin-rus tibbiyot lug'ati” talabalari uchun S.I. Volfson tomonidan yaratilgan.

To'rtinchi bosqich (1960-1980). Tibbiyot terminologiyasining mustaqil fan sifatida ajralishi va rivojlanishi. Bu davr tibbiyot terminologiyasi sohasi uslubiy faoliyatining rivojlanishi bilan ifodalanadi. Tibbiyot instituti va fakultetlari uchun Yu.F. Shulsa, V.F. Novodranova, M.N. Chernyavskiy, Yu.I. Gorodkova va L.V. Tokmakovlar lotin tili darsliklarini nashr qilishadi. Bu davrda tibbiyot terminologiyasini ifodalovchi xususiyatga oid birinchi dissertatsiyalar, shuningdek, qadimgi olimlarning asarlarini tarixiy-filogik tahlillarda shifokorlar va etimologlar katta e'tibor qaratishdi.

Beshinchi bosqich (XX-asrning 80–90-yillari). Tilshunoslikning zamonaviy tendensiyalari va umumiy terminologiya nazariyasi doirasida tibbiy terminologiyaning rivojlanish davri hisoblanadi.

Tibbiyot terminologiyasining leksikografik jihatdan ta'minlashda rus amaliyotiga birinchi bo'lib uch jildan iborat “Tibbiyot atamalar ensiklopedik lug'ati” akademik B.V.Petrovskiy (1982-1984) tahrirligida nashrdan chiqarildi. Tibbiyot oliy o'quv yurtlarida ensiklopediya asosida professor M.N.Chernyavskiy lotin tili terminologiyasi kurslarini o'qitish asoschisidir. “Tibbiyot terminlari ensiklopedik lug'ati”ning uchinchi jildida M.N. Chernyavskiy tibbiyot terminologiyasining tarixi va zamonaviy tibbiyotning hozirgi holatiga bag'ishlagan bo'lib, tibbiy terminologiyaning shakllanishiga oid qiziqarli va lingvistik tarixiy ma'lumotlarni taqdim qiladi.

Oltinchi bosqich-tibbiy terminologiyada kognitiv-diskursiv paradigma. Til va tafakkur munosabatlari doimo

tilshunoslarning diqqat markazida bo'lganligi sababli 90-yillarga kelib kognitivizm g'oyalari asta-sekin tibbiy terminologiyada ham namoyon bo'la boshladi ammo hali alohida nazariy yo'nalish sifatida rasmiylashtirilmagan. Termin maxsus ma'lumotlarni tashuvchi vosita sifatida ko'rib chiqila boshlandi, kasbiy va ilmiy aloqalar jarayonida vositachilik qiladi va bilimlarni rivojlantiradi.

Sharq tibbiyoti va tabobatini butun jahon miqyosiga olib chiqqan ma'lum va mashhur olimlar, tabiblar va mutafakkirlar ko'p bo'lgan. Ushbu soha bilan qiziqqan va shug'ullanganlar orasida oddiy kishilardan tortib, hatto xonlar, podshohlarni ham uchratishimiz mumkin. Ana shunday kishilardan biri 865-925 yillarda, asosan Bag'dod va Ray shaharlarida yashab o'tgan qomusiy mutafakkir olim, tabib, o'z davrining Galeni (Jolinusi) deb tan olingan Abu Bakr Muhammad ibn Zakariyo Roziydir. Roziyning eng muhim asari “Kitob ul-hoviy fit-tib” (“Tibbiyotni qamrab oluvchi kitob”)da antik davrdan Roziy yashagan davrgacha tibbiyot sohasida mavjud bo'lgan nazariy va amaliy fikrlar bayon qilingan. Uning yana bir yirik asari – “Al-kunnosh al-Mansuriy” (“Mansurga bag'ishlangan to'plam”) XVI asrgacha Sharq tabiblari va Yevropa shifokorlarining asosiy qo'llanmalaridan biri hisoblangan. Roziy tabobat tarixida birinchi bo'lib chechakka qarshi emlash zarurligini kashf etgan va uni amalga oshirgan, jarrohlikda esa ilk bora ketgut ishlatgan.

Jahon fani taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan buyuk qomusiy olim Abu Ali ibn Sino tibb ilmini dastlab Abu Mansur Samariy rahbarligida o'rganadi. Ibn Sinoning tibbiyotga oid asarlari 50 tacha bo'lib, ulardan 30 ga yaqini saqlanib qolgan. Abu Ali ibn Sinoning nomini butun jahonga ma'lum va mashhur qilgan, abadiylashtirgan asarlaridan biri besh jildli “Kitob ul-Qonun fit-tib” (“Tib qonunlari”) dir. Bu asar Ibn Sino davridagi (XI asrdagi) tabobatning mukammal qomusi hisoblanadi. Yana bir mashhur asarlaridan biri “Al-adviyat ul-qalbiya” (“Yurak dorilari”) va tibbiyotning umumiy masalalari bayon qilingan, aruzning rajaz bahrida yozilgan ming satrli “Urjuza” asari ham Sharq tabobatida muhim rol o'ynagan asarlardandir.

O'nlab fundamental fanlar bilimdoni va asoschisi Abu Rayxon Beruniy O'rta Osiyoda birinchi bo'lib dorigarlik va dorishunoslik - farmatsiya va farmakognoziya haqida asar yozdi. Beruniy “Kitob us-saydana fit-tib” deb nomlangan bu asarida o'simliklar, hayvonlar va minerallardan olinadigan 1116 ta dorivor modda, ularning nomlanishi, bu nomlarning qaysi tillarga mansubligi (etimologiyasi) va sinonimlari, dorivor moddalarning shifobaxsh xususiyatlari, qaysi kasallikka va qanday qo'llanishi haqida batafsil ma'lumotlar beradi.

Abu Bakr Roziy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino davrlaridan boshlanib, XX asrgacha davom etgan tabobat va dorishunoslik tarixi, bu davrda yaratilgan ilmiy asarlar, ularda qo'llangan terminlar ma'lum ma'noda o'zbek xalq tabobati terminlarining, zamonaviy tibbiyot terminologiyasining shakllanishiga asos hisoblangan.

O'zbek tibbiyot terminologiyasi va barcha tibbiyot terminologiyalarining bunalik baynalmilal terminlarga boy bo'lishining asosiy sabablaridan biri XVII-XVIII asrlardan boshlab tibbiyotning rivojlanish markazi Sharqdan G'arbga, xususan, Yevropaga ko'chganligi va shu munosabat bilan ko'plab tibbiy tushunchalar - turli kasalliklar, patologik holatlar, simptom va sindromlar, sun'iy dori-darmonlar, son-sanoqsiz tibbiy asbob va apparatlar, kasallik qo'zg'atuvchi mikroorganizmlarni nomlash uchun yunon va lotin tillariga mansub lug'aviy va affiksial (prefiks va suffiks) elementlardan foydalangan holda minglab yangi terminlarning yaratilganligidir.

O'zbek tilidagi zamonaviy terminologik tizimlarni o'rganish, soha terminlarini to'plash, saralash, tartibga solish

va shu asosda lug'atlar tuzib nashr etish ishlari asosan o'tgan asrning 30-yillaridan boshlangan. Bu davrda tibbiyotga bevosita yoki bilvosita aloqador anatomiya, embriologiya, kimyo, botanika kabi fan sohalariga bo'yicha terminologik lug'atlar nashr etilgan bo'lsa-da [1], yaxlit tibbiyot terminologiyasini o'rganishga 50-yillarning oxiri - 60-yillarning boshlaridan kirishilgan. 1958-1970 yillar mobaynida O'zbekiston Sog'liqni saqlash vazirligining O'lka tibbiyot institutida akademik Yo. X. To'raqulov rahbarligida tibbiyotning barcha sohalariga oid terminlarni qamrab oladigan mukammal lug'at yaratish ustida jiddiy ish olib borildi va natijada ikki jildli "Ruscha-o'zbekcha meditsina lug'ati" tuzilib nashr etildi [10]. Lug'atda jami 19 380 terminologik birlik qamrab olingan bo'lib, ularning 11 445 tasi asosiy termin, 7935 tasi ana shu asosiy terminlar ishtirokida hosil qilingan birikma terminlardan iborat.

1978 - yilda nashr etilgan "Ruscha-lotinch-a-o'zbekcha meditsina lug'ati" [13] hajm jihatidan yuqorida zikr etilgan ikki jildlikdan ancha kichik bo'lsada, boshqa bir qancha afzalliklarga ega.

1994 - yilda nashr etilgan "Tibbiyot qomusiy lug'ati"da [14] hozirgi o'zbek tibbiyot amaliyotida keng qo'llanayotgan 6100 ga yaqin terminologik birlik berilgan va batafsil izohlangan. Ba'zi terminlarning sinonimlarini ham qo'shganda, bu miqdor 7000 taga yetadi, shundan 1210 tasini birikma terminlar tashkil etadi.

A. I. Qosimovning "Tibbiyot xodimlari lug'ati", to'rt jildli "Tibbiyot terminlari izohli lug'ati" [7] ham mazkur lug'atlardan, o'zbek tilida nashr etilgan turli xil tibbiy adabiyotlardan keng foydalangan holda yaratilgan lug'atlaridir. Bulardan "Tibbiyot xodimlari lug'ati" ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qismi "Ruscha-o'zbekcha tibbiy terminlar" deb nomlanib, 6430 ta terminologik birlikni qamrab olgan bo'lsa, ikkinchi qismi "O'zbekcha-ruscha tibbiy terminlar" deb atalib, 5700 ta terminologik birlikdan iborat.

Tibbiyotga doir so'nggi yillarda nashr qilingan lug'atlarga ikki jildli "Tibbiy terminlar ensiklopedik lug'ati" [12], "Katta tibbiyot o'quv lug'ati" [13] va "Tibbiy atamalar lug'ati" [8] ni misol qilib keltirish mumkin.

To'laboy va Qahramon Qurbonovlarning "Tibbiy atamalar lug'ati"da rus tibbiyot terminologiyasida qo'llanuvchi 3500 tadan ortiq termin va terminologik birikmalar berilgan. Bunda avval ruscha terminlar, ularning lotin tilidagi shakli keltirilib, so'ng qavs ichida shu terminning

qaysi tilga mansubligi, usha tildagi yozilishi va ma'nosi - etimologiyasi ko'rsatilgan.

Fan sohalarining terminologik lug'atlaridek tibbiyot terminologiyasi bo'yicha yaratilgan bir tilli yoki ikki tilli maxsus lug'atlar ham o'zbek tili izohli lug'atlarini yaratishda muhim manbalardan biri sanaladi. Tibbiyot sohasida yaratilgan va 560 tadan tortib 20 000 tagacha terminologik birlikni qamrab olgan turli hajmdagi maxsus lug'atlardan, xilma-xil tibbiy adabiyotlardan izohli lug'atga termin tanlab olish, ularning miqdoriy chegarasini belgilash, ma'no yoki ma'nolarini izohlash, etimologiyasini aniqlash va kerakli belgi (pometa)lar bilan ta'minlash murakkab jarayon hisoblanadi.

O'zbek tilining ikki jildli izohli lug'atiga 410 ta tibbiy termin tanlab olinib izohlangan bo'lsa, besh jildli izohli lug'atga 448 ta termin kiritilib, o'zlashma terminlarning etimologiyasi belgilanib, ularga tegishli izohlar berilgan, zarur o'rinlarda illustrativ materiallar bilan ta'minlangan. Agar ikki jildlikda berilgan terminlardan 15 tasi keyingi lug'atga kiritilmagani hisobga olinsa, besh jildli izohli lug'atda jami 843 ta tibbiy termin izohlangan. Lug'atga asosan sodda (bir so'zdan iborat) terminlar tanlab olingan bo'lib, 843 ta terminologik birlikdan atigi 32 tasi birikma termin.

Terminni to'g'ri talqin qilishning asosiy sharti-adresat va adresant aloqa jarayonida bir xil ma'lumotlarni amalga oshiradi. Konsepsiya mustaqil ravishda mavjud emas balki ma'lum tizimlarning birligi hisoblanib, kognitiv tilshunoslikda konsepsiya sohalariga sifatida aniqlanadi. Har qanday murakkab termin tizimi professional konsept sohasining aksi hisoblanadi. V.F. Novodranov ushbu konsepsiya uchun boshqa bir termin konseptini taklif qildi: fanning kognitiv haritasi [6].

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, zamonaviy tibbiy terminologiyaning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan va hissa qo'shib kelayotgan, qo'shni mamlakatlar terminologiya sohasida istiqbolli usullari bilan faoliyat olib borgan olimlarimizning ilmiy ishlarida ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, bugungi kunga qadar xorijiy olimlar yetarlicha tibbiyot termini va tibbiyot sohasini o'rganib kelishmoqda. Tibbiyot terminologiyasini diaxron va sinxron usulda, jumladan etimologik, morfologik, semantik, leksik, lingvokulturologik tomondan tahlil qilinib, o'rgangan holda bugungi holatini ochib berish, shuningdek, bugungi kundagi stomatologik terminlar lug'atini tuzish tamoyilini yaratib berish va dolzarb deb qaraymiz.

#### ADABIYOTLAR

1. Asg'ar A., Najmiddin T. X. Lotincha-o'zbekcha-ruscha normal makroskopik anatomiya terminlari so'zligi. - Toshkent, 1933; Rahmatullin 3. Ruscha-o'zbekcha embriologiya terminlari so'zligi. - Toshkent-Samarkand, 1934.
2. Bekishyeva E.B. Vestnik Nijegorodskogo universiteta im. N. I. Lobachevskogo, 2013, №4 (2), 260-264 c.
3. Dzuganova B. (2006). Negative affixes in medical English. Bratisl Lek Listy. 107 (8), p.332-335.
4. Mualliflar jamoasi. Tibbiyot qomusiy lug'ati (bosh muharrir - Yo. X. To'raqulov). - Toshkent, 1994. - 288 b.
5. Novodranova V.F. Latinskie osnovi meditsinskoy terminologii (imennoe slovoobrazovanie): Avtoref. dis. ...d-ra. filol. nauk. M., 1989. 47 c.
6. Novodranova V.F. Kognitivnaya karta nauki // Mejdunarodniy kongress po kognitivnoy lingvistike: Sb. materialov. Tambov, 2006. S. 69-70 c.
7. Qosimov A. I. Tibbiyot xodimlari lug'ati (ruscha-o'zbekcha, o'zbekcha-ruscha tibbiy terminlar). - Toshkent, 1998. - 272 bet; Qosimov A. I. Tibbiy terminlar izohli lug'ati. I-jild. - Toshkent, 2003. - 472 bet; II-jild. - Toshkent, 2003. - 568 bet; III-jild. Toshkent, 2008. - 576 bet; IV-jild. - Toshkent, 2008. - 480 b.
8. Qurbonov T., Qurbonov K. Tibbiy atamalar lug'ati. - Toshkent, 2011. - 396 b.
9. Rosita M. Understanding the language of medicine. - Aracne, 2009. - p.164.
10. Ruscha-o'zbekcha meditsina lug'ati. 1-jild (Abaziya - Myata). - Toshkent, 1962. - 366 bet; 2-jild (Nablyudenie - Yashur). - Toshkent, 1970. - 456 b.
11. Taylor R. The amazing language of medicine: understanding medical terms and their backstories. - Springer International Publishing AG, 2017. - p. 249.
12. Usmonxojayev A. H., Bositxonova E. I., Nazirov P. H., To'raxonova M. S. Tibbiy terminlar ensiklopedik lug'ati. 2 jildli. - Toshkent: Sug'diyona, 2010 (1-jild- 948 bet; 2-jild -1134 bet).
13. Yakubova S. I., To'laganov F. J. Ruscha-latincha-o'zbekcha meditsina lug'ati. - Russko-latinsko-uzbekskiy meditsinskiy slovar. - Toshkent, 1978. - 188 b.



*Dilfuza XATAMOVA,*  
*O‘zMU doktoranti, f.f.n., dotsent*  
*E-mail: xatamovadilfuza73@gmail.com*

*O‘zMU professori H.Boltaboyev taqrizi asosida*

## CURRENT ISSUES REGARDING THE TERMS OF LITERARY STUDY

Annotation

Reflecting on the problems of Uzbek literary studies terms, filling in the works published on this topic in Uzbek literary studies.

**Key words:** Literary terms, terminology, system, reform, dictionary, encyclopedia, textbooks, literature.

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ЛИТЕРАТУРОВЕДЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ

Аннотация

В данной статье затрагиваются некоторые аспекты проблем литературоведческой терминологии. Делается обзор работ, посвященных решению заявленных задач.

**Ключевые слова:** Литературоведческие термины, система, глобализация, неоднозначность, понятие, словари, энциклопедии, учебники, литературный процесс.

## ADABIYOTSHUNOSLIK TERMINLARIGA OID DOLZARB MASALALAR

Annatsiya

Ushbu maqolada adabiyotshunoslik terminlarini muammolari masalasida fikr yuritilib, o‘zbek adabiyotshunosligida bu borada nashr qilinayotgan ishlar qisman tahlilga tortilgan.

**Kalit so‘zlar:** Adabiyotshunoslik terminlari, terminologiya, sistema, istiloh, lug‘at, ensiklopediya, darsliklar, adabiy jarayon.

**Kirish.** Insoniyat XXI asrga qadam qo‘ydi, uning borliqni bilish va o‘rganish darajasi ham o‘ydi. Bu globalashuv jarayonda, fanlar, ilmlar aro bog‘lanish shidatli ravishda usib bormoqda, bu jarayon adabiyotshunoslik obyektini ham kengaytirishga zamin yaratmoqda: “Literaturovedeniye predstavlyayetsya ne naukoj o literature, a kooperatsiyey raznix literaturovedcheskix deyatelnostey i sodrujestvom voznikayushix na ix osnove sfer i dissiplin”[1]. Ilm sifatida uning oldida ham yangi-yangi muammolar yuzaga kelmoqda. Bu muammolar avvalam bor soha terminologiyasi bilan bog‘liq bo‘lib, ular o‘z navbatida, yechimlarini kutib qolmoqda.

Hozirgi zamon idrok jarayoni tubdan farq qiladi. Dunyoni anglash, uning manzarasi internet davrida tubdan farqlanib, insoniyatning bilim olish imkoniyatlarini oshiradi. Bu jarayon **har** bir sohaga, jumladan, milliy adabiyotshunoslikka ham, ko‘plab yangi tushunchalarni ifodalovchi terminlar kirib kelishiga sabab bo‘lmoqda. Ularni to‘g‘ri anglay olmaslik va istifoda qilmaslik ilmiy-tadqiqot ishlarida va badiiy asarlarni tahlil qilish amaliyotida qiyinchiliklar tug‘dirmoqda. Masalan, xorijiy adabiyotshunosligida keng qo‘llanilayotgan globalizm, germeneytika, germeneytik interpretatsiya (talqin), germeneytik doira, badiiy moduslar, kompensatornaya funktsiya literaturasi kabi adabiyot, san‘at va estetikaga oid termin va tushunchalarni **hattoki** oliy o‘quv yurtlarida adabiyotshunoslikdan ta‘lim berayotgan o‘qituvchilarning ko‘pchiligi to‘g‘ri talqin qila olmaydi. Vaholanki, adabiyotshunoslikda istifoda etilayotgan terminlar va tushunchalar talabalar tomonidan aniq, puxta o‘zlashtirilgandagina tahlil qilinayotgan asar mohiyatini tushunishga va uni adabiyotshunoslikdagi mavjud hodisalar bilan bog‘liq holda tadqiq etishga imkoniyat tug‘iladi. Eng achinarlisi shundaki, soha mutaxassisi sifatida yetishtirilgan bunday kadrlar ertaga badiiy asar tahliliga qul uradi va uquvchilarni asarni notug‘ri talqin qilish yulidan olib boradi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Mustaqillik davriga kelib adabiyotshunoslikdagi bir qancha ilmiy muammolar o‘z yechimini topa boshladi. Adabiyotshunoslikda ana shunday dolzarb muammolardan sanalgan adabiyot terminlarining shakllanishi, qo‘llanilishi va tarjimasiga doir bajarilgan ishlarining so‘ngisi o‘tgan asrning 70- yillarida yaratilgan edi. Rus tilida 1962 - yilda tuzila boshlangan “Kratkaya literaturnaya ensiklopediya” 1978 yilda nihoyasiga yetkazildi, L.I. Timofeyev va S.V. Turayev tomonidan “Slovar literaturovedcheskix terminov” (1974) nashr etildi. Shu davrdan o‘zbek tilida ham ana shunday yo‘nalishdagi lug‘at yaratishga kirishildi. So‘ngra N. Hotamov va B. Sarimsoqov tomonidan ikki tilli adabiyotshunoslik terminlarining lug‘ati (1979, 1983) chop ettirildi. Ayni davrda rus tilida “Literaturniy ensiklopedicheskiy slovar” yaratildi (1987), Y. Borev tomonidan tuzilgan “Estetika” lug‘atida (1988) adabiyotshunoslik masalalariga keng o‘rin berildi. XX asrning 90 - yillarida va XXI asr boshlarida o‘nlab lug‘at va ensiklopediyalar chop etilganiga qaramay, shu vaqtga qadar o‘zbek tilida yuqorida tilga olingan lug‘atlardan boshqalari yaratilmadi.

Adabiyotshunoslikda adabiyot terminologiyasi masalalari nazariy adabiyotlar tarkibida berilgani va ayrim terminlarning izohi yuzasidan bildirilgan mulohazalar L.I. Timofeyev, G.N. Pospelov, Y. Borev, V.YE. Xalizev, N. Tamarchenko va boshqalar tomonidan yaratilgan “Adabiyot nazariyasi” kitoblarida va “Adabiyotshunoslikka kirish” darsliklarida aks etgan. Xuddi shuning kabi O‘zbekistonda I. Sultonov, H. Umurov muallifligida chop etilgan “Adabiyot nazariyasi” va T. Boboyev tomonidan yaratilgan “Adabiyotshunoslik asoslari”, M. Mahmudov va boshqalar, E. Xudoyberdiyev, D. Quronov, A. Ulug‘ov yaratgan “Adabiyotshunoslikka kirish”, “Adabiyot nazariyasi asoslari” darsliklarida ham masalaning ayrim jihatlarini o‘z aksini topgan.

Adabiyotshunoslikda terminologiya masalalari, ularning nazariy qamrovi va ifoda shakllari bo‘yicha rus tilida

V.V. Kurilov, M.A. Saparov, D.S. Lote, L.V. Chernets, K.R. Babadjanova tadqiqotlarida bayon etilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot metodologiyasi sifatida qiyosiy-tarixiy va tahliliy metodlardan foydalanamiz va muammolarni ko'rib chiqish jarayonida har bir masala borasida tadqiqot obyektimizni genezisi, evolyutsiyasi va hozirgi xolatiga tayanamiz.

**Tahlil va natijalar.** Soha terminologiyasining, jumladan, adabiyotshunoslik terminlarining bugungi holatini, fan oldida turgan muammolarni o'rganish va bu yo'ldagi to'siqlarni bartaraf etish uchun ularni rus tili orqali bizga kirib kelgan adabiyotshunoslik terminlari bilan qiyosiy o'rganish muammosi dolzarb masala bo'lib turibdi. Adabiyotshunoslik oldida turgan ana shu dolzarb muammoni o'rganmay turib, bu sohada yangi terminologik va ensiklopedik lug'atlar yaratish ishiga kirishish mushkul.

Aynan belgilangan masalamizga to'xtalar ekanimiz, adabiyotshunoslik terminlari va terminologiyasi muammolari soha mutaxassislarining doimiy diqqat markazida turgan va ilmiy munozaralarga sabab bo'layotgan mavzulardan sanaladi. Aristotel davridan tortib hozirgi kunga qadar tushuncha – termin – terminologiya – badiiy matn munosabatlari nazariy aspektida ham, badiiy asarni tahlil qilish tajribasida ham dolzarblilik kasb etadi.

Yuqorida qayd qilganimizdek, o'tgan mana shu muddat davomida adabiyotshunoslik ilmida qator yangi sohalar vujudga keldi, xorijiy xalqlar adabiyotshunosligidan o'zbek tiliga ko'plab yangi terminlar kirib o'zlashdi. Qolaversa, milliy tilimiz imkoniyatlari asosida ham anchagina terminlar yasaldiki, bugungi kunda ularni izchil tizimga solish, izohlash zarurati tug'ilmoqda. Terminologiya masalalari nazariy adabiyotshunoslikning doimiy diqqat markazida turishi, ilmiy iste'molga kirib kelayotgan yoxud iste'moldan chiqib ketayotgan har bir terminni tahlil va talqin qilish, uni ilmiy jihatdan o'rganib, adabiy jarayonga olib kirib "joriylashtirish", o'zbek tilidagi muqobil variantlarini yaratish va ularni badiiy tahlil amaliyotiga tatbiq etish ana shu tarmoqning muhim vazifasidir. Ayni masalada Y.B. Borev o'zining "Estetika. Teoriya literatur / Ensiklopedicheskiy slovar terminov" ("Estetika. Adabiyot nazariyasi. Terminlarning ensiklopedik lug'ati") asarining so'zboshisida: "Bez sistemi terminov nikakaya nauka sushestvovat ne mojet", - deya qayd etgan edi [2]. Ma'lum bo'ladiki, terminlar sistemasiga ega bo'lmagan fan sohasi o'z mazmun mohiyatini yuqotadi. Bu jihatdan B.N.Golovining « Термини каждой отрасли или научной дисциплины представляют собой упорядоченный набор понятий, которые находятся между собой в системных отношениях» [3] degan fikri yuqorida qayd qilinganlarni isbotidir.

Demak, har bir fan mustaqil ilm sohasi sifatida rivojlanishi uchun o'zining terminologik bazasiga ega bo'lishi, ularni amaliyotga to'g'ri tatbiq etishi va badiiy tahlil tajribasida qo'llay bilishi lozim bo'ladi. Ushbu vazifalarni bajara olmagan fan sohasi globallashuv davrida turli ilmlar va tizimlarning kesishmasida o'z ahamiyatini yo'qotishi mumkin.

O'zbek adabiyotshunosligida ham bugungi kunga qadar adabiyotshunoslik terminlari bo'yicha bir necha izohli lug'atlar tuzilgan. Ularning ayrimlari o'z davri uchun ahamiyatli sanalsa, ayrimlari muayyan ilmiy masalalarni o'rganishda hozir ham o'z qimmatini yo'qotmagan. Biroq, tan olmoq kerak, H. Homidiy va boshqalar tomonidan yaratilgan "Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati"[4], N.Hotamov va B.Sarimsoqov tomonidan tuzilgan "Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati"[5] kabilar terminlar qamravi, ilmiy izohlash prinsiplari jihatidan bugungi adabiyotshunosligimiz talablariga javob bera olmay qoldi. D.Quronov boshchiligidagi 2010 - yilda nashrdan chiqqan "Adabiyotshunoslik lug'ati"ga[6] ham qariyb 13 yil o'tdi. Ushbu muallif tomonidan chop etilgan "Adabiyot nazariyasi

asoslari" (2018) [7] darsligiga nazar solar ekan biz, adabiyotlar ruxxati olimning Borev maktabi tarafdorlarini ishlarini batafsil o'rgananligi, struktural poetik maktab qarashlari bilan darslikni boytganliklarini, G'arb adabiyotshunoslilari ishlarini ham jalb qilib, ularning fikrini aks ettirganini ko'rishimiz mumkin. Lekin bu darslik o'z oldiga quyigan vazifalardan kelib chiqqan xolda hozirda adabiyot ilmiga kirib kelayotgan o'nlab **hattoki** yuzlab terminlarni qamrab ololmaydi. Adabiyotshunoslik doirasida yangi yunalishlar vujudga kelmoqdaki ular xa o'z talqinini bizning olimlarimiz tomonidan qilinishini kutmoqda. X.Boltaboyevning 2015 - yilda chiqqan "Adabiyot ensiklopediyasi" (1 tom) o'zbek adabiyotshunoslariga yana bir tuxva bo'ldi. Ushbu ensiklopediya o'z ichiga nafaqat atamalar(terminlar) va istilohlar (ponyatiya)talqinini,balkim asarlar va nashrlarga sharx berishni ham maqsad qilib olgan. Shu **o'rinda** tuzuvchilar istiloh tushunchasini ishlatib, "...ilmiy bilim va tushunchalar qamrovini birgina atama so'zi o'zida tuliq aks ettira olmaydi. ...Qolaversa atamaning bir ma'noli, istiloh esa qamrov nuqtai nazaridan bir necha ma'nolarni ham o'zida aks ettirishi mumkinligi inobatga olinadi"[8] deb tushuntirish berib ketadi. Demak, termin va tushunchalar urniga atama va istiloh so'zlari ishlatilmoqda. Bu xolat ham, albatta, barcha olimlarimizda birdek munosabat tug'dirmaydi.

Adabiyotshunoslik terminlari sohasidagi kishini qoniqtirmaydigan holatning vujudga kelishida, yuqorida aytganimizdek, soha xodimlarining bunday masalalar bilan shug'ullanmay qo'yishi, ayrim hollarda esa yangi kirib kelayotgan va milliy adabiyotshunoslikda ekvivalentlari bo'lmagan terminlarni o'rinsiz holda milliyashtirishga urinishlari, ularni "sig'dirmaslik"ka intilishlari ham sabab bo'lmoqda.

**Xulosa va takliflar.** Yuqorida qayd etilgan holat va sabablar bugun adabiyotshunoslik terminlari bilan jiddiy ravishda maxsus shug'ullanishni taqazo etadi. Qolaversa, bu narsa faqat soha mutaxassislari tomonidan o'rganilishi, terminlar bilan munosabatda bo'lishning ilmiy prinsiplari haqida tavsiyalar berish zarurligini ham talab etadi.

Terminologiyaning, xususan, sohalar terminologiyasining nazariy hamda amaliy masalalari haqida rus va o'zbek tilshunosligida ayrim tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ammo, o'zbek adabiyotshunoslarining fan ravnaqi yo'lidagi zahmatini kamsitmagan holda, adabiyotshunosligimizda bu xildagi tadqiqot mutlaqo uchramasligini ham qayd etish lozim. Bu sohada XX asrning 90- yillarida birgina prof. B. Sarimsoqovning "Atama – ilmiy madaniyatimiz ko'zgusi" nomli maqolasi e'lon qilindi. Unda adabiyotshunoslik terminologiyasida ro'y berayotgan ayrim jarayonlar, ularning yuzaga kelish sabablari va bartaraf etish yo'llari qisqacha bayon etilgan. Jumladan, maqolada "Adabiyotshunoslik terminlarini tartibga solishning eng muhim muammolaridan biri ilmiy ishlarda, vaqqli matbuotda e'lon qilinayotgan maqola va taqrizlarda mualliflar tomonidan va ilmiy tajriba hamda an'anada e'tirof etilgan atamalarni qo'llashga, boshqacha qilib aytganda, terminologiyada boshboshdoqlikka yo'l bermaslik lozim..." deyilgan[9].

Adabiyotshunoslik badiiy adabiyotning o'ziga xos jihatlarini, taraqqiyot qonuniyatlarini o'rganuvchi fan ekan, uning "o'z tili" hamda maxsus tushunchalarini mutaxassislarga anglatish uchun ham terminologik bazasiga ega bo'lishi kerak. Ochig'ini aytganda, keyingi paytlarda adabiyotshunoslikning ichki tarmoqlari o'rtasida tafovut kamayib bormoqda. Masalan, ayrim olimlar, publitsistik yo'nalishda tanqidchilik, adabiyot tarixi va nazariyasi kabi sohalarining mutaxassislarini o'zlariga o'xshab ommabop uslubda maqolalar yozishga da'vat qilmoqdalar. Bu hodisaning oqibati nazariy adabiyotshunoslik va uning terminologiyasiga jiddiy zarar yetkazishi aniq. Shuning uchun adabiyotshunoslik hamma vaqt o'zining terminlar xazinasini

boyitishi, uni zamonaviy jahon adabiyotshunosligi darajasiga ko'tarish uchun intilishi zarur.

#### ADABIYOTLAR

1. Курилов В.В. Курилов В.В. Теория литературы в системе литературоведческого знания: Автореферат дис.д.ф.н.-М.: МГУ, 2005. – С. 23
2. Боров Ю.Б. Эстетика. Теория литературы / Энциклопедический словарь терминов. – М.: Асртель, 2003. – С. 3
3. Лейчик В. М. Терминоведение: предмет, методы, структура / В. М. Лейчик. – Москва: Изд-во ЛКИ, 2007. - .С 25
4. Ҳомидий Ҳ., Абдуллаева Ш., Иброҳимова С. Адабиётшунослик терминлари луғати. - Т.: Ўқитувчи, 1967. 240 б.
5. Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1979. 368 б
6. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. Т.: Академнашр. 2010.
7. Қуронов Д. Адабиёт назарияси асослари. Т.: Навоий университети. 2018
8. Адабиёт энциклопедияси: (атамалар, истилоҳар, сиймолар, асарлар ва нашрлар). Т.: “МУМТОЗ СЎЗ”. 2015. Б. 5-6
9. Саримсоқов Б. Атама – илмий маданиятимиз кўзгуси. // “Ўзбек тили ва адабиёти”. – 1995. 3- сон. – Б. 41–51.



UDK: 654.19:008 (575.1)

Sevinch XUSHNAZAROVA,  
O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti  
E-mail: Sevinch.norkobilova@gmail.ru

F.f.nomzodi, dotsent M.Sobirovna taqrizi asosida

### TODAY'S SPIRITUAL FEATURE OR ISSUES OF SPIRITUALITY AND ENLIGHTENMENT ON TELEVISION

Annotation

In this article, the programs on the television of Uzbekistan, which play an important role in the development of a person, and the extent to which these programs perform their tasks in the mind and psyche of people are scientifically and practically researched. At the same time, the impact of spiritual-educational TV programs covered, the topic, journalistic skills and approach were analyzed practically.

**Key words:** Spirituality, enlightenment, TV channel, television, journalist, show, prank, wine.

### СЕГОДНЯШНИЙ ДУХОВНЫЕ ОБРАЗЫ ИЛИ ДУХОВНО-ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ НА ТЕЛЕВИДЕНИИ

Аннотация

В данной статье научно и практически исследованы передачи на телевидении Узбекистана, которые играют важную роль в развитии человека, и в какой степени задачи этих передач в сознании и психике людей. При этом проанализировано влияние духовно-просветительских телепередач, их тематика, журналистское мастерство и подход.

**Ключевые слова:** Духовность, просвещение, телеканал, Телевидение, журналист, шоу, пранк, вайн.

### BUGUNNING MA'NAVIY QIYOFASI YOXUD TELEVIDENIYEDA MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT MASALALARI

Аннотация

Ushbu maqolada O'zbekiston televideniyesidagi ko'rsatuvlarda insonning kamlotida muhim o'rin tutuvchi ko'rsatuvlar haqida, bu ko'rsatuvlarning insonlar ongi, ruhiyatidagi vazifalari qay darajada ketayotgani ilmiy-amaliy jihatdan tadqiq etilgan. Shu bilan birga, yoritilayotgan ma'naviy-ma'rifiy teledasturlarning ta'siri, mavzusi, jurnalist mahorati-yu, yondashuvigacha amaliy tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** Ma'naviyat, ma'rifat, telekanal, televideniye, jurnalist, ko'rsatuv, prank, vayn.

**Kirish.** Jurnalistika yuksalsa, millat ham taraqqiyotga yuz buradi. Zero, jurnalistika o'zida bir necha san'at va madaniyat ko'rinishlarini umumlashtirgan, bag'rida jo qilganligi bilan tahsinga sazovordir va san'atga, madaniyatga e'tibor – bu avvalo xalqimizga e'tibor, kelajagimizga e'tibor ekanini yodda saqlashimiz kerak. Buyuk shoirimiz, jadid adabiyotining yorqin namoyondasi Cho'lpon aytganidek, adabiyot, yashasa, millat yashaydi. Madaniyat, ma'rifat rivojlanadi, yuksaladi. Bu fikrlarni to'ldirgan holda aytishim mumkinki, jurnalistika yashasa ham millat yashaydi, muammolar o'z yechimini topadi. Jurnalistlari botir, madaniyati yuksak bo'lgan xalq – hech qachon muammolar girdobida qolmaydi.

Bugun sir emaski, jadallashuv urf bo'lgan hayotda jurnalistika oldinga qarab chiqib bormoqda. Bu esa o'z navbatida so'zga bo'lgan e'tibor va mas'uliyatni ortishiga, ma'naviyat va ma'rifat tushunchalarining kengayishiga xizmat qiladi.[7] Oynai jahon orqali namoyish etilayotgan ko'rsatuvlarning ta'sir kuchi shu qadar yuksakki – u omma ongiga sezilarli kirib boradi. Mana nima uchun ma'naviy-ma'rifiy ko'rsatuvlarga ehtiyoj seziladi. Chunki ularda ma'naviy taqdirimiz bor, shov-shuv xabarlardan bezillab qolgan odamlarga taskin bor. Filologiya fanlari doktori, ustoz Beruniy Alimov aytganlaridek: "Insoniyat "globallashuv" deb atalgan yangicha hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yilgan va bu aloqalar jadal sur'atlarda kengayib, chuqurlashib borayotgan yangi taraqqiyot bosqichiga chiqdi. Buning natijasida "globallashuv" so'zi iqtisodiygina emas, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy va boshqa qariyb barcha sohalardagi umuminsoniy jarayonlarni qamrab oluvchi tushunchaga aylanib ulgurdi".[3] Chindan ham bu tushunchani bugun barcha jabhalarda qo'llash urf bo'ldi. Sababi, yuqorida

aytganimizdek hayot shiddat bilan harakatda ketmoqda, hammaning qandaydir o'z haqiqati, o'z yo'li bor.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Televizion ko'rsatuvlar mavzusiga to'xtalar ekanimiz, bugungi tomashabin avvalgidek sadoqatli emas, deya ayta olamiz. Avvallari uylarda birgina televizor va sanoqli telekanallar bor edi, hozir esa tanlov masalasi ancha yuqorilagan. Shu sababli, jurnalistik adabiyotlar bilan birga, jahon jurnalistikasining nodir durdonalaridan ham foydalandim. Shu bilan birga, Nurmatov M.ning The world of the future in modern science fiction: the specifics of the artistic model. Problems of broadcasting kitobi maqolani yozilishida qo'l keldi. Shuningdek, fan arboblari ziyoli qatlamning ham ilmiy maqola va risolalaridan foydalanildi.[1]

**Tadqiqot metodologiyasi.** Bugungi globallashuv, tezkorlik, axborot olamida inson hayoti har qadamda va har soniyada turli axborotning xavf-xatari ta'siri ostida turibdi. Bu kelib chiqayotgan muammolarni omma ongiga singdirish asosiy masalalar sifatida keng maydonga chiqmoqda. Bu vazifalarni bajarish albatta, ommaviy axborot vositalari sohasida faoliyat olib borayotgan mutaxassislarining, jurnalist va qalam ahlining asosiy burchlari hisoblanadi.

Ijtimoiy tarmoqlarda go'yo "ma'naviyat"ni ko'rsatish maqsadida ulashilayotgan videolarni ko'rib qotib qolyapmiz. Tan olish kerak, hamma videolarni ham birdek yomon deb ayta olmayman, ammo kuni kecha guvohi bo'lganimiz bir videoda Mohlaroyim obrazi va ushbu obrazga qilingan "ma'naviy tahdid" ko'pchilik ziyolilarning e'tiborini tortdi va hatto ayrim ziyolilarning raddiya bilan chiqishlariga ham sabab bo'ldi. Jumladan, shoir, Yozuvchilar uyushmasi a'zosi Botirjon Ergashevning quyidagi fikrlari "Facebook" ijtimoiy tarmog'ida katta muhokamalarga sabab bo'ldi va izohlarda

deyarli hamma u bilan hamfikir ekanliklarini bildirishgan. "Bugun tomiringda qon oqib turibdi, tiriksan, tavba qilishga imkonlaring bor, tavba qil, ertangga kafolat yo'q. Mohlaroy, deb nomlab olgan uyatsizning uyida ishtonlarning qolib ketganini aytib, kimni kuldirmoqchisanlar? Xalqning yuzidagi hayoni sidirishni bas qilinglar, oqibati yomon bo'ladi". Mana, ma'naviyat masalasi nima uchun dolzarb. Mana, ziyolilar nima uchun oyoqqa turishyapti!

**Tahlil va natijalar.** Aslida, ma'naviyat nima degani? "Ma'naviyat" (معنويات) so'zi arab tilidan olingan bo'lib, odob-axloq majmui degan ma'noni bildiradi. Mustaqillikkacha bo'lgan o'zbekcha lug'atlarda bu so'z yo'q. "Ma'naviy" so'zi ishlatilgan, lekin ot sifatida "ma'naviyat" so'zi 1981 yili chiqqan "O'zbek tilining izohli lug'ati"da ham mavjud emas. 2006 yili chiqqan yangi "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "ma'naviy" so'zi izohida "ma'naviy, aqliy, axloqiy, MAVHUM" ta'rifi ham keltirilgan.[4]

"Ma'naviyat" so'ziga katta ehtiyoj Mustaqillikdan so'ng sezildi. G'oyaviy jihatdan ham nochor bo'lgan xalqning ehtiyojini qondirish juda zarur edi. Ma'naviyat bu borada juda yaxshi ma'naviy ozuqa edi. O'z tarixi, ilm-fani, qadriyatlariga tashna xalq uchun Ma'naviyat g'oyasining singdirilishi uning uyg'onishida yaxshi natijalarga olib kelgan.

Ma'naviyat — oliy axloqiy tushunchalar majmui. Lekin har qanday vaziyatda, har qaysi holatda ham ma'naviyatni ustun qo'yish, ma'naviyatsizlikni sabab qilib ko'rsatish yaramaydi. Har kuni asal yeyaversangiz, bir haftadan so'ng me'dangizga tegadi. Masalan, bolaning xato (jinoyat) qilishiga har doim ham uning va oilasining ma'naviyatsizligi sabab bo'lavermaydi. Ma'naviyat uchun avval sharoit yaratiladi. So'ng talab qilinadi.

Jurnalist, ziyou.uz sayti bosh muharriri Davronbek Tojialiyevnig ma'naviyat haqida aytgan ushbu gaplarini misol tariqasida keltirmoqchi edim:

"Ma'naviyat — yaxshi tushuncha. Lekin uning targ'ibotchilari ma'naviy yetuk bo'lmasa, hayotda, amalda teskari harakat qilsa — undan ortiq yomonlik yo'q. [5] Asalning shirinligini doim ta'kidlash shart emas. Zero, uni hamma biladi. Tomoqni zaxalamaydigan qilib, vaqtida, kerak paytida yetkazilsa, bas". [9]

Matbuot jurnalistikasi maktabining asoschilaridan biri, mohir jurnalist, publitsistik maqolalari bilan tanilgan, maqolalari haligacha qo'lma-qo'l o'qiladigan yozuvchi Ahmadjon Meliboyev ham mavzu doirasida jim tura olmadilar:

"Ma'naviy tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'ymay turib, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, muammolarning kelib chiqishi umumma'naviy tarbiyada yuzaga kelgan bo'shliq, beparvolik bilan bog'liq. Ma'naviyat oqsasa ilmiy taraqqiyot to'g'ri yo'ldan chalg'ishi mumkin — bugun dunyoning favqulodda iste'dodli olimlari, tug'ma qobiliyat egalari sog'liqni saqlash, atrof-muhitga zarar yetkazmaslik, inson maishiy turmushini yaxshilash muammolari bilan emas, zamonaviy qurol-yarog'lar yaratish bilan shug'ullanmoqdalar.

Taassufki, inson aql-zakovatining yuksak samarasi bo'lgan internet omborlari behayolik, zo'ravonlik, bosqinchi va talonchilik, zino va boshqa illatlar bilan to'lib-toshgan. Matbuot xabarlariga qaraganda, bu tizimda yoshlarni o'z-o'zini, boshqa gunohsiz odamlarni o'ldirishga o'rgatuvchi son-sanoqsiz saytlar bor ekan. Ma'naviyat bir chetga surib qo'yilsa, yangi boylar xayr-sahovat, muruvvat yo'lini qo'yib, hoyu havasga, tuturiqsiz harajatlarga beriladilar, bema'ni urf-odatlarini o'ylab topadilar va shu ishlari bilan nom qozonadilar.

Dunyo dunyo bo'lib, pul, boylik yuzaga kelganidan beri hech bir boyvachcha "Bo'ldi, mol-mulkim oshib-toshib ketdi, boshqalarga ham qolsin", degan emas. Ma'naviyatli kishi, agar uning atigi bir kunlik rizqidan boshqa hech vaqosi

bo'lmasa ham, shukur qiladi, shu rizqni og'ziga solayotib, boshqalar to'g'risida ham o'ylaydi.

Bundan anglashiladigan xulosa shuki, endilikda dunyoni kuch, boylik, qurol-yarog', do'q-po'pisa emas, imon-e'tiqod, fahm-farosat, aql-idrok, ta'lim-tarbiya bilan mujassamlashgan ma'naviyat qutqaradi".[6]

Bugun dunyoda iqtisodiy sohada — o'zga mintaqalardagi tabiiy boyliklar ustidan nazoratni qo'lga kiritish, mafkuraviy sohada — turli xalqlarning asrlar davomida shakllangan turmush tarzini o'z manfaatlarini yo'lida "isloh" qilish, yoshlar ongi va qalbini egallash, ularni to'g'ri yo'llardan chalg'itish kabi nosog'lom xatti-harakatlar tobora kuchayib bormoqda.

Bunday harakatlar bir qarashda ko'zga uncha tashlanmaydigan, deyarli beozor bo'lib ko'rinadigan va hatto qiziqarli, jozibali shakllarda olib boriladi. Moddiy manfaatdorlik va'da qilinadi.

Hayotiy tajribasi yetarli bo'lmagan yoshlar bunday "joziba"ga tez mahliyo bo'ladilar va o'zlari bilmagan holda kimlarningdir to'riga ilinib qoladilar. Yoshlarni bunday halokatdan asrashda badiiy adabiyot, ma'naviyat va ma'rifat targ'iboti xaloskor kuchga aylanadi.

Biz ajdodlarimizni tanish haqida bong urayotgan bir paytda, ayrimlar ularni bilib-bilmay mazax qilsa. Shunday holatlarda ommaviy axborot vositalari, ayniqsa televideniye tizimini mahkam qo'lga olishi kerak. Ma'naviyat, ma'rifatni targ'ib qiluvchi, madaniyatga chaqiruvchi ko'rsatuvlarni ko'proq efirga uzatishi, imkon qadar ma'rifatga oshno bo'lishi uchun harakat qilmog'i darkor. Jumladan, ustoz, adabiyotshunos, olim Bahodir Karimov o'zbek adabiyotining, o'zbek ma'rifatining mavqeyi haqida fikr yuritir ekan, shunday deydi: "Ayni zamonda adabiyotshunoslik ilmi Abdulla Qodiriy hayoti va ijodini, «O'tkan kunlar», «Mehrobdan chayon»dek go'zal romanlariga munosabat tarixini qayta idrok etish, qayta baholash, qayta talqin qilish jarayoniga qadam qo'yd:

Azaliy haq gapni yashirmoq nechun,

Zavol yo'q eng asl iste'dod uchun.

Agarda koinot tegirmon bo'lib,

Olamni yanchsa ham, qolgay u butun".[2]

Eng katta ziyoli qatlamni ommaga ko'rsatayotgan "Madaniyat va ma'rifat" telekanalini olaylik. Ushbu telekanal dasturlarida ma'naviyatga oid juda ko'plab ko'rsatuvlar namoyish etiladi. "Fikrlayotgan odam", "Qaqqus", "Asliyat sadolari", "Fonoteka", "Debyut", "Unutilmas siymolar", "Umr daftari" kabi ko'rsatuvlarida hayot haqida, insoniylik, umuman ma'naviyat-ma'rifatga oid barcha jabhalar haqida so'z boradi. Ayniqsa, "Fikrlayotgan odam" ko'rsatuvu muallif, yozuvchi Nazar Eshonqul tomonidan "boshqariladi". Yarim soat davomida bir mavzu ochib beriladi. Masalan, Hazrat Navoiy ijodiga, shaxsiga bag'ishlangan ko'rsatuvda Alisher Navoiyning nafaqat ijodi, balki shaxsiga oid hech qayerda uchramagan ma'lumotlarni olishingiz mumkin. Shu bilan birga, Navoiyning g'azallaridan misollar keltirib, shoir aslida nima demoqchi ekanligini ochiqchasiga ochiqlab ketganlar. Ushbu ko'rsatuvdan so'ng Navoiy shaxsiga, ijodiga yanada qiziqishingiz, hurmatingiz yuksaladi.

Yilning yana bir olovli loyihalaridan bo'lmish "Qaqqus"da biz faqat she'r tinglamaymiz, balki so'z zalvorini, so'z qudratini tuyamiz. Jurnalist, shoir Shuhrat Orifning mualliflikdagi ushbu ko'rsatuv haqiqatdanam nomiga monand. Avvalo, siz tinglaysiz, so'zlarni tahlil qila boshlarkansiz yonishni, kuyib, alanga haroratini his qilishni boshlaysiz. So'ngra jimlik cho'kadi-yu, bari yana qaytadan boshlanadi. Yana yangi she'r, ijodiy suhbat... Barchasida ruh bor, yuqorilik bor, ongga ma'naviy yurish bor... Bu kabi ko'rsatuvlarni ko'proq tomosha qilish kerak, chunki har bir ko'rsatuvni tomosha qilish asnosida siz bitta kitob o'qiganchilik ozuqa olasiz.

**Xulosa va takliflar.** Men ijtimoiy tarmoqlardan yo boshqa vositalardan uzulib, televizor ko'ring, deyishdan yiroqman. Shunchaki, vaqingizni zoe ketqizmang, hali ko'rishimiz uchun arziydigan ko'rsatuvlar ko'p, ular ma'rifat, bir kitob bera oladigan bilim va energiyani bera oladi, demoqchiman xolos. Zero, ma'naviyat va ma'rifat masalasi – har qanday inson va har bir millat uchun zarurdir.

Bugungi dunyoning o'ziga xos xususiyati shundaki, rivojlangan, iqtisodi baquvvat davlatlar ham, bu yo'lga endi-endi kirib kelayotgan mamlakatlar ham o'zaro hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yishda, o'zining shaxsiy manfaatidan kelib chiqadi. Yirik davlatlar iqtisodi endi-endi oyoqqa

turayotgan mamlakatlarga ma'lum ma'noda iqtisodiy, siyosiy va boshqa bosim ham o'tkazadi. Iqtisodiy tazyiqni sezish oson, ammo mafkuraviy tazyiq ko'rinmas bir ofat yanglig' xalq, millat hayotiga pistirib kirib keladi va ildiz otadi. Iqtisodiy tanglikni yengish mumkin, ammo ma'naviy tanazzul oqibatlarini tugatish g'oyat murakkab vazifa.

Demak, milliy tiklanishdan milliy yuksalish yo'lga o'tayotgan O'zbekiston uchun ma'naviy tarbiya bugun har qachongidan ko'ra ham ahamiyatlidir. Davlatimiz rahbarining qarorida bu borada amalga oshirilishi lozim bo'lgan birlamchi muhim vazifalar belgilab berilgan.

#### ADABIYOTLAR

1. Nurmatov M.M. 2021. The world of the future in modern sciencye fiction: the specifics of the artistic model. Problems of broadcasting, (1), 78-85 (in English) – 24 б
2. Раҳматуллаев Ш.Тил курилишининг асосий бирликлари. - Тошкент, 2002. – 15 б
3. <https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/bahodir-karim-abdulla-qodiriy-yangicha-talqin.html>
4. <https://beruniyalimov.uz/archives/category>
5. <https://www.gazeta.uz/oz/2018/08/27/manaviyat/>
6. <https://oyina.uz/uz/article/120>
7. <https://yuz.uz/uz/news/manaviyat--milliy-yuksalish-poydevori>
8. <https://yuz.uz/uz/news/manaviy-yangilanish--bunyodkor-xalqimiz-qudrati-ozaro-birdamlik-ruhidagi-ezgu-intilishlarida--namoyon-bolmoqda>
9. <https://www.xabar.uz/uz/jamiyat/matbuotning-yuki-engil-emas-birinchi-maqola>



*Gulchekhra KHABIBULLOEVA,*  
*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi*  
*Nasiba KHUSHBAKOVA,*  
*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi*  
*Gulnora MENGNIYOZOVA,*  
*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi*  
*E-mail: rustamkhurramov@mail.ru*

*TerDU dotsenti Sh.Yakubov taqrizi asosida*

### SIMILARITIES AND DIFFERENCES OF SURKHAN DIALECT WITH UZBEK LITERARY LANGUAGE

Annotation

In this article, the great relevance of Uzbek dialect and Surkhan dialect is discussed. Catching Surkhan dialect can be challenging for people, though there are some similarities and differences between Uzbek dialect and literary language, as well as in its writing form. Uzbek language has spoken in this region for hundred years and in this research the historical and modern ways of using them is compared.

**Key words:** Kipchak dialect, oguz, research, reduction, method, comparative, experimental, territory, republic, component.

### СХОДСТВА И РАЗЛИЧИЯ СУРХАНСКОГО ДИАЛЕКТА С УЗБЕКСКИМ ЛИТЕРАТУРНЫМ ЯЗЫКОМ

Аннотация

В данной статье обсуждается большая актуальность узбекского диалекта и сурханского диалекта. Уловить сурханский диалект может быть непросто для людей, хотя между узбекским диалектом и литературным языком, а также в его письменной форме есть некоторые сходства и различия. На узбекском языке в этом регионе говорят уже сто лет, и в этом исследовании сравниваются исторические и современные способы его использования.

**Ключевые слова:** Кыпчакский диалект, огуз, исследование, редукция, метод, сравнительный, экспериментальный, территория, республика, компонент.

### SURXON SHEVASINING O'ZBEK ADABIY TILI BILAN O'XSHASH VA FARQLI TOMONLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek shevasi va Surxon shevasining katta ahamiyati haqida so'z boradi. Surxon shevasini ushlab odamlar uchun qiyin bo'lishi mumkin, garchi o'zbek shevasi bilan adabiy til o'rtasida, shuningdek, yozuv shaklida o'xshashlik va farqlar mavjud. Bu hududda o'zbek tili yuz yillardan beri so'zlashadi va ushbu tadqiqotda ulardan foydalanishning tarixiy va zamonaviy yo'llari solishtiriladi.

**Kalit so'zlar:** Qipchoq shevasi, o'g'uz, tadqiqot, reduksiya, usul, qiyosiy, tajriba, hudud, respublika, komponent.

**Introduction.** It is known that the history of the study of our dialects dates back to the 20s of the 20th century and continues to this day.

Common reasons that we interested in dialects are related to the language perspective. We use our national language as a literary language.

We understand both dialect and national language meanings. We do not know the derivation of these words exactly. It is clear that there is a stage, but the development of our languages, dialects and development is controversial.

There have been a lot of observations and researches in dialects of Uzbek language and Surkhan valley dialect. Some dialectologists such as S. Ashirboyev, E. Polivanov, V.Reshetov and others tried to explain how the phonetic changes happened, extra vowels or syllables were added, reduced and developed.

**Methodology.** In the beginning the experimental method has been used to observe the dialects in the territory. Uzbek and Tajik languages dialects deeply compared with Surkhan dialect and then examples were presented therefore, comparative method was also used during this research.

**Discussion and results.** It is true that Uzbek language is considered one of the most widespread language in the Central Asia. Even though it is spoken only in Uzbekistan and

its neighbors, it is taught in various countries' universities such as Indian, Korean, Russian and others.

Nowadays numerous researches are being conducted by dialectologists in every part of Uzbekistan. Although the works dedicated to the study of the dialect are increasing in modern linguistics year after year, they are not being interested as literary language or other branches of linguistics. Significant research has been done to the development of the industry in the years of independence. However, these studies can not develop to examine Uzbek dialects fully and determine their linguistic nature.

The Uzbek language is one of the oldest among the Turkic languages. It is very rich in a dialect and regional language. Every region, every district, every village's style of speech is distinguished by its dialectal features.

V.V. Radlov, Sir Ali, Lapin, I.I. Yudakhin, Y.D. Polivanov, Ghazi Olim Yunusov, Sh. Shoabdurahmanov, F. Abdullayev, A.K. Borovkov, V.V. Reshetov, B. Toychiboyev, B. Hasanov and other dialectologists have worked on Uzbek language dialects and their characteristics and classification. A number of scientists such as S.Ibrohimov, A.Ishayev, S.Rahimov conducted scientific work. There are a lot of unstudied dialects and regional languages, especially linguo-geographical and monographic dialects in our country.

Our dialects are immortal and inexhaustible, expressing our identity and values.

It is no exaggeration to say that it is a treasure.

It is beautiful and colorful. Also, especially the South Surkhandarya dialect the speech of its representatives is also unique. It belongs to the

3rd dialect in the classification of D. Polivanov, the fifth of the Kipchak dialect.

According to A.K. Borovkov - it is expressed that Surkhandarya Uzbek dialects belong to the group of South Uzbek "j" speakers or Shaybani Uzbek.

It is indicated as a dialect of "j" speakers. According to Gozi Olim Yunusov's classification, it is included in the "Uzbek Kipchak" dialect. S. Rahimov based on these classifications Surkhandarya Uzbek

classifies dialects as follows:

1. Uzbek dialects with "j" (dialects specific to Kipchak dialect);

2. "y" Uzbek dialects (dialects specific to the Karalug dialect);

3. Bilingual dialects.

We can include Uzbek dialects of the 4th type "a" or "o" in this classification.

"o(a)nor", "o(a)hmoq", "a(o)lma", "kha(o)la", "ha(o)zir" and others.

In Surkhan valley Uzbeks have lived for thousand years as a result, most of words of region are derived from Uzbek language. Uzbek language was organized from combining three Turkish components :

1. Karluk – chigil –uygur dialect is linked to modern Uygur languages and Tajik language with ethno-linguistic relation.

2. Kipchak dialect is linked to Kazak-Karakalpak languages.

3. Oguz dialect has a link between Turkmen languages.

Kipchak dialect consists of various Turkish tribes' groups such as kipchak, nayman, kangli, mitan, laqay, uyshun, karakalpak, tama, kishliq, ongut, kiyot, durman, argin, uygur and others. These dialects are spread in a large territory of Uzbekistan. You can see people who speak in these regional languages in Tashkent, Fergana, Samarkand, Surkhandarya and every region of the country. Kipchak dialect is spoken not only in Uzbekistan but also Kazakhstan, Kyrgyzstan and Tajikistan republics. Kipchak dialect has a great influence on

Surkhan region's dialect. Surkhan dialect is combined with Tajik language dialects and Kipchak dialect. When you go to Surkhan valley you will hear following words with Kipchak dialect's impact:

Yekki-ikki (prokop)

Jetti-yetti

Qayse (qays)- qaysi (reduction)

Shuytib- shunday qilib (aphaeresis)

Ulim-o'glim (diatesis)

Manakay- mana (epithesis)

Yedingma-yedingmi (reduction)

Uytma-unday qilma (aphaeresis)

Bo'lama-bo'lmaydimi (aphaeresis)

Turpoq-tuproq (metathesis).

Tajik nationality is also nearby to Surkhandarya therefore Tajik dialects have great influence on Surkhan dialects. The following words are derived from impact of Tajik language.

Brinch-guruch

Boxabar-xabardor

Shammoni- shab mondin (aphaeresis)

Ov-ob (phonetic change)

Beparasat-befarosat (assimilation)

Chorvo-chorbog' (assimilation)

Navera-nevara (assimilation)

Famous Uzbek novelist Togay Murod's works consist of various Surkhan dialects. He wrote more than ten novels and expressed nearly twenty dialects that differ from each other. We can see the following phonetic changes in his works:

Adding extra sounds in the middle of the words such as sur'at (in literary Uzbek) – suvrat (in Surkhan dialect).

Phonetic changes of consonants in the middle of the words such as amakivachcha (in literary Uzbek)- amakibachcha (in Surkhan dialect).

3. Phonetic change of consonant "y" [j]- into "j"[dj] in the beginning of the words -yigit-jigit, yetti-jetti.

4. Phonetic change of the consonant "n" into "m" before "b" letter sunbula

(in literary Uzbek)- sumbula (in Surkhan dialect).

5. The following phonetic change of "j"[dj] into "y" [j] in the middle of the words. For example majlis - maylis

## REFERENCES

1. Ashirboyev Samijon. O'zbek dialektologiyasi. Toshkent 2013.
2. Lola To'raqulova Borrowed words in the Uzbek language. Scientific progress 2022. Issue 2.
3. Velieva Susanna Raipovna Comparative methods in Linguistic. International journal of future generation communication and networking. 2021 No.1.
4. Hamidov Mansur Abdumannobovich Surxondaryo O'zbek shevalariga doir ayrim paremlar tahlil. Oriental Renaissance: Innovative, educational natural and social sciences. Volume 2, 2022.
5. www. research gate.net.
6. Fayzullayev B., To'ychiyev A. Dialektologik amaliyot. Jizzax 2004.
7. Abdullayev F. O'zbek tilining o'g'uz lahjasi. Toshkent. 1961.
8. Omonturdiyev A., Rahmonov B. Surxondaryo dialectal-etnografik maqollarining izohli lug'ati. Toshkent, 2019.
9. Rahimov S. O'zbek tili Surxondaryo shevalari. Monografiya. Toshkent 1985.
10. Yoqubjonova M. Tog'ay Murod asarlarida shevaga xos so'zlar. Involta ilmiy jurnali. N. 4 2022.
11. Tog'ay Murod Oydinda yurgan odamlar Toshkent 2020.



UDK: 811.512.133:088:398.831

*Yusuf XOJIYEV,*  
*Guliston davlat universiteti doktoranti, (PhD).*  
*E-mail: yusuf.hojiyev@icloud.com*

*Prof. S.Normamatov taqrizi asosida*

### THE EXPRESSION OF THE CHARACTER "CHILDISHNESS" IN THE UZBEK LANGUAGE

Annotation

This article explores the manifestation of love for children in the Uzbek language, which is a national character. In particular, the expression of this character through comparisons has been carefully studied. In this case, the values of comparisons of the standard "child" were determined. It has been established that the national views of the people are reflected in comparisons, the subject of which is the child. It was clarified that people's desires are manifested in comparisons with precedent names.

**Key words:** National character, linguistic picture of the world, conceptual picture of the world, comparison, stable comparison, object of comparison, object of comparison.

### ВЫРАЖЕНИЕ ХАРАКТЕРА «ДЕТОЛЮБИЕ» В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация

В данной статье исследовано проявление детолюбие в узбекском языке, которая является национальным характером. В частности, тщательно исследовано выражение этого характера посредством сравнений. При этом определялись значения сравнений эталона «ребенок». Установлено, что национальные взгляды народа отражаются в сравнениях, предметом которых является ребенок. Было разъяснено, что желания людей проявляются в сравнениях с прецедентными именами.

**Ключевые слова:** Национальный характер, языковая картина мира, концептуальная картина мира, сравнение, устойчивое сравнение, объект сравнения, предмет сравнения.

### O'ZBEK TILIDA "BOLAJONLILIK" XARAKTERINING IFODALANISHI

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek milliy xarakteridan biri bo'lgan bolajonlilikning tilda namoyon bo'lishi o'rganildi. Xususan, mazkur xarakterning o'xshatishlar orqali yuzaga chiqishi atroflicha tadqiq qilindi. Bunda bola etalonni o'xshatishlarning ma'nolari aniqlandi. Subyekt bola, farzand bo'lgan o'xshatishlarda xalqning milliy qarashlarining aks etishi aniqlandi. Prezident birliklar mavjud o'xshatishlarda xalqning orzu-istaklari namoyon bo'lishi izohlandi.

**Kalit so'zlar:** Milliy xarakter, olamning lisoniy manzarasi, olamning konseptual manzarasi, o'xshatish, turg'un o'xshatish, o'xshatish obyekti, o'xshatish subyekti.

**Kirish.** O'zbek xalqining bolajon ekanligi hech kimda shubha tug'dirmaydi. Xalqimizning bolajon ekanligi qadriyatga aylanib, kishilarning qon-qoniga xarakter sifatida singib ketgan. Dunyodagi har bir inson millatidan qat'i nazar bolasini yaxshi ko'radi, taqdiri uchun o'zini javobgar deb biladi. Bu tomondan o'ylab qaralsa, bu umuminsoniy qadriyat sanaladi. Lekin o'zbek kishilarining bolajon ekanligi o'ziga xos milliy elementlarga ega. O'zbeklarning oila qurishdan asosiy maqsadlaridan biri farzand ko'rish sanaladi. Farzandsiz oilalarning baxtsizligi, aksariyat holatlarda ajralib ketishi hammaga ma'lum. Yoki oilada farzand tug'ilgandan so'ng ota-onaning barcha orzu-umidlari shu bola bilan bog'liq bo'ladi. Ajdodlarimizga e'tibor qaratilsa, juda serfarzand bo'lishgan. Bugungi kunda ham o'zbek oilalarda o'rtacha 3-4 nafar farzandning bo'lishi me'yor sanaladi. Ba'zi g'arb davlatlarida oila mustahkamligining asosiy manbasi er-xotin munosabatlari sanaladi. Lekin o'zbek oilalarida farzandlar oila mustahkamligini asosiy omili hisoblanadi. Farzandlar kamoli uchun ota-onalar o'zining shaxsiy farog'atidan kechib sep yig'ishi, uylar qurishi, dang'illama to'ylar qilishi ba'zida o'zimizga ham erish tuyuladi. Mana bir necha yillardan beri shunday isrofgarchilik bilan kurashiladi. Lekin jon bilan kirgan bu milliy xarakterning salbiy jihatlarini tuzatish oson bo'lmayapti.

O'zbek xalqi nafaqat o'z bolasiga, balki barcha bolalarga nisbatan mehrliki, xalqimizda Bir bolaga etti qo'shni

ota-ona, Bolaning begonasi bo'lmaydi kabi maqollar ushbu fikrimizni isbotlaydi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Biz quyida o'zbek xalqining bolajonlilik xarakterining o'xshatishlar orqali voqeanishini tahlilga tortamiz. O'xshatishlar jahon tilshunosligida 19- asrning 70-yillaridan boshlab jahon tilshunosligida o'xshatishlarga oid tadqiqotlar ko'paydi va buning natijasida bir qator o'xshatishlarning izohli lug'atlari yaratildi[1].

Bu davrda o'zbek tilshunosligida ham M.Mukaramov, R.Qo'ng'urov, N.Mahmudov, D.Xudoyberganovlarning monografik tadqiqotlari bajarildi, o'xshatishlarning izohli lug'ati yaratildi[2].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu maqolada antroposentrik va sistem tilshunoslikning asosiy tadqiq metodlari va ko'rsatmalaridan foydalanilgan.

Ma'lumki, inson olamni qiyoslash-o'xshatish orqali o'zlashtiradi, olamning lisoniy manzarasining shakllanishida qiyoslash-o'xshatish amaliyoti muham ahamiyat kasb etadi. "Har qanday madaniyat bilan tanishuv shu madaniyat egasi – millatga tegishli milliy dunyoqarash, milliy ong, tafakkur tarzi, N.Mahmudov ta'biri bilan aytganda, idrok intizomini anglashni taqozo etadi. Uning bunday o'ziga xosliklarini esa, albatta, til orqaligina anglab etish mumkin. Har bir millat o'zining milliy o'ziga xos olamning lisoniy manzarasiga ega ekanligi tilshunoslik ilmida keng e'tirof etilgan. Shu jihatdan olamning lisoniy manzarasini millatning idrok intizomini

ko'rsatuvchi ma'lumotlar majmuiga qiyoslash mumkin. Demak, olamning lisoniy manzarasi milliy xarakter va milliy mentalitet haqidagi bilimlar manbai sifatida gnoseologik ahamiyat kasb etadi"[3].

**Tahlil va natijalar.** O'zbek milliy xarakterimizda bolajonlilik ustuvor ekan, o'xshatish etaloni sifatida ham mazkur xarakter bilan bog'liq bola, farzand, beshik kabi so'zlar ko'p ishlatiladi. Quyida mazkur etalonli o'xshatishlarni tahlil qilib ko'ramiz.

Bola etalonli o'xshatishlar quyidagi ko'rinishlarda ishlatiladi: boladek, yosh boladek, boladey, bola kabi, bola singari, xuddi yosh boladek. Boladek o'xshatishi ko'p ma'noli bo'lib, "O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati"da ettita ma'nosi qayd etilgan bo'lsa, biz esa uning o'ndan ziyod ma'nolarini sanab o'tmoqchimiz:

Boladek ishonuvchan, boladek sodda: Ayol kishi aksar sodda bo'ladimi, go'limi, boladek ishonuvchanmi... (O. Muxtor. Egilgan bosh). Bu o'xshatishda "bola" konseptining ishonuvchan ekanligi voqelashgan. Bolaning soddaligi asos bo'lgan o'xshatishlar boshqa tillarda ham uchraydiki, bu umuminsoniy qarashlar bog'liqligidan darak beradi. Bu kabi o'xshatishlar odatda ijobiy konnotatsiyaga ega bo'ladi, ko'pincha, ayollarga, yoshi katta erkaklarga nisbatan ishlatiladi.

Boladek beg'ubor: Bu qadar bola kabi beg'ubor bo'lmasa bu Boboturk degani (N. Qobul. Buyuk Turon amiri yoxud aql va qilich). SHu o'rinda beg'ubor so'zining ma'nolariga to'xtalib o'tamiz. Ma'lumki, o'zbek tilining izohli lug'atida ushbu so'zga quyidagicha izohlar berilgan:

BEG'UBOR [be.. + g'ubor] 1 CHang-g'ubordan, ifloslikdan xoli; musaffo, toza. Zangori osmon ham shunday tiniq, shunday beg'uborki, ko'zni oladi. Oybek, G'anlangan asarlar.

2 ko'chma Ko'nglida yomonligi, kiri yo'q; pok, sofdil, sidqidil. Yuzidan mehr yog'ilib turgan bu ajoyib, sodda, beg'ubor qizga shartta uyulanib, oyimni baxtiyor qilishga nima xalaqit beradi? A. Muxtor, Asarlar.

3 ko'chma Dog' tushmagan, pokiza. Elmurod.. qarshisida chug'urlashgan, ko'zlari tiniq, qalblari beg'ubor bolalarning har birini quchoqlab, yuzlaridan o'pgisi keldi. P. Tursun, O'qituvchi. (O'TIL, 1, 297.)

Bir qaraganda, o'xshatish bola bilan bog'liq ekanligi uning uchinchi ma'nodan kelib chiqayotganligiga urg'u bersa; ko'ngilning, fikrlarning tozaligi nazarda tutilganligiga e'tibor qaratisa, boladek beg'ubor o'xshatishi ikkinchi ma'no asosida shakllangan deyishga asos bo'ladi. Bu o'rinda vaziyatga, muallifning niyatiga qarab har ikkala ma'no asosida ham shakllanishi mumkin degan fikrga keldik.

Boladek beozor, yosh boladek beozor: Baxtiyor xuddi yosh boladek pish-pish qilib beozor uxlardi. Uning orasi ochiq qalin qoshlari pirpirab qo'yadi. (M.Hazratqulov. CHo'li Iroq.) Ushbu o'xshatish ham ijobiy semantikaga ega bo'lib, jinsidan qat'i nazar ozor bermaslik holatida qo'llanaveradi. Ko'pincha, keksa kishilarga nisbatan qo'llanadi. Bunda birovga ozor bermaslik holati o'xshatishga asos bo'lgan.

Boladek injiq: G'afur G'ulomdek besaranjom, muloyimligidan ko'ra tajangligi ko'p, yosh boladek injiq odam bilan bir umr yashab kelayotgani uchun ham yaxshi ko'rasiz, demoqchisan (S. Axmad. Nazm chorrahasida). Mazkur o'xshatishda o'zbek xalqining bag'rikengligi, odamgarchiligi, so'zga munosabati yanada oydinlashadi. Aslida, injiqlik salbiy xususiyat bo'lib uni bola, ayniqsa, yosh bola bilan bog'lash mazkur salbiylikni biroz yumshatadi. Zero, bolaning injiqligi tabiiy holat bo'lib, bu holat salbiylikka yo'yilmaydi.

Boladek aldanmoq, yosh boladek aldanmoq: misol kerak. Bu kabi o'xshatishlarda o'zbek xalqining sodda, ishonuvchan xakteri namoyon bo'ladi. Aldanib qolish holati aslida salbiy holat. Lekin ushbu holat bolalarning, xususan,

yosh bolalarning soddaligi bilan assotsiatsiyalansa, salbiylik biroz yumshatiladi, millatga xos bo'lgan soddalik xakteri yoqimli ottenkaga ega bo'ladi. Bunda ham qo'llashdagi nozik jihatlarni hisobga olish kerakki, agar mazkur o'xshatish aldangan kishiga nisbatan aytilsa, salbiy yuzaga chiqadi: U Halimani yosh boladek aldash ketdi. Lekin aldangan odamga nisbatan qo'llansa, biroz salbiylik kuchsizlanadi. U yosh boladek aldanib qoldi kabi. Mazkur o'xshatishda aldangan kishining soddaligiga e'tibor qaratiladi. Rus tilida aldash bilan bog'liq o'xshatishlar ko'p bo'lib, ushbu tilda ham yosh boladek aldamoq o'xshatishi mavjud bo'lgan holda, baliqni sayoz joyga olib kelishdek aldamoq, laqqa baliqdek aldamoq, xuddi qarg'a tulkinidek aldagandek kabi hayvonlar bilan bog'liq o'xshatishlar ko'p uchraydi. Rus xalqida aldash va aldash holatiga asosan salbiy munosabat bildirilishi mazkur zoonim komponentli o'xshatishlarning ko'pligi bilan izohlanishi mumkin.

O'zbek tilida yosh boladek uyalmoq o'xshatishida ham o'zbek xalqining uyatchanlik xakteri o'z aksini topadi. Uyatchanlik ruhiy holat bo'lib, barcha xalqlarga xos xususiyat. Lekin bu holat o'zbek xalqida milliy xakter darajasiga etib borgan. Shu tufayli biz uni ko'proq ijobiy baholaymiz va bola etaloni bilan bog'lash ham shundan dalolatdir. Rus, ingliz va o'zbek tillarida uyat so'zining sinonimik qatorlariga e'tibor qaratisa ko'ramiz.

Rus tilidagi sinonimik qatorga e'tibor qaratsak, aksariyati salbiy ottenkaga ega: смущение, стеснение, неловкость, неудобство, вина, муки совести[4].

Ingliz tilidagi sinonimik qator: bashfulness, diffidence, sheepishness, reservedness, introversion, reticence, timidity, timidity, timorousness, mousiness, lack of confidence, self-consciousness, embarrassment, coyness, demureness shyness[5]. Shu o'rinda mazkur sinonimik qatoridagi so'zlarning semantikasiga e'tibor qaratsak, uyatchanlik bilan birla, ishonchsizlik, sukut, qo'rqqoqlik, qo'yga o'xshashlik kabi semalar ham mavjud va bu esa xalqning ba holatga salbiy munosabatini anglatadi.

O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'atida esa uyat so'zining sinonimik qatori quyidagicha berilgan: uyat, nomus, sharm, hayo, or, oriyat, andisha, ibo, isnod[6]. Ko'rinib turibdiki, o'zbek tilida uyat so'zining xalqimiz azaldan qadrlagan, o'zbek kishisida bo'lishi kerak bo'lgan fazilatlarini nomlangan.

Bola etalonli o'xshatishlardan yana yosh boladek javdiramoq, yosh boladek o'ynamoq, yosh boladek sevinmoq, boladek yig'lamoq, boladek xafa bo'lmoq, yosh boladek uxlamoq, boladek ovutmoq kabi turg'un o'xshatishlar mavjud.

